

A. RAFIYEV, G. MUXAMEDJANOVA,
N. ALOVUDDINOVA

O‘ZBEK TILI

5

Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumiy
o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

3-nashri



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2020

Ekspertlar:

- D. Izbosarova** – Toshkent shahridagi 104-maktabning o‘zbek tili fani o‘qituvchisi;
B. Karimova – Buxoro shahridagi 39-sonli IDUM o‘zbek tili fani o‘qituvchisi;
N. Taxirova – Toshkent shahridagi 3-maktabning o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.
X. Ziyaxanov – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o‘qituvchisi, xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi.

SHARTLI BELGILAR



– O‘qing



– So‘zlang



– Tinglang



– Yozing



– Bilib oling



– Lug‘at



– Yodda tuting



– Muomala odobi



– Fonetik mashq



– Uyga vazifa



– Savol va topshiriqlar

I mavzu: MENING VATANIM


(Ot – so‘z turkumi. Atoqli va turdosh otlarning qo‘llanilishi)



1-DARS



1-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasining xaritasi asosida Vatan mavzusida suhbatlashing. Unda quyidagi tayanch so‘zlar-dan foydalaning.



Tayanch so‘zlar: *Vatan, joylashgan, poytaxt, shaharlar, ta-rixiy obidalar, zamonaviy, bino, rivojlanmoqda, qurilmoqda.*

Namuna: – *Respublikamiz shaharlarida nimalar barpo etil-
moqda?*

– *Yurtimizda zamonaviy binolar qurilmoqda.*



2- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

- Komil, sen qayerda tug'ilgansan?
- Men Toshkent shahrida tug'ilganman.
- Toshkent qanday shahar?
- Toshkent – O'zbekistonning poytaxti. U qadimiy va navqiron shahar. Toshkentda zamonaviy binolar, go'zal bog'lar ko'p.
- Dono, o'zing qayerda tug'ilgansan?
- Men Buxoro shahrida tug'ilganman.
- Buxoro juda qadimiy shaharmi?
- Ha, Buxoro qadim tarixga ega. Bu shaharda tarixiy obidalar juda ko'p. Ko'plab zamonaviy binolar ham bunyod etilgan. Buxoroni ko'rishni ko'p sayyohlar orzu qiladi.
- O'zbekistonimizda shunday mashhur shaharlar ko'p. Bu yurt barchamizniki. Ana shunday tinch va obod Vatanda tug'ilib o'sayotganimizdan baxtiyormiz.



Bilib oling!

O'zbek tilida mustaqil so'z turkumlari oltita. Bular: *ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh.*

Ot – so'z turkumi. Ot deb, shaxs, narsa, joy ma'no-larini bildirgan so'zlarga aytiladi. *Kim? Nima? Qayer?* so'roqlariga javob beradi.

Masalan: *Kim?* Dildora. *Nima?* Kitob. *Qayer?* Toshkent.



1- mashq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Ajratilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

MENING VATANIM

Mening Vatanim – O'zbekiston. Men O'zbekistonda **tu-g'ildim**. Shunday **obod** yurtda yashayotganimdan doim **faxrlanaman**. Mening Vatanim buyuk olimlar, donishmandlar yurtidir. U Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlari bilan dunyoga **tanilgan**. Bu yurtning tabiati

juda go'zal. O'zbekiston serquyosh yurt, **bu yerda** shirin-shakar mevalar yetiladi. Shuningdek, oltin, gaz, ko'mir kabi **qazilma boyliklari** bilan ham mashhur. Bu o'lkada turli millatlar ahil va **farovon** yashaydilar. Shuning uchun men ona-Vatanimni sevaman.



Lug'at

obod – благоустроенный
tarixiy – исторический
faxrlanmoq – гордиться
donishmand – мудрец
tanilmoq – быть известным

serquyosh – солнечный
shirin-shakar – сладкий
qazilma boyliklar – полезные ископаемые



2- mashq. Otlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Biz (O'zbekiston, shahar) farzandimiz. 2. Do'stim (Nodir, mana) shaharda tug'ilgan. 3. (Biz, mahalla) obodligi uchun hissa qo'shamiz. 4. Vatanimiz chegarasini (Shunday, chegarachilar) qo'riqlaydilar. 5. (Siz, O'zbekiston)ning qaysi shaharlarida bo'lgansiz?



Uyga vazifa. Kim? Nima? so'roqlariga javob beradigan so'zlarga misol keltiring.

Namuna:

Kim? < Aziz

Nima? < kitob



2- DARS



1- topshiriq. Suhbat matnini partadoshingiz bilan o'qing. Lug'atda berilgan so'zlardan foydalanib, tarjima qiling.

- Dono, Mustaqillik bayramini qayerda nishonlading?
- Mustaqillik bayrami kuni Amir Temur xiyoboni va sayilgohga bordik. U yerda katta tomosha bo'ldi. O'tam ko'k, yashil pufaklar olib berdilar. Ularni osmonga uchirdik.

– Sen-chi, bayramda qayerga bording?
 – Bobom ikkalamiz shahrimizni sayr qildik. Yangi qurilgan bino va xiyobonlarni tomosha qildik. Bobom: „Yurtimiz tinch va obod bo‘lsin!“ – deb duo qildilar.
 – Komil, katta bo‘lganimizda biz ham yurtimiz rivoji uchun ko‘p ishlar qilamiz, to‘g‘rimi?
 – To‘g‘ri, Dono. Vatanimizni asrab-avaylaymiz, unga sadoqat bilan xizmat qilamiz.



Lug‘at

nishonlamoq – отмечать

sayr qilmoq – прогуливаться

xiyobon – сквер

tuyg‘u – чувство

tomosha qilmoq – любоваться; смотреть

tinch – мирный

sadoqat – верность

duo qilmoq – благословлять



1-mashq. Rasmlarni kuzating. Berilgan savollarga otlar ishtirokida javob yozing.



1. Toshkentda qurilgan bu zamonaviy bino qanday nomlanadi?
2. Registon majmuasi qaysi shaharda joylashgan?
3. Buxorodagi bu qadimiy obidaning nomini bilasizmi?
4. Xivadagi eng katta tarixiy majmua qanday nomlanadi?



Bilib oling!

Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo'yiladigan otlar atoqli otlar deb ataladi.

Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, geografik nomlar, tashkilot va muassasa nomlari atoqli otlardir. Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi: *Rahim Alimov, Olapar, Amudaryo, „Turkiston“ saroyi, Oybek, Toshkent shahri, „G'uncha“ jurnali, Navro'z bayrami.*

Shaxs nomlari	Geografik nomlar	Tashkilot va muassasa nomlari	Tarixiy sana va bayram nomlari
Rahim Alimov	Amudaryo	„G'uncha“ jurnali	Navro'z bayrami



2- mashq. Namunadan foydalanib, berilgan atoqli otlar ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Men „Ayyor tulki“ ertagini o'qidim.

Foydalanish uchun so'zlar: Sanjar, „Oloy“ bozori, Bog'iravon ko'chasi, Pomir tog'i, Chirchiq daryosi, „Ayyor tulki“ ertagi.



3- mashq. Atoqli otlar ishtirok etgan gaplarni topib, daftaringizga ko'chiring.

1. Amudaryo va Sirdaryo Orol dengiziga quyiladi.
2. Men „G'uncha“ jurnaliga obuna bo'ldim.
3. Gulchehra a'lo baholarga o'qiydi.
4. Chimyon tog'larida dam oldik.

Mustaqil ish. Atoqli otlarga misol keltiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

ONA-VATAN

Biz yashayotgan bepoyon, go'zal vatanimiz – O'zbekiston Respublikasidir. Respublikamizda tekisliklar, o'rmonlar, tog'lar, daryolar bor. Vatanimizning yer osti boyliklari ham juda ko'p. O'zbekistonda o'zbeklar, ruslar, tatarlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, koreyslar va boshqa millat vakillari yashaydi. Respublikamizda zavod va fabrikalar, ko'rkam binolar, obod bog'lar ko'p. Vatanimiz kundan kunga ko'rkamlashib bormoqda. Shahar va qishloqlar qayta qurilmoqda.

Biz yashayotgan mamlakatni ona-Vatan deb ataymiz. Vatanimiz bizni ona kabi mehr bilan erkalaydi. Voyaga yetkazadi. Shu sababli biz Vatanimizni onamiz kabi sevamiz, qadrlaymiz va uni ona-Vatan deya ulug'laymiz.



Lug'at

tekisliklar – равнина

o'rmonlar – леса

bepoyon – безгра-
ничный

kundan kunga –
день за днём

dalalar – поля

ko'rkam binolar – красивые
здания

ko'rkamlashmoq – совершенст-
вовать

ulug'laymiz – величаем

voyaga yetkazmoq – воспитывать



Uyga vazifa. 2-topshiriqda berilgan lug'atdagi so'zlar ishtirokida 4–5 ta gap tuzing.



3- DARS



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Ona tilingizga tarjima qiling.

Bir donishmanddan so'radilar:

– Qayerdan kelyapsiz?

- Vatandan.
- Qayerga ketyapsiz?
- Vatanga.
- Yo‘lingiz qayerda tugaydi?
- Vatanda.



Bilib oling!

Bir turdagi shaxs, narsa, o‘rin-joyning umumiy nomini bildirgan otlar turdosh otlar deyiladi.

Masalan: *ota-ona, hovli, duradgorlik, hunar, shahar, odam, maktab, parta, o‘quvchi.*



1- mashq. Turdosh otlar qatnashgan gaplarni topib, daftaringizga ko‘chiring.

1. Toshkent shahrini qurishda mashhur quruvchilar qatnashdilar. 2. SehrGAR Shahzodaga yana uchta topshiriq beribdi. 3. Maktab bog‘ida katta gulzor bor. 4. Sinfimiz o‘quvchilari shahar bo‘ylab sayohatga chiqdilar.



2- topshiriq. Matnlarni o‘qing. Savollar tuzing. Turdosh va atoqli otlarni topib, ularni daftaringizga ko‘chiring.

TOSHKENT

Toshkent – juda qadimiy shahar. Bu shahardan savdo karvonlari o‘tgan. Shaharliklar savdogarlarni muhtasham saroylarda kutib olishgan. O‘zaro savdo-sotiq rivojlangan. Bora-bora shahar savdo markaziga aylangan. Yildan yilga shaharning shuhrati ortib borgan.

Hozir Toshkent sanoati, iqtisodiyoti va madaniyati rivojlangan yirik va ko‘rkam shaharlardan biriga aylangan.

BAXMAL

Baxmal tumani Jizzax viloyatining tog‘ yonbag‘rida joylashgan. Havosi toza, suvi shifobaxsh. Baxmal qishlog‘i yonida sharshara bor. Bu maskan o‘zining ko‘rkamligi bilan

sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Baxmal o'zining olmasi, patirlari, tandir kabobi bilan mehmonlarni lol qoldirgan. U yerning odamlari soddadil, mehnatsevar va mehmondo'stdirlar.

Yo'lingiz tushsa, albatta, Baxmalga kiring.



2- mashq. Berilgan so'zlardan foydalanib, gaplarni to'ldiring va davom ettiring.

1. Mening Vatanim ... yurt, uning nomi –
2. Barchamiz bag'rida o'sdik,
3. 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining
4. ... obod va ... yurtda yashaymiz.
5. Biz farzandlarimiz.

Foydalanish uchun so'zlar: serquyosh, farovon, O'zbekiston, shu yurt, ulg'aydik, Mustaqillik kuni, mustaqil, O'zbekistonning, biz.



Muomala odobi

- Do'stim, sog'lig'ing yaxshimi?
- Ha, yaxshi. O'zing-chi, yaxshimisan?
- Rahmat, yaxshiman. Onang yaxshi yuribdilarmi?
- Rahmat. Onam yaxshilar.
- Mendan salom ayt...



3- mashq. Berilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: hunar, shahar, odam, maktab, parta.

Namuna: yangi maktab.



4- mashq. Berilgan so'z va so'z birikmalarini to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing.

- 1) milliy, bog'ga, bordik, biz, mustaqillik bayrami, kuni.
- 2) O'zbekiston bayrog'i, hilpiraydi, ana shu, bino, tepasida.
- 3) ahil yashaydilar, turli millatlar, yurtimizda.
- 4) vatan ozodligi, uchun, ular, kurashganlar.
- 5) bizning vatanimizdir, obod yurt, ana shu.

Mustaqil ish. O‘zbekistonning qadimiy obidalari va zamonaviy binolarini qiyoslab, gaplar tuzing. *Shahar* so‘ziga „Klaster“ tuzing.



Uyga vazifa. Vatanningiz haqida mustaqil matn tuzing va so‘zlab bering.

Foydalanish uchun so‘zlar: tarixiy obida, yo‘llar, zamonaviy binolar, sayyohlar, zamonaviy uylar.



4- DARS



1- topshiriq. Matn yuzasidan topshiriqlarni bajaring.

MENING O‘LKAM

Mening Vatanim – O‘zbekiston. O‘zbekiston serquyosh, go‘zal va boy o‘lka. O‘lkamiz o‘zining paxtasi, bug‘doyi, sholisi, meva va sabzavotlari bilan mashhur. Uning yer osti boyliklari ham mo‘l. O‘zbekistonda zamonaviy va qadimiy shaharlar ko‘p. Uning poytaxti – Toshkent.

Toshkent madaniyat va ma‘rifat maskani. Toshkent mahallalariga barcha sayyohlarning havasi keladi. Chunki bunday sarishta, ozoda, go‘zal, qariyalari hurmatda, yoshlari izzatda, oilalari tinch, qo‘shnilari ahil mahallalar faqat bizda bor.

Shahar aholisi o‘zining mehmondo‘stligi, saxovatli insonlarining tabassumi va mehnatsevarligi bilan hurmatga sazovordir.

Men shu yurtning farzandi ekanligimdan faxrlanaman!



Lug‘at

o‘lka – край
bug‘doy – пшеница
sholi – неочищенный рис
ma‘rifat maskani – центр просвещения

mashhur – знаменитый, известный
madaniyat – культура
sayyohlar – туристы



Matn yuzasidan topshiriqlar

1. O'qing. Tinglang. So'zlang.
2. Turdosh va atoqli otlarni topib, ko'chirib yozing.
3. Ona tilingizga tarjima qiling. Savollar tuzing.



Fonetik mashq

mening mahallam
sening uying
ko'chamiz

mening Vatanim
mana maktab
obod yurt



1- mashq. So'zlarni turdosh va atoqli otlarga ajrating va jadvalni davom ettiring.

Shahar, odam, maktab, Sirdaryo, Toshkent, Alisher Navoiy, G'afur G'ulom, Navro'z bayrami, Samarqand, „Zulfiya“ mukofoti, neft, bug'doy, gaz, ustoz, Lobar, oshpaz, Salim usta, ko'mir, Zarafshon, Nukus, Mustaqillik kuni, „O'zbekiston“ she'ri.

Turdosh otlar	Atoqli otlar
Shahar	Alimov
...	...



2- mashq. Maqol va hikmatlarni o'qing. Ularning mazmunini bilib oling.

1. Vatan ostonadan boshlanadi.
2. Vatanni sevmoq imondandir.
3. Yurt tinchligi – el boyligi.
4. O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l.

Mustaqil ish.

1. Vatan mavzusida „Esse“ yozing.
2. O'z shahar yoki qishlog'ingizdagi o'zgarishlar haqida so'zlab bering.



Uyga vazifa. Vatan haqida atoqli va turdosh otlarni qo'llab, gaplar tuzing.



5- DARS



1-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

Yurt qo'risang o'zarsan,
Qo'rimasang to'zarsan.

Yurti boyning o'zi boy.

Yaxshi yigit yurt tuzar,
Yomon yigit yurt buzar.

O'z yurtiingning qadri
Boshqa yurtda sezilar.

Mustaqil ish. 1-topshiriqda berilgan maqollardan foydalanib, nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, daftaringizga ko'chiring.

Yaxshi ... yurt tuzar,
Yomon yigit ... buzar.

O'z yurtiingning ...
Boshqa ... sezilar.



1-mashq. Berilgan so'zlarni guruhlarga ajrating. Birinchi ustunga atoqli otlarni, ikkinchi ustunga turdosh otlarni yozing.

Rustam Qosimjonov, shaxmat, shashka, Zulfiya, nishon, she'r, kitob, Andijon, choynak, Lobar, oila, maktab, gul, gulzor, Ahror, Qora dengiz, duradgor, ko'ylak, yigit, vatan.

Bilasizmi?

Zafar Diyor o'zbek bolalar shoiri. U 1912- yilda tug'ilgan. „Qo'shiqlar“ uning birinchi she'riy to'plami bo'lib, yana „Kichkina bog'bon haqida doston“, „Chaman“, „Gunafsha“, „Asarlar“ kabi to'plam va saylanmalari nashr etilgan.



2- mashq. O'qing. Tinglang. She'r matnidan atoqli otlarni toping va daftaringizga yozing. Lug'at tuzing.

YASHNA, VATAN!

Yashna, Vatan, jon Vatan,
Senga sharaf-shon, Vatan,
Sensan bizning onamiz,
Hadya senga jon va tan!
Osmon, dengiz, ko'llaring,
Oltin yering ulug'dir.

Gulshan dalang, qirlaring
Gul-lolaga to'liqdir.
Erk istagan yuraklar,
Topdi sendan saodat.
Porloq erur tilaklar,
Berding sevinch va rohat.

Zafar Diyor



Uyga vazifa. Vatanga bo'lgan muhabbatingiz haqida „Esse“ yozing.



II mavzu: OILA A'ZOLARINING ISH KUNI



(Shaxs otlari. Kasb-hunar otlarining qo'llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Rasm asosida do'stlaringizni oila a'zolaringiz bilan tanishtiring.



2- topshiriq. Berilgan so'zlardan foydalanib, „Mening oilam“ matnini yozma ravishda davom ettiring.

MENING OILAM

Bu mening oilam. Oilamiz olti kishidan iborat. Ular ...

Foydalanish uchun soʻzlar: ota, aka, uka, amaki, bobo, buvi, ona, opa, singil.



Bilib oling!

Shaxs otlari insonlarning kasbini bildirib keladi. Ular tub va yasama boʻladi. Yasama shaxs otlari *-chi, -kor, -bon, -soz, -shunos, -paz, -gar, -dor, -doʻz, -kash, -dosh* qoʻshimchalari bilan yasaladi.

Yasama shaxs otlari: *Ishchi, zargar, paxtakor, chorvador, bogʻbon, etikdoʻz, soatsoz, dorboz, oshpaz, sinfdosh.*

Tub shaxs otlari: *dehqon, xonanda, raqqosa.*



1- mashq. Tub va yasama shaxs otlarini aniqlang. Yasama shaxs otlarini yasovchi qoʻshimchalariga koʻra guruhlarga boʻlib koʻchiring.

Oʻqituvchi, sanʼatkor, sportchi, hamshira, xonanda, shifokor, aloqachi, soatsoz, dehqon, kimyogar, qoʻshiqchi, shoir, haydovchi, muhandis, rassom, haydovchi, quruvchi, zargar, tilshunos, gilamdoʻz, sotuvchi, uchuvchi.

<i>Namuna:</i>	-kor	-chi
	sanʼatkor	sotuvchi
	shifokor	quruvchi



3- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang.

Dadam bilan oyim har kuni ertalab ishga ketadilar. Men singlim bilan maktabga boramiz. Ukam esa bogʻchaga boradi. Dadam bilan oyim bizlarni mashinada maktabga va bogʻchaga olib boradilar. Bogʻcha uyimizga yaqin, ammo maktab ancha uzoq. Oyim shifokor, shuning uchun shifoxonaga ketadilar. Dadam haydovchi, boshqa shaharlarga yuk tashiydilar. Buvam har kuni mahalla idorasiga

boradilar. U kishi mahalla oqsoqoli. Buvim uy bekasi. Ular uyga kelishimizga mazali taomlar pishirib qo'yadilar.



Lug'at

ertalab – утром

yaqin – близко

uzoq – далеко

haydovchi – водитель, шофёр

yuk – груз

idora – правление



2- mashq. 3- topshiriqda berilgan matndan foydalanib, oilangiz a'zolarining ish kuni haqida bog'lanishli matn tuzing.



3- mashq. Nuqtalar o'rniga so'zlarning mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

1. Bu mening 2. Oilamiz ... va inoq. 3. Bobom va ... nafaqadalar. 4. ... – tadbirkor. ... shifokor. 5. ... universitet talabasi. 6. ... o'quvchi. 7. Sizning ... qayerda o'qiydi?

Foydalanish uchun so'zlar: buvim, onam, akam, ahil, otam, oilam, opangiz, singlim.

Mustaqil ish. Tub va yasama shaxs otlariga 3–4 tadan misol yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.




Uyga vazifa. *Soatsoz, dorboz, zargar* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.



2- DARS



1- topshiriq. Rasmlar asosida gaplarni to'ldiring. O'z oila a'zolaringiz haqida ham shunday gaplar tuzing.



Mening akam ...



Mening opam ...



Mening amakim ...



Mening ammam ...



1- mashq. Berilgan soʻzlar ishtirokida ularning ish kuni haqida gaplar tuzing.

Togʻam, amakim, xolam, buvam, ukam, singlim.

Namuna: Togʻam tadbirkor. U kun davomida hamkorlar bilan muzokaralar olib boradi, xaridorlar bilan uchrashadi.



Bilib oling!

Oʻzbek tilida kasb-hunar, sohalarni bildiruvchi otlar **-lik**, **-chilik** qoʻshimchalari bilan yasaladi. Masalan: quruvchi+**lik**, zardoʻz+**lik**, binokor+**lik**, dehqon+**chilik**, pazanda+**chilik**, kulol+**chilik**.



Fonetik mashq

tadbirkor
gʻallakor

bogʻbon
darbozabon

quruvchilik
zardoʻzlik

binokorlik
kulolchilik



2- mashq. Berilgan soʻzlarga **-lik**, **-chilik** qoʻshimchalaridan mosini qoʻshib, avval **-lik** qoʻshimchali soʻzlarni, soʻng **-chilik** qoʻshimchali soʻzlarni yozing.

Dehqon, sotuvchi, kon, quruvchi, rassom, paxta, sanʼatkor, shifokor, toʻquvchi, novvoy, dorboz, suvchi, gilamdoʻz, ovchi, haydovchi, qandolatchi.



2- topshiriq. Oʻqing. Soʻzlang. Matn asosida oʻz matningizni tuzing.

Mening akam rassom. Akam rasm chizishga bolaligidan qiziqqan. Ular peyzaj, natyurmort va portret chizishni yaxshi ko'radilar. Tabiat va o'simliklar dunyosini sinchiklab o'rganib, so'ngra ish boshlaydilar. Ilhom kelganda tanaffussiz kun bo'yi ishlashlari mumkin.

Kechqurun hamma dasturxon atrofiga yig'ilganida akam chizgan rasmlarini ko'rsatadilar. Rasmlarini ko'rib, barchamiz xursand bo'lamiz. Hozirgi kunda akam taniqli rassom. Har yili ularning ko'rgazmalari tashkil qilinadi.



3-mashq. Gapnlarni o'qing. Ajrati ko'rsatilgan so'zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Tanishing, bular mening **oila a'zolarim!**
2. **Oilamiz** a'zolari ahil va inoq.
3. Nigora **xolam** biznikiga mehmonga keldi.
4. **Akam** imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirdi.
5. **Ammam** mazali ovqat tayyorladi.
6. **Qarindoshlarimizni** mehmonga taklif qildik.

Mustaqil ish. *Pazandachilik, quruvchilik* so'zlariga „Klaster“ tuzing.



Uyga vazifa. *Zardo'zlik, binokorlik, kulolchilik* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.



3- DARS



1- topshiriq. Rasmlar asosida kim qayerga borishini ayting.



Dadam



Onam



Akam



Opam



Xolam



Amakim



2-topshiriq. O'qing, suhbatni davom ettiring.

- Bobur, uyga ketyapsanmi?
- Yo'q, amakimnikiga ketyapman.
- Nima uchun amakingnikiga ketyapsan?
- Buvim amakimnikida mehmonda edilar. Ularni ko'rish uchun ammam ham amakimnikiga borar ekan. Buvim, amakim va ularning oila a'zolarini ko'raman, ammam bilan ham uchrashaman.
- Amaking kompyuter dasturi bo'yicha muhandislar-a?
- Ha. Agar ishdan barvaqt qaytsalar, matematika fanidan multimedia dasturini tayyorlash bo'yicha maslahatlashmoqchiman.
- Juda zo'r-ku! Demak, sen sinflararo o'tkaziladigan „Kompyuter bilimdoni“ tanloviga tayyorgarlikni boshlab yuboribsanda?
- Ha, do'stim! Sen ham o'zingga topshirilgan vazifa ustida ishlayapsanmi?
- Men ingliz tilida bir qancha mavzudagi matnlarning animatsiya ko'rinishidagi elektron shakllarni ishlab chiqishim kerak.
- Agar shu matnlarning rus va o'zbek tilidagi shakllarini bersang, yanada qiziq bo'lardi.



3-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Matn asosida o'z matningizni tuzing.

Mening onam shifokor. Onamning aytishlaricha, kichik yoshda bo'lganlarida otalari betob bo'lib qolgan ekan. Shunda shifokorlar ularni davolashgan ekan. Onam shifokor bo'lsam,

men ham odamlarni davolayman deb, oldilariga maqsad qo‘ygan ekanlar. Shu sababli onam shifokorlik kasbini tanlagan ekanlar. Onam oilaviy shifoxonada ishlaydilar. Haftada bir marta bolalar shifoxonasida navbatchilik qiladilar. Yakshanba kunlari oilamiz davrasida dam olamiz. Men ham onam kabi shifokor bo‘lishni orzu qilaman.



1- mashq. So‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib, gaplarni ko‘chiring.

1. Qayg‘uradilar, ota-onamiz, uchun, biz. 2. Menga, bu, bobom, o‘rgatdi, hunarni. 3. Qarindoshlarimiz, qaror, qildik, bilan, sumalak pishirishga. 4. Birdam, orzusiga, bo‘lsa, hamma, yetadi, oila. 5. Qo‘shning, sen, tinch, tinch!



Muomala odobi

Kattalarga murojaat qilish shakllari:

- Assalomu alaykum, dadajon! (buva, buvi...)
- Amaki (xola, opa, aka), keyingi bekatda tushmasangiz meni o‘tkazib yuboring.
- Ustoz, menga yangi mavzuni tushuntirib bering.

Mustaqil ish. „Kattalarga murojaat qilish“ shaklida suhbat matnini tuzing.



Uyga vazifa. Yasama shaxs otlari va tub shaxs otlariga misollar yozing.



4- DARS



1- topshiriq. Suhbat matnlarini o‘qing va davom ettiring.

- Salom, Salima.
- Salom, Asal.
- Qayerga ketyapsan?
- Kutubxonaga.
- Nimaga?
- Onam kutubxonada ishlaydilar. Ularga yordam bermoqchiman.
-

- Dilshod, sen katta bo'lganingda kim bo'lmoqchisan?
- Quruvchi bo'lmoqchiman, chunki amakim quruvchilar. Ular „Toshkent Siti“ni qurishda qatnashyaptilar. Ularga havas qilaman.
- Sen-chi, Aziz?
-



1- mashq. Oila a'zolarining ish kuniga taalluqli so'z birikmalardan foydalanib, jadvalni to'ldiring.

Buvam	Buvim	Otam	Onam	Opam	Ukam

Foydalanish uchun so'z birikmalari: universitetga boradi, maktabga boradi, dam oladilar, gazeta o'qiydilar, ishga boradilar, bog'chaga boradi, shifoxonaga boradilar, stadiona boradilar, ovoz yozish studiyasiga boradilar.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. Mazmuniga e'tibor bering.


Mening onam kutubxonachi, ular bozorda ishlaydilar. Otam o'qituvchi, ular shifoxonada ishlaydilar. Bobom oshpazlar, ular stadiona ishlaydilar. Men 3- sinfda o'qiyman. Ukam 5- sinfda o'qiydi.

Mustaqil ish. 2- topshiriqda berilgan gaplarning xatosini tuzatib, daftaringizga ko'chiring.

Namuna: Men 5- sinfda o'qiyman.



2- mashq. So'zlarni qo'shib gaplar tuzing.



Uyga vazifa. Kasb-hunar otlariga misol keltiring.



5- DARS



1- topshiriq. Berilgan kasb-hunar otlari ishtirokida suhbat matnini tuzing.

Foydalanish uchun soʻzlar: suxandon, oshpaz, tikuvchi, muhandis, ishchi, oʻquvchi, kulol, uchuvchi.

Namuna:

- Men katta boʻlganimda kulol boʻlmoqchiman.
- Nega?
- Chunki oilamiz qadimdan kulolchilik bilan shugʻullanishgan.
- Menga ham kulolchilik yoqadi.
-



1- mashq. Berilgan soʻzlar ishtirokida ularning ish kuni haqida gaplar tuzing.

Oʻqituvchi, sanʼatkor, sportchi, hamshira, xonanda, shifokor.

Namuna: Sportchi sport mashqlari bilan shugʻullanadi.



2- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Savollarga javob bering.

MENING OILAM

(Topishmoqli sheʼr)

Qadrdon xonadonda
Eʼzozliman hamma vaqt.
Eplayman hamma ishni,
Yumushlarim boʻlar taxt.

Ukam ismi jismiga
Munosib, aslo tolmas.
Oʻqishlari ham aʼlo,
Hech ikki baho olmas.

Shirinim deb, singlimga
Mehribon har dam oyim.
Kechasi alla aytib,
Uxlatib qoʻyar doim.

Baxtiyordir dadamlar,
Azizdir menga akam.
Hammamiz oilada
Ahildirmiz chinakam.

Aytgin, ey she'rxon, aqling
Bo'lmasa agar betob.
Oilada biz nechta?
Va ismimizni ham top!

E'zoza Alimova



Lug'at


qadrdon – дорогой
xonadon – квартира
yumush – работа
ahil – дружный

singil – сестра (младшая)
uka – брат (младший)
hamma – все
ism – имя

1. She'rda oila a'zolari necha kishidan iborat ekan?
2. Ismlarini yozing.

Mustaqil ish. *Buva, buvi, aka, uka* so'zlariga „Klaster“ tuzing.

Namuna:



Uyga vazifa. O'z oila a'zolaringiz ish kuni haqida bog'lanishli matn tuzing.

III mavzu: YANGI FANLARNI O'RGANAMIZ

(O'rin-joy va narsa-buyum otlarining qo'llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Berilgan so'zlardan foydalanib, rasm asosida suhbatni davom ettiring.



Foydalanish uchun so'zlar: qiziqarli, xaritalar, foydalanish uchun, ko'rgazmali qurollar, javon, devor, rasmlar, keng, yorug'.

Namuna:

- Hozir qaysi dars bo'ladi?
- Tarix darsi bo'ladi.
- Sen tarix xonasi qayerda joylashganini bilasanmi?
- Ha, ikkinchi qavat, 30-xonada.
- Men tarix xonasiga hech ham kirmaganman. Sanchi?
- Men bu xonada bo'lganman. U yerda ...



2-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga javob bering. Tarjima qiling.

YANGI FANLAR

Mana, yangi o'quv yili ham boshlandi. Endi har biringiz o'zingizni kattalardek his qilyapsiz. To'g'rimi? Buning sababi shuki, siz bir qancha yangi fanlarni o'rganishni boshladingsiz. Bular tarix, botanika, informatika, adabiyot kabi fanlardir. Kitob javoningizdan yangi fanlarga oid darsliklar joy oldi. Siz hozirdan yangi fanlarni qunt bilan o'rganishingiz zarur. Har kimning sevimli fani bo'ladi. Agar biror mavzuni tushunmasangiz, albatta, o'qituvchingizdan so'rang. Shunday qilsangiz, bilim olishga bo'lgan intilishingizni kuchaytirasiz. Har kuni biror-bir yangi bilimga ega bo'lishga harakat qiling. Vazifalarni o'z vaqtida tayyorlashga odatlaning.



Savollar

1. Dars jadvalida yana qanday fanlar joylashtirilgan?
2. Qaysi fan siz uchun qiziqarli?
3. Qaysi fanni o'zlashtirishda qiynalyapsiz?



Lug'at

o'quv yili – учебный год

har bir – каждый

bir qancha – несколько

mavzu – тема

intilish – стремление

odatlanmoq – привыкать, приучаться




Bilib oling!

O'rin-joy otlari tub va yasama bo'ladi. Yasama o'rin-joy otlari *-loq*, *-zor*, *-iston*, *-goh*, *-xona* qo'shimchalari bilan yasaladi. Masalan:

tub otlar: *vodiy*, *maktab*, *hovli*;


yasama otlar: *o't+loq*, *Gul+iston*, *orom+goh*.

 **1- mashq.** Berilgan soʻzlarni ikki guruhga ajratib koʻchiring.

Toshkent, maktab, gulzor, vodiya, Samarqand, qishloq, togʻ, oromgoh, Oqtepa, shahar, Chimyon, Xiva, koʻcha, oʻtloq, Bodomzor, daraxtzor, Olmaliq, Chinoz, Chinobod, sinf.

Tub otlar:

Yasama otlar:

 **2- mashq.** Qavs ichidagi soʻroqlar oʻrniga mos oʻrin-joy otlarini qoʻyib yozing.

Men (*qayerda?*) viloyatida yashayman. Viloyatimizda oromgohlar (*qayerda?*) joylashgan. Yozgi taʼtilda singlim bilan (*qayerda?*) dam oldim. Bu oromgoh (*qayerda?*) joylashgan. Men oromgohda (*qayerga?*) qatnashdim. Har kuni (*qayerga?*) chiqdik, turli dorivor oʻsimliklar bilan tanishdik.

 **Fonetik mashq**

daraxtzor
kasalxona

oromgoh
koʻcha

qishloq
togʻ


kutubxona
maktab

 **3- mashq.** Berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

Foydalanish uchun soʻzlar: hovli, gulzor, viloyat, darsxona.

Namuna: Qishloqda yangi maktab qurildi.

Mustaqil ish. Oʻrin-joy otlariga misollar keltiring. Ular ishtirokida „klaster“ tuzing.



 **Uyga vazifa.** Yoqtirgan fanningiz haqida kichik matn tuzing.



2- DARS



1- topshiriq. Yangi fanlar haqidagi suhbatni davom ettiring.

- Hamid, senga yangi fanlar yoqdimi?
- Ha. Menga ularning barchasi yoqdi. Senga-chi?
- Menga ham yoqdi. Botanika fani boshqa fanlardan ko'ra ko'proq yoqdi.
- To'g'ri. Har bir o'quvchining o'z sevimli fani bo'lishi kerak.



1- mashq. Har bir gapning davomini toping va daftaringizga ko'chiring.

- | | | |
|--|--|---|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Chet tili darsida 2. Barcha xalqlar 3. Toshkentning 2200 yillik tarixiga oid 4. Har kim o'z qiziqishiga ko'ra 5. Botanika darsida | | <p>o'simliklar hayotini o'rganamiz.</p> <p>har bir ma'lumot biz uchun qimmatli.</p> <p>ma'lum fan to'garagiga a'zo bo'ladi.</p> <p>o'z qadimiy tarixiga ega.</p> <p>har bir o'quvchining kitobi, daftari va lug'ati bo'lishi shart.</p> |
|--|--|---|



Yodda tuting!

Narsa-buyum otlari tub va yasama bo'lishi mumkin. Yasama narsa-buyum otlari *-don, -gich (-g'ich), -k, -q, -oq, -gi, -m, -im, -ma* qo'shimchalarini qo'shish yordamida yasaladi. Masalan: *guldon, o'chirg'ich, muzlatgich, chizg'ich, elak, taroq, supurgi, to'plam, kiyim, tugma, qalamdon, o'roq.*



2- mashq. Narsa-buyum otlarini ma'no guruhlariga ajratib yozing.

1.	Kiyim-kechak nomlari	
2.	Oziq-ovqat nomlari	
3.	Hayvonlar nomlari	
4.	Idish-tovoqlar nomlari	
5.	Ish qurollari nomlari	
6.	O'simlik nomlari	

Do'ppi, palov, arra, sho'rva, piyola, lola, sher, go'sht, chizg'ich, quyon, qozon, boychechak, ko'ylak, cho'mich, palto, supurgi, shim, tesha, tulki, bolta, rayhon, piyola, chuchvara.



3- mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga narsa-buyum otini yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Dadam do'kondan yangi muzlat... sotib oldilar.
2. Zilola dugonasining tug'ilgan kuniga chiroyli gul... sovg'a qildi.
3. Ela... ham oshxona jihozi hisoblanadi.
4. Qir... yordamida sabzi sharbati tayyorlanadi.
5. Stol ustida yelpi... turardi.

Mustaqil ish. Rasmlar asosida berilgan savollarga javob yozing. Javoblaringizni ona tilingizga tarjima qiling.



1- rasmda o'qituvchi o'quvchiga nimani ko'rsatyapti?
Bolaning qo'lida nimalar bor?

2-rasmda qanday mashg'ulot tasvirlangan?
Siz ham biron sport turiga qiziqasizmi?



4- mashq. Gaplarni ona tilingizga tarjima qiling va daftaringizga ko'chiring.

1. Botanika fanidan har birimiz uchun maxsus topshiriq berildi. 2. Matematika fanida qiziqarli masala ishladik. 3. Har bir fan uchun maxsus xona ajratilgan. 4. Maktab kutubxonasida o'qish uchun turli badiiy kitoblar bor. 5. Darsga tayyorgarlik ko'rdik.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Sizningcha, „O'zbek tili“ fani qanday murojaat qilgan bo'lar edi?

FANLAR BAHSI

Matematika:

Bolalar, hamma ishda
Kerakdir hisob-kitob.
Meni o'rganmasangiz
Bo'lar holingiz xarob.

Tarix:

Buyuk bir tarixing bor,	Uni kitobday xuddi
Uni bilmasdan axir,	O'qiy olish kerakdir.
Qayda senda iftixor,	Ulug' bobokalonlar
Qayda dilingda faxr?	Ruhi sizni qo'llagay.
Har bir ko'hna obida	Adashgan farzandlarni
Tirik tarix demakdir.	To'g'ri yo'lga yo'llagay.

Chet tili:

Balki orzu qilasiz
Ko'ray deb uzoq elni.
Buning uchun, avvalo,
Bilib oling chet tilni.

Geografiya:

Ayting-chi, dunyoda
Qancha dengiz, daryo bor?
Qancha tog', qancha shahar –
Hammasin bilish darkor.

Adabiyot:

Yozuvchilar, shoirlar
Hayotidan soʻzlayman.
Navoiy va Boburlar
Ijodidan soʻzlayman.

Ichim toʻla ajoyib
Qissa-yu sheʻr, hikoya.
Qiziqib oʻqisangiz,
Shudir menga kifoya.

Rauf Tolib



Lugʻat

hisob – счёт

hol – *здесь*: состояние

iftixor – гордость

koʻhna – древний

ruh – дух

kifoya – достаточно, довольно



Uyga vazifa. „Fanlar bahsi“ sheʻridan parcha yod oling.



3- DARS



1- topshiriq. Suhbat matnini oʻqing. Oʻzingiz yoqtirgan faningiz haqida suhbatlashing.

- Buvijon, bugun bizning sinfimizda botanika fanidan noanʻanaviy dars boʻldi.
- Qanday mavzu oʻtdingiz?
- „Oʻzbekiston oʻsimliklari“ mavzusini oʻtdik.
- Nimalar haqida bilib oldingiz?
- Yoʻqolib ketayotgan oʻsimliklarning nomi, soni, yoʻqolib ketish sabablari, ularni himoya qilish usullari haqida maʼlumot oldik.



Yodda tuting!

-q narsa-buyum oti yasovchi qoʻshimcha *a* unlisi bilan tugagan feʼllarga qoʻshilganda *a* unlisi *o* shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Masalan: *tara+q* – *taroq*, *boʻya+q* – *boʻyoq* kabi.



1- mashq. Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

...dosh, ...g'ich, ...paz, ...shunos, ...kich, ...chi, ...don, ...kor, ...soz, ...qich, ...m, ...qi, ...im, ...gich, ...gi.

Foydalanish uchun so'zlar: gul, och, to'plamoq, sinf, so-vutmoq, kiymoq, osh, sport, paxta, yelpimoq, soat, tuz, shifo, och, supurmoq.



Muomala odobi

- | | |
|---------------------------|-------------------|
| – Yaxshimisiz? | – Rahmat, yaxshi! |
| – Yaxshi yuribsizmi? | – O'zingiz-chi? |
| – Sog'lig'ingiz yaxshimi? | – Yomon emas. |



2- mashq. Rasmda berilgan buyumlar qaysi o'quv faniga tegishli ekanligini ayting va jadvalga to'g'ri joylashtiring.



Fanlar	O'quv qurollari nomi		
Matematika	<i>chizg'ich</i>		
Botanika			
Tarix			



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. Savollarga javob bering, matn mavzusiga mos sarlavha toping.

Bugun bizda yangi fanlardan „Tarbiya“ darsi bo'ldi.

Bu darsda bizga ustozimiz qiziq rivoyat aytib berdilar. Bu rivoyat hammamizga yoqdi. Juda qadim zamonda ikki podshoh yashagan ekan. Ularning biri urishqoq, ikkinchisi

esa tinchliksevar bo'lgan ekan. Urishqoq podshoh urishish maqsadida qo'shnisidan avval uning otini, keyin qilichini so'rabdi. Tinchliksevar podshoh so'ralgan narsalarning hammasini beribdi. Qo'shnisi yana bahona qidiribdi. Endi u mamlakatga qarashli bo'lgan tashlandiq yerni so'rabdi. Bu safar u rad javobini olibdi.

Bir parcha yer ham Vatanning bir bo'lagidir. Vatan muqaddas bo'lib, uning bir qarich yeri ham hech kimga berilmaydi.

Bu fan bizga juda yoqdi. O'qituvchimiz juda ko'p qiziqarli narsalar haqida gapirib berdilar. Ko'p narsa o'rgandik. Uyga borib, darsda olgan bilimlarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.



Savollar

1. „Tarbiya“ fani qanday fan?
2. Tinchliksevar podshoh nima uchun qo'shni podshohga hamma so'ragan narsasini beribdi?
3. U tashlandiq yerni nima uchun bermabdi?



Lug'at

yangi fan – новый предмет

urishqoq – здесь: воинственный

tinchliksevar – миролюбивый

Vatan tuyg'usi – чувство Родины

rivoyat – сказание



3-mashq. Gaplarni o'qing. Ona tilingizga tarjima qilib, daftaringizga ko'chiring.

1. Barcha fanlarni yaxshi bilish uchun ko'p o'qish kerak.
2. Yangi fanlardan kitoblarni kutubxonadan oldik.
3. Men tarix faniga qiziqib qoldim.
4. Berilgan so'zning tarjimasini to'g'ri topdim.
5. Yangi fanlarni o'quvchilar o'rganishi kerak.
6. Geografiya fanida qiziqarli ma'lumotlar ko'p ekan.

Mustaqil ish. O'rin-joy va narsa-buyum otlariga 4–5 tadan misol yozing.



Uyga vazifa. O‘zingiz yoqtirgan fanning ahamiyati haqida kichik matn tuzing.



4- DARS



1- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang.

ZEHNLI BOLA

(Mo‘g‘ul ertagi)

Burungi zamonlarda chol, kampir va ularning yetti yashar o‘g‘li yashagan ekan. Ularning bitta ot, uchta ozg‘in qora echkisi bor ekan. Ular xaroba uyda yashar ekan. Cholning topgani qozon qaynatishga zo‘rg‘a yetar ekan. Uning o‘g‘lidan umidi katta ekan. Chunki u nihoyatda chaqqon va zehqli bo‘lib o‘sayotgan ekan.

Kunlardan bir kuni ularning o‘toviga amaldor kirib kelibdi. U bir kechaga boshpana so‘rabdi. U odam pastkash va badjahl ekan. Hamma undan qo‘rqar ekan. U o‘tovga kirganida bola katta kosada qimiz ichayotgan ekan. Bolaga ko‘zi tushishi bilan amaldor xaxolab kulib yuboribdi.

– Shu ham tovoq bo‘ldi-yu! Tovoq emas, haqiqiy g‘o‘la.

Bola qimiz ichishdan to‘xtab, hayron bo‘lib mehmonga:

– Hurmatli janob. Nahotki sizning molingiz shunchalik kam bo‘lsa. Uni mana shu „g‘o‘la“ bilan sug‘orish mumkin bo‘lsa? – deb so‘rabdi.

Amaldor qizarib-bo‘zaribdi. Javob qaytarishga so‘z ham topa olmabdi. Ertalab u yo‘lga chiqishga tayyorlanibdi. Kechasi bilan echkilar otining qorinbog‘ini chaynab qo‘yganini sezib qolibdi. Amaldor qattiq jahli chiqib, cholga:

– Keltirgan ziyonni to‘la, bo‘lmasa yomon qilaman! – debdi.

Bolakay otasini himoya qilib:

– Hurmatli mehmon! Otingizning qorinbog‘ini echkilar chaynagan. To‘lovni echkilardan undirib oling, – debdi.

Bu gaplardan keyin amaldor indamay otiga minib, jo'nab qolibdi. Lekin sal nariga borganda, otning oldingi oyog'i yumronqoziq iniga tushib, ot munkib ketibdi. Amaldor yerga uchib tushibdi. Amaldorning jahli chiqibdi. Otni qamchi bilan qattiq-qattiq savalay ketibdi.

Buni tomosha qilib turgan bolakay xaxolab kula boshlabdi.

– Ahmoq bola, nimaga kulasan? – deb so'rabdi amaldor.

– Nimaga kulmay? Xalqning gapi to'g'ri ekan. Yolg'on ishlatganning oti yumronqoziq iniga qoqilib, yerga qulaydi. Demak, siz g'irt yolg'onchi ekansiz!

Amaldor uyalganidan bolaga javob ham qaytara olmabdi. U otning jilovidan tutgancha boshini xam qilib, qorasini o'chiribdi.

Dili egrining tili qisqa bo'ladi, deganlari shu bo'lsa kerak.



Lug'at

egri – кривой
tomosha qilmoq – наблюдать
zo'rg'a – еле-эле, с трудом

mehmon – гость
amaldor – чиновник
bolakay – мальчик

Mustaqil ish.

1. O'zingiz yoqtirgan fan haqida 4 ta gap tuzing. Unda narsa-buyum, o'rin-joy otlaridan foydalaning.
2. Siz hozir o'qiyotgan fanlar nomlarini alifbo tartibida yozing.



2-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

1. Bilim baxt keltirar. 2. Bilim bilan hikmat – oltindan qimmat. 3. Bilimdan ortiq boylik yo'q. 4. Boshda aql bo'lmasa, oyoqda tinim bo'lmaydi. 5. Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r – mingni.



Uyga vazifa. 2-topshiriqda berilgan maqollarni yod oling.

IV mavzu: USTOZGA RAHMAT!

(-lar ko'plik qo'shimchasining qo'llanishi)



1- DARS



1- mashq. Tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, rasm asosida kichik matn tuzing.



Tayanch so'z va birikmalar: mehribon, g'amxo'r, talabchan, qattiqqo'l, sanash, o'qish, yozish, o'rgatmoq, maslahatlashmoq, murojaat qilmoq, xursand bo'lmoq, doimo, tez-tez.

Namuna: Ustozimiz Dildora Abrorovna juda talabchanlar.



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. Savollarga yozma javob bering.

USTOZGA RAHMAT

Men maktabga kelgan birinchi kunimni tez-tez eslayman. Maktabda bizni ustozimiz kutib oldilar. Shu kuni maktabimiz hovlisida tantanali yig'ilish bo'ldi. Yig'ilishdan keyin bizni sinfga olib kirdilar. O'sha kundan boshlab ustozimiz bizning ikkinchi onamizga aylandilar. Ustoz sabr

bilan bilmaganlarimizni o'rgatdilar. Biz ko'p narsalarni bilishni xohlardik.

Hozir 5-sinfda o'qiyapmiz. Birinchi ustozimizni hech qachon unutmaymiz.



Savollar

1. Maktabga kelgan birinchi kuningizni eslaysizmi?
2. Ustozingizning qaysi xislatlari sizga yoqadi?
3. Nima uchun ustozni ikkinchi ona deydilar?
4. Ustozingizga o'z minnatdorchiligingizni bildirib xat yozing.



Lug'at

sabr – терпение

tez-tez – часто

bilmoq – знать, познавать

tantanali yig'ilish – торжественное собрание

hech qachon – никогда



2- mashq. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Birinchi ustozim, tantanali yig'ilish, maktab hovlisi, o'qituvchilar kuni.

Namuna: Ozoda opa mening birinchi ustozim.



Bilib oling!

O'zbek tilida *-lar* qo'shimchasi shaxs va narsalarning ko'pligini bildirish uchun qo'llanadi. Masalan: *ustoz – ustozlar, fan – fanlar, buyum – buyumlar* kabi.



3- mashq. *-lar* qo'shimchasi ko'plik ma'nosini bildirgan gaplarni toping va daftaringizga ko'chiring.

1. Bolalar Azizani intizorlik bilan kutdilar. 2. „Suv – hayot manbai“, – dedilar bobom. 3. Bugun ustozimiz bizni muzeyga olib bordilar. 4. O'quvchilar berilgan topshiriqni o'z vaqtida bajardilar. 5. Qo'rqqanimdan oyoqlarim qaltirab qoldi. 6. Bolalarning shovqinidan boshlarim aylanib ketdi. 7. Ustozimdan ko'p narsalarni o'rgandim.



2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang.

MUALLIMGA

Nechog‘ baxtiyorman ta‘zimda shu tob
Sizning sha‘ningizga bitmoqdaman bayt.
Ne odam bo‘lardim, qo‘limda kitob
Biror harf tanimay tursaydim loqayd.

Siz-ku „Alifbo“dan „Qomus“gacha to
Bari-barisini tanitgan ustoz ...
Siz mo‘jaz yurakda yoqolgan yog‘du,
Oqibat quyoshdek socha olur nur.

Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu:
Sizdan boshlanadi asli tafakkur.
Olamda ko‘p erur muborak onlar,
Tabarruk zotlar ham garchand ko‘p erur.

Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,
Munis muallimlar, Sizga tashakkur.

Abdulla Oripov



Lug‘at

loqayd – равнодушный

Qomus – энциклопедия

yog‘du – луч, свет,
сияние

tafakkur – мысль

tabarruk – святой

tashakkur – благодарность

Mustaqil ish. Lug‘atda berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.



Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi she‘ning mazmunini so‘zlab bering. Yod oling.



2- DARS



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. Suhbatda *-lar* qo'shimchasi ifodalayotgan ma'noga e'tibor bering.

- Ustoz, onamning tug'ilgan kunlariga nima sovg'a qilishni bilmayapman. Sovg'a olish uchun pulim ham kamroq.
- Onang yoqtirgan gullarni sotib ol. Ayollar gullarni juda yaxshi ko'radilar.
- Menimcha, bu oddiy sovg'a bo'ladi-ku!
- Hafta davomida hamma fanlardan yuqori baholar olishga harakat qil. Ona uchun farzandining a'lo bahosi, bilimli bo'lishi eng katta sovg'a. Ha, aytgandek, onangga uy ishlarida yordamlashishni ham unutma.
- Maslahatingiz uchun katta rahmat!



Yodda tuting!

-lar ko'plik qo'shimchasi so'zlarga egalik qo'shimchasidan keyin qo'shilsa, hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Anvar amakimlar juda mehribonlar. Bobomlar uydalar.*

Payt ma'nosini bildiruvchi so'zlarga qo'shilganda esa chama, taxmin ma'nosini ifodalaydi: *Soat uchlarda kelaman. Kechqurunlari havo salqin.*



Fonetik mashq

kitoblar	akamlar	ertalablari
uylar	onamlar	oqshomlari
bolalar	opamlar	beshlarda



1- mashq. Berilgan so'zlarni guruhlarga ajrating.

Dadamlar, beshlarda, o'nlaracha, opamlar, buvimlar, bolalar, maktablar, qo'shnilar, odamlar, minglaracha.

Hurmat ma'nosini ifodalaydigan so'zlar:

Chama, taxmin ma'nosini ifodalaydigan so'zlar:



2-topshiriq. Rivoyatni rollarga bo‘lib o‘qing va javoblarni tushuntirib bering.

HUSAYN BOYQARO VA ALISHER NAVOIY

(Rivoyat)

Husayn Boyqaro:

Do‘stim, Mir Alisher, oqilsiz,
Yaxshilab fikrlab ko‘ring.
Birinchi o‘ringa qo‘yursiz kimni –
Aziz otangiznimi yo muallimni?

Alisher Navoiy:

Avval ustozimga bergayman salom.

Ovoz:

Hayhot! Nechun?

Husayn Boyqaro:

Nahot otangizdan ulug‘dir ul zot?

Alisher Navoiy:

Ha, otam joy olmish yurak-yurakdan,
Yerga tushirdilar meni falakdan.
Ustoz-chi, ko‘nglimni burib imonga,
Ko‘tardilar meni Yerdan osmonga!

Hamma:

Ofarin, tasanno!

„Ibratli hikoyatlar“ kitobidan



Lug‘at

oqil – умный
fikrlamoq – мыслить
aziz – дорогой
ulug‘ – великий

nahotki – неужели
falak – небо, небеса
ko‘tarmoq – поднимать



3-topshiriq. O'qing. Tinglang. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

Ota-onalar farzandlarining odobli, axloqli bo'lishlari uchun o'qituvchilarning yordamiga muhtojdirlar. Muallim – ma'naviy ota. Muallima esa ma'naviy ona. Bu muhtaram ota-onalar ma'naviy farzandlari bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalaydilar. Ularning aql, idroklarini o'stirishga, odob-axloqlarini kamolga yetkazishga harakat qiladilar. Shuning uchun o'qituvchilar hurmatga, qilgan xizmatlari tahsinga sazovordir.

Iskandar Zulqarnayndan so'radilar:

– Kimni ko'proq yaxshi ko'rasiz, otangiznimi yoki ustozingiznimi?

Iskandar shunday javob berdi:

– Otamni ham, ustozimni ham bir xilda yaxshi ko'raman. Otam mening dunyoga kelishimga, unib-o'sishimga sababchi bo'lsa, ustozim fazl-u kamol topishimga sababchi bo'ldi. Shunga ko'ra, har ikki tarbiyachimga bir nazarda qarayman. Har ikki muhtaram zotga barobar muhabbat bog'lab, ehtirom qilaman.

„Sinfdan tashqari o'qish“ kitobidan



Lug'at

muhtoj – нуждающийся

ma'naviy – просвещённый,
духовный

mukammal – завершённый,
совершенный

taqdir – судьба

sazovor – достойный

tahsin – одобрение,
похвала

muhtaram – почтенный,
уважаемый

ehtirom – уважение,
почтение

bog'lamoq – связывать



Savollar

1. Matn mazmunini hikoya qiling.
2. Muallim shogirdlarini kamolga yetkazish uchun nimalar qiladi?

3. Kimni ko‘proq yaxshi ko‘rasiz, otangiznimi yoki ustozingiznimi, degan savolga Iskandar Zulqarnayn qanday javob bergan?
4. Ustoz va ota haqida qanday maqollar bilasiz?

Mustaqil ish. 2- va 3-topshiriqlardagi matnlarni e‘tibor bilan o‘qing, solishtiring va ularda berilgan o‘xshash fikrlarni daftarga yozing.



Uyga vazifa. -lar qo‘shimchasi ishtirokida hurmat, payt, ko‘plik, taxmin ma‘nosini bildiruvchi gaplar tuzing.



3- DARS



1-topshiriq. „Sevimli ustozim“ mavzusida suhbat matnini tuzing.

Namuna:

- Dildora, so‘rasam maylimi?
- Marhamat.
- Sizga qaysi o‘qituvchimiz yoqadi? Nima sababdan?
- Menga barcha o‘qituvchilarimiz yoqadi. Matematika fani o‘qituvchisi Muazzam opaning alohida o‘rinlari bor. Ular darsni juda qiziqarli olib boradilar. Men ham ke-lajakda shu kasbni tanlamoqchiman.
-



Muomala odobi

- So‘rasam maylimi?
- Marhamat, so‘rang.
- Bizning o‘qituvchimizni ko‘rdingizmi?
- Ha, ko‘rdim.
- Aytolmaysizmi, ular hozir qayerdalar?
- U kishi o‘qituvchilar xonasida.
- Rahmat.
- Arzimaydi.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

DONISHMAND USTOZ

Kunlardan bir kun biri boy, ikkinchisi kambag'al ikki ota o'g'illarini Ibn Sinoga shogirdlikka bermoqchi bo'lishdi.

– Ey ulug' tabib, bolalarimizni tarbiyangizga olib, shogirdlikka qabul qilsangiz, – deyishdi. Ibn Sinoning bir odati bor edi. Kim unga shogird tushmoqchi bo'lsa, oldin sinovdan o'tkazar, so'ng tabiblik ilmini o'rgatar edi.

Ibn Sino: „Bolalarim, tog'-u toshlar kezinglar, cho'l-u dashtlarga borib, har biringiz ming donadan o't-giyoh terib kelinglar“, – deb ularga xalta berdi. Oradan bir necha kun o'tdi. Bolalarning birinchisi kelib, yig'gan giyohlarini Ibn Sinoning oldiga to'kdi. Hammasi shifobaxsh giyohlar edi. Buni ko'rgan Ibn Sino quvonib so'radi:

– Barakalla, o'g'lim, dorivor giyohlarni teribsan. Qani, ayt-chi, oyoq qavarishiga nima davo bo'ladi?

– Mening tabiblikdan xabarim yo'q, – dedi bola, – sizga o'zim endi shogird tushdim-ku.

Ibn Sino: „Senga javob, o'g'lim, ketaver! Borib savdogarga shogird tush“, – dedi.

Oradan bir kun o'tgach, kambag'al kishining o'g'li kelib, to'plagan o'tlarini hakimning oyog'i ostiga to'kdi. Ibn Sino juda xursand bo'lib:

– Barakalla, bo'tam, qani, ayt-chi, oyoq qavarganiga nima davo bo'ladi? – deb so'radi.

– Yovvoyi rayhon yoki yalpizni suvda ivitib, ozgina tosh tuzdan qo'shib yuvish kerak, – javob berdi bola.

– Cho'l-dashtda qolding-u, suv topolmading deylik, chanqoqni nima bilan qondirish mumkin? – bolani yana savolga tutdi Ibn Sino.

– Yantoqning suvi chanqoqni qoldiradi, ham darmon bo'ladi, – dadil javob berdi bola.

– Rahmat, o'g'lim, sen endi menga shogirdgina emas, farzand ham bo'lding!

„Allomalar ibrati“ kitobidan



Savollar

1. Nima uchun Ibn Sino birinchi bolani savdogarning oldiga yubordi?
2. Dorivor o'simliklar haqida nimalarni bilasiz?
3. Donishmandning „Shamollashga qaysi o'simlik davo bo'ladi?“ degan savoliga siz qanday javob berar edingiz?



Lug'at

sharaf – честь

rayhon – базилик

qavarmoq – покрываться
мозолями

chanqoq – жажда

dorivor giyoh – лекарст-
венная трава

sinamoq – испытывать

yalpiz – мята



1- mashq. „Donishmand ustoz“ matnidan foydalanib, shogird va ustozga xos bo'lgan xususiyatlarni yozing.

Namuna:

Ustoz	1-shogird	2-shogird
talabchan	shoshqaloq	e'tiborli
...



3- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

1. Ustozlar – fan bog'ining bog'bonlari.
2. Shogird ustozdan o'zar.
3. Ustoz otangday ulug'.
4. Ustozlarni e'zozlash – har birimizning burchimiz.

Mustaqil ish. *O'qituvchi, ona, ustoz, do'st, mehribon* so'zlari ishtirokida 2 tadan gap tuzing: bu so'zlar ularning birida birlik shaklida, ikkinchisida ko'plik shaklida bo'lsin.



Uyga vazifa. Ustozingizning qaysi fazilatlarini yoqtirasiz va nima uchun? „Sevimli ustozim“ mavzusida „Esse“ yozing.



4- DARS

Bilasizmi?

Po'lat Mo'min bolalar shoiri. Uning „Tong kuylari“, „Oltin boshoglar“, „Tish cho'tkasi ertagi“, „Hunardan unar“, „To'g'ri o'sgan gul bo'lur“, „Aql qayerda bo'lar“, „Oltin nay“, „Rahmatga rahmat!“ va boshqa bolalarga bag'ishlangan she'r va ertaklari bor.

A. S. Pushkin, V. V. Mayakovskiy, S. Marshak, S. Mixalkov, A. Barto va boshqa rus yozuvchilarining bolalarga bag'ishlangan asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. „El-yurt hurmati“ ordeni bilan mukofotlangan.



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. *-lar* qo'shimchasiga urg'u berib, to'g'ri talaffuz qiling.

USTOZLAR

Mehr nuri yog'ar doim
Ko'zingizdan, ustozlar.
Yursam deyman shu
tabarruk
Izingizdan, ustozlar.
Chin insonlik kitobiga
Baxt-u hikmat bitibsiz.
Odob ila bilim oldim
So'zingizdan, ustozlar.
Qalbingizning yo'q
g'ubori,

Mehribonsiz shunchalar,
Quyosh olmish haroratin
Yuzingizdan, ustozlar.
Fan bog'ining bog'bonisiz,
Charog'bonsiz ko'ngilga.
Ming ehtiom o'g'lingizdan,
Qizingizdan, ustozlar.
Joy oldingiz bir umrga
Shogird yurak to'ridan,
Mo'min hayot darsin o'qir
O'zingizdan, ustozlar.

Po'lat Mo'min



Lug'at

tabarruk – чтимый, священный
harorat – температура
charog'bon – светило

ehtirom – поклон
shogird – ученик
hayot darsi – урок
ЖИЗНИ



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying. Daftaringizga ko‘chiring.

Mehr nuri ... doim
... ustozlar.
Yursam deyman ...
... , ustozlar.

Chin insonlik ...
Baxt-u ... bitibsiz
Odob ila bilim ... –
So‘zingizdan

(ko‘zingizdan, shu tabarruk, yog‘ar, izingizdan, kitobiga, oldim, ustozlar, hikmat)

Mustaqil ish. „Ikki qismli“ kundalik texnologiyasi asosida „Ustozlar“ she‘ri matni ustida ishleng.



Uyga vazifa. „Ustozlar“ she‘rini yodlang.

V mavzu: MENING SINFDOSHLARIM

(Egalik qo‘shimchalarining qo‘llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Berilgan so‘zlar va namunadan foydalanib, rasm asosida suhbatlashing.



Foydalanish uchun soʻzlar: sinfdoshlar, ahil, sinf oʻquvchilari, birinchi, sinfdan, birga, mehribon, sinf rahbari, yordamlashmoq.

Namuna: Biz birinchi sinfdan birga oʻqiyimiz.



2-topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing. Matnga sarlavha toping. Savollarga javob yozing.

Bu bizning **sinfimiz**. Biz Fargʻona shahridagi 1-maktabning 5-sinfida oʻqiyimiz. Bular mening **sinfdoshlarim**. Ham-mamiz birinchi sinfdan birga oʻqiyimiz. Bizning sinfimizda yigirma beshta oʻquvchi bor. Sinfimiz oʻquvchilari **ahil** va **inoq**. Sinf **rahbarimiz** Dilbar Fayzullayevna bizga onamizdek mehribonlar. Sinfdan qanday tadbir boʻlsa, ularning boshchiligida oʻtkazamiz. Yaqinda **sinfimiz oʻquvchilari bilan** „Adabiyot muzeyi“ga bordik. Muzey bizda juda katta **taassurot qoldirdi**. Barchamiz muzeyda **koʻrgan, eshitgan** maʼlumotlar asosida insho yozdik. Bunday tadbirlar bizlarni bir-birimizga yanada yaqinlashtiradi va **doʻstlashtiradi**.



Savollar:

1. Sinfdoshlaringizning bir-birlariga munosabatlari qanday?
2. Sinfingizda qanday tadbirlar oʻtkaziladi?
3. Sinf rahbaringiz qaysi fandan dars beradilar?
4. Oʻquvchilar ahil boʻlishlari uchun yana nimalarga ahamiyat berish kerak?



Lugʻat

sinfdosh – одноклассник

ahil – дружный

sinf rahbari – классный
руководитель

doʻstlashmoq – подружиться

tadbir – мероприятие

koʻrmoq – видеть,
смотреть

eshitmoq – слушать



Bilib oling!

O'zbek tilida shaxs va narsalarning kimga tegishligi **egalik qo'shimchalari** orqali ifodalanadi. Egalik qo'shimchalari so'z o'zagining unli yoki undosh bilan tugashiga ko'ra turlicha qo'shiladi.

Egalik qo'shimchalarining qo'llanishini bilib oling va eslab qoling.

Shaxs	Birlik sonda	Ko'plik sonda
I	o'lka + <i>m</i> sinf + <i>im</i>	o'lka + <i>miz</i> sinf + <i>imiz</i>
II	o'lka + <i>ng</i> sinf + <i>ing</i>	o'lka + <i>ngiz</i> sinf + <i>ingiz</i>
III	o'lka + <i>si</i> sinf + <i>i</i>	o'lka + <i>si</i> sinf + <i>lari</i>

Mustaqil ish. Yuqoridagi jadvaldan foydalanib, *sinfdosh* va *ona* so'zlarini egalik qo'shimchalari bilan turlang.




1- mashq. Gaplarni o'qing. Egalik qo'shimchalarining qaysi shaxsga tegishligini aniqlang. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Tanishing, bular mening **do'stlarim**.
2. **Sinfimiz** o'quvchilari ahil va inoq.
3. Eshikdan **sinfdoshim** Aziz kirib keldi.
4. Dildora o'zbek tili fanidan shahar **olimpiadasi** g'olibi bo'ldi.
5. Men o'quv **qurollarimni** ehtiyot qilaman.
6. Kitob **varaqlarini** buklash va yirtish mumkin emas.



Fonetik mashq

Egalik qo'shimchalariga e'tibor bering.



3- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Egalik qo'shimchalarini to'g'ri talaffuz qiling.

BOLALARNING OVOZI

Bolalarning ovozi –
 Mening ovozim, sozim,
 Bolalarning ovozi –
 Mening bahorim, yozim.

Bolalarning ovozi –
 Ostonam butunligi.
 Devorlarning pardozi,
 Borlig'im, butunligim.

Bolalarning ovozi
 Chalinmasa quloqqa,
 Onam ham bo'lmas rozi,
 Qurib qolgum buloqday.

Safar Barnoyev



Lug'at

ovoz – голос	rozi bo'lmoq – согласиться
pardoz – <i>здесь:</i> отделка	shovullamoq – журчать,
ostona – порог	плескаться



2- mashq. She'rdan birlik sondagi so'zlarni ko'chirib yozing. Shu so'zlarni ko'plik sonda turlang.



Uyga vazifa. „Bolalarning ovozi“ she'rini yod oling.



2- DARS



1- topshiriq. O'qing, egalik qo'shimchali so'zlarni qo'llab, suhbatni davom ettiring.

- Dono, uyga ketmaysanmi?
- Yo'q, Komil, hozir sinf majlisi bo'ladi.
- Majlisda nima haqida suhbatlashasizlar?
- Sinfimiz qiziqarli tadbir o'tkazmoqchi.
- Qanday yaxshi! Tadbirda sen ham qatnashasanmi?
- Albatta! Men partadoshim Anvar bilan qo'shiq ayta-man. Tadbirimizda qatnashishni xohlaysanmi?
- Mayli. Sinfidoshlaring rozi bo'lishsa, yodlagan she'rla-rimdan aytib beraman.
- Juda yaxshi, ustozim ham xursand bo'ladilar.
- ...



1- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Bugun men ... bilan kutubxonaga bordim. 2. Yakshanba kuni ... bizni muzeyga olib bordilar. 3. ... o'quvchilari juda ahil. 4. Sinf rahbarimiz ... mehribon va talabchan.

Foydalanish uchun so'zlar: o'quvchilarga, sinf rahbarimiz, sinfidoshlarim, sinfimiz.



2- mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Ustoz... (*-lari, -imiz*) shu sinfdan o'qiganlari haqida gapirib berdilar. 2. Bu hunarni menga bobo... (*-si, -m*) o'rgatdilar. 3. Partadosh... (*-miz, -ing*) bilan do'st bo'l, unga yaxshi muomala qil. 4. Birdamlik haqidagi fikr... (*-im, -ingiz*) menga yoqdi. 5. Yordam... (*-ing, -i*) uchun senga rahmat.



Yodda tuting!

Obro', parvo, mavqe, mavzu, avzo kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda bir **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *obro'yim, parvoying, avzoyi*.



Fonetik mashq

do'sting

bilagi

qishlog'i

oyog'ing

tilagi

barmog'i

ziraging

elagi

qalpog'i

noking

eshigi

tovog'i



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Egalik qo'shimchalari qatnashgan gaplarni aniqlang va ularni ona tilingizga tarjima qiling.

YAXSHILIK

(Hikoya)

Fazliddin sinfdoshi Nabi bilan ko'chada o'ynab yurardi. Shu payt uzoqdan qo'shnilari Normamat boboning kel-yotganini ko'rib qoldi. Fazliddin hovliqib, o'rtog'iga kerildi.

– Hozir-chi, men borib Normamat bobomlarga yordam beraman. Meni Normamat bobo juda yaxshi ko'radilar. Ishonmasang, men bilan yur, o'zing ko'rasan.

Fazliddin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo'lidan xaltani oldi.

– Bobo, keling, yordamlashib yuboray, sizga doim yordam beraman-a? – so'radi Fazliddin Nabi eshitsin deb jo'rttaga baqirib.

– Ha, har doim yordam berasan, – boshini likillatib tasdiqladi Normamat bobo.

Fazliddin oldinda, Normamat bobo orqada yo'lga tush-dilar.

Uyiga yetganidan keyin Normamat bobo Fazliddinning qo'lidan xaltani oldi. U quruqqina qilib „Rahmat“ dedi va

engashib, Fazliddinning qulog'iga allanimalar deb pichirladi, so'ng uyiga kirib ketdi.

Fazliddin boshini ko'tarolmasdi.

– Nega indamaysan? Normamat bobo nima dedilar? – so'radi Nabi.

– Yaxshilik qil, lekin ketidan maqtanib, uni yuvib yuborma, dedilar Normamat bobo, – zo'rg'a javob berdi Fazliddin.

Nima deb o'ylaysiz, Fazliddin to'g'ri ish qildimi? Uning o'rnida siz nima qilgan bo'lardingiz?

Farhod Musajonov



Lug'at

xalta – сумка, мешок

hovliqmoq – суетиться

jo'rttaga – нарочно

yuvib yubormoq – смывать

yordamlashmoq – помогать

maqtanmoq – хвалиться,

хвастаться

Mustaqil ish. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda so'z o'zagida qanday tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin? Misollar keltiring.



Uyga vazifa. Sinfdozlaringizni tavsiflovchi kichik matn tuzing.



3- DARS



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga yozma ravishda javob bering. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

DUGONALAR

Barno bilan Ra'no bir sinfdan o'qishadi. Ular **do'st**. Ikki **dugona** ba'zan arazlashib qolishadi. Bunday vaqtlarda Barno sira birinchi bo'lib gapirmaydi. Avval gapirsam **yalingan** bo'laman, deb o'ylaydi.

Kunlardan bir kun Barno bilan Ra'no bir sababdan bahslashib, arazlashib qolishdi. Ra'no ham bir haftagacha Barnoga **gapirmay** yurdi. Bundan Ra'no juda **diqqat** bo'lib ketdi. Chunki u Barno bilan hamisha **ahil** bo'lishni xohlar edi. Nihoyat, Ra'no Barnoga gapirdi va ular yana **o'rtoq** bo'lib ketishdi.

Oradan ko'p o'tmay, yana arazlashib qolishdi. Shunda Barno Ra'noga qarab bunday dedi:

– Sen **mag'rurlikni** bilmaysan, men yalinishni yomon ko'raman.

Ra'no nima qilishini bilmay qoldi. U Barno bilan **umrbod** do'st bo'lishni istaydi-ku! Ammo shunday bo'lmayapti.



Savollar

1. Siz do'stlik deganda nimani tushunasiz?
2. Do'st qanday bo'lishi kerak?
3. Do'stlar qanday kunda bilinadi?
4. Sizningcha, Barno to'g'ri ish qildimi?
5. Ra'noning o'rnida bo'lsangiz, nima qilar edingiz?



Lug'at

dugona – подруга

bahslashmoq – спорить

ba'zan – иногда

arazlamoq – обижаться

yalinmoq – умолять, упрашивать

diqqat bo'lmoq –

беспокоиться

umrbod – вечно

mag'rurlik – гордость



Yodda tuting!

Egalik qo'shimchasi **k** va **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda, so'z oxiridagi harf o'zgaradi ($k > g$, $q > g'$) va quyidagicha yoziladi: *istak + im > istagim*, *o'rtoq + ing > o'rtog'ing* kabi.



1- mashq. Egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, qaysi so‘zlarda tovush o‘zgarishini aniqlang. Ularni namunadagidek ikki ustunga ajratib ko‘chiring.

Do‘sting, bilagim, bayrog‘imiz, ko‘magi, qalpog‘i, sura-
timiz, qishlog‘imiz, tilagingiz, so‘rog‘ing, o‘chirg‘ichim, yuragi,
oyog‘ing, varag‘i, varraging, balig‘im, yordaming, bilimimiz,
to‘garagimiz, pishlog‘ingiz, chelaging.

Namuna: **k > g**
 elagi
 mushugi

q > g‘
qulog‘i
paypog‘i



Muomala odobi

- Salom, do‘stim.
- Salom.
- O‘qishlaring yaxshimi?
- Yaxshi.
- Uydagilar yaxshi yurishibdimi?
- Ha, rahmat.

Mustaqil ish. Partadoshingiz bilan uning qiziqishlari ha-
qida suhbatlashing.



2- mashq. Rasmlarni taqqoslab, „Sevimli mashg‘ulotim“ mavzusida kichik matn tuzing. Tuzgan gaplaringizda egalik qo‘shimchasini to‘g‘ri qo‘llang.





Yodda tuting!

Ikkinchi bo'g'inida **a**, **i**, **u** qisqa unli tovushlari bo'lgan ba'zi ikki bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, bu tovushlar tushirib aytiladi va shunday yoziladi.

Masalan: *shahar + i > **shahri***, *bo'yin + im > **bo'ynim***,
*burun + i > **burni***.



3- mashq. Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib ko'chiring. So'z o'zagidagi qaysi tovush tushib qolganligini ayting.

Qorin, burun, singil, o'g'il, ko'ngil, og'iz, zahar, o'rin.



Uyga vazifa. Sinfdoshingizga xat yozing va unga yaxshi tilak bildiring.



4- DARS



1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va shu asosda o'zaro suhbatlashing.

– Nodira, yoningdagi qiz kim?
– Bu mening sinfdoshim. Yaqin dugonam. Ismi Dilbar. U bichish-tikishga qiziqadi.
– Juda yaxshi. Dugonang chevar bo'lar ekan-da. Mening sinfdoshim esa sportchi.
– Komil, sen sportga qiziqasanmi?
– Ha, sinfdoshim taklifi bilan sport to'garagiga qatnayapman. Do'stim menga tennis o'ynashni o'rgatdi. U ko'p musobaqalar g'olibi.



1- mashq. Berilgan gaplardan egalik qo'shimchalari ishtirok etgan so'zlarni ajratib, ko'chirib yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Sinfimizning o'quvchilari juda ahil va intizomli.
2. Shanbalikda maktabimiz hovlisiga gullar o'tqazdik.

3. Shahar musobaqasida bizning jamoamiz g'olib bo'ldi.
4. Do'stining gapi unga ta'sir qildi va qushning inini buzmad. 5. Kimning so'zi va ishi to'g'ri bo'lsa, uning do'sti ham ko'p bo'ladi.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. Tayanch so'zlarni topib, lug'at tuzing. Savollarga javob bering.

IKKI O'RTOQ

To'lqin va Marat yon qo'shni. Ikkalasi qalin o'rtoq. Sinfda ham bir partada o'tiradilar. Bir kuni Marat ruchkasini esidan chiqarib qo'yibdi. To'lqinda ikkita ruchka bor ekan. Marat undan:

– Bitta ruchkangni berib tur, o'rtoq, – deb so'ragan edi, To'lqin:

– Nega o'zingnikini unutib qoldirding? Bermayman, – dedi.

Marat boshqa so'ramadi. Shu kuni darsda hech narsa yoza olmadi. Ertasiga To'lqin chizg'ichini esidan chiqarib, uyida qoldirdi va Maratdan yalinib so'radi:

– Chizg'ichingni berib turasanmi, Marat?

– Yo'q, bermayman! – dedi Marat kulib.

– Nima, sinib qoladimi?

– Bo'lmasa ruchkang yeyilib qolarmidi?

– Bermasang berma! – dedi To'lqin arazlab, – hozir borib olib kelaman.

– Borma, darsga kech qolasan.

– Kechikmayman. Hali o'n besh daqiqqa vaqt bor!

To'lqin g'izillaganicha chiqib ketayotgan edi, yo'lakda o'qituvchi duch kelib:

– Ha, To'lqin, qayoqqa? – deb so'rab qoldi.

To'lqin uyala-uyala chizg'ichi uyda qolganini, Marat esa chizg'ichini bermasligini aytib berdi. Marat ham uyalib eshik orqasiga o'tib oldi.

O'qituvchi uni chaqirib so'radi:

– Shunaqami?

- Hazillashgandim, – dedi Marat. – Berib turaman.
- Ha, shunday bo'lsin, – dedi o'qituvchi, – bir-biringizdan hech narsani qizg'anmanglar! Undan keyin, kerakli narsani hech vaqt uyda qoldirmanglar!

Hakim Nazir



Savollar

1. Sizningcha, yaxshi o'ртоq qanday bo'lishi kerak?
2. Qanday bolalarni haqiqiy do'st deb bo'lmaydi?

Mustaqil ish. *Sinfdosh, uy* so'zlarini egalik qo'shimchalari bilan turlang.



2-mashq. Maqol va hikmatlarni o'qing, ularning mazmunini bilib oling. Daftaringizga ko'chiring.

Yaxshi do'st – tunganmas xazina.

Do'st do'stni kulfatda sinar,
Odam odamni mehnatda sinar.

Do'stini yomonlagandan qoch.

Yangi do'st orttirsang, eskisidan yuz o'girma.



Uyga vazifa. Do'stingizning (sinfdoshingizning) qaysi fazilatlari sizga yoqadi? *Do'stimning kamtarligi, uning to'g'riso'zligi* kabi birikmalar orqali fikringizni ifodalang.

VI mavzu: O'ZBEK TILI XONASI

(Kelishiklar. Bosh kelishik)



1-DARS



1-topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.

- Olga, o'zbek tili darsi qayerda bo'ladi?
- Albatta, o'zbek tili xonasida bo'ladi.

- O‘zbek tili xonasi nechanchi qavatda?
- O‘zbek tili xonasi ikkinchi qavatda joylashgan.
- Mashg‘ulotlar har doim o‘sha xonada o‘tkaziladimi?
- Ha, Shuhrat, o‘zbek tili darslari shu xonada bo‘ladi.
- O‘zbek tili xonasida nimalar bor?
-



2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Sarlavha toping. Ajratilgan so‘zlarning talaffuziga e‘tibor qiling va ko‘chiring. Savollarga javob yozing.

Maktabimiz binosi to‘rt qavatli. Maktabimizda turli **fan xonalari** bor. Mana bu – **o‘zbek tili xonasi**. O‘zbek tili xonasi ikkinchi qavatda joylashgan. Xona **keng va yorug‘**. **Xona devorlariga** shoir va yozuvchilarning suratlari ilingan. **Kitob javonlarida** o‘zbek tili darsliklari va badiiy asarlar bor. Bu kitoblardan hamma vaqt foydalanish mumkin. Doska oldiga o‘qituvchimizning stoli, xonaga uch qator parta va stullar qo‘yilgan.

O‘zbek tili xonasi doim **o‘quvchilar** bilan gavjum. Haftaning chorshanba va juma kunlari bu xonada o‘zbek tili fanidan to‘garak mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Biz hozir „O‘zbek tilini bilasizmi?“ tanloviga tayyorlanyapmiz.



Savollar

1. Maktabingizda o‘zbek tili xonasi bormi?
2. O‘zbek tili xonasi nechanchi qavatda joylashgan?

3. Sinfingizda qanday jihozlar bor?
4. Matndan kelishik qo'shimchalari qo'llangan so'zlarni toping.



Lug'at

joylashgan – расположен	yozuvchi – писатель
yorug' – светлый	shoir – поэт
keng – просторный, широкий	to'garak – кружок
devor – стена	tanlov – конкурс



1- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

1. Bu bizning 2. Bu sinf xonasida ... tili darsi bo'ladi. 3. O'zbek tili xonasining devorlariga ... va ... suratlari ilingan. 4. Kitob ... badiiy kitoblar bor. 5. Doska tepasida ... yozilgan plakatni ko'rasiz.

Foydalanish uchun so'zlar: yozuvchi, shoirlarning, sinf, o'zbek, javonida, hikmatli so'zlar.




Bilib oling!

Kelishik shakllari


No	Kelishik nomi	Qo'shim-chasi	So'roqlari	Misollar
1	Bosh kelishik	–	Kim? Nima? Qayer?	Azim, daftar, maktab
2	Qaratqich kelishigi	-ning	Kimning? Nimaning? Qayerning?	Azimning, daftarning, maktabning
3	Tushum kelishigi	-ni	Kimni? Nimani? Qayerni?	Azimni, daftarni, maktabni
4	Jo'nalish kelishigi	-ga, -ka, -qa	Kimga? Nimaga? Qayerga? Qachon?	Azimga, daftarga, maktabga, tongga (Tongga yaqin keldi.)

5	O'rin-payt kelishigi	-da	Kimda? Nimada? Qayerda? Qachon?	Azimda, daftarda, maktabda, tongda (Tongda keldi.)
6	Chiqish kelishigi	-dan	Kimdan? Nimadan? Qayerdan? Qachon?	Azimdan, daftardan, maktabdan, tongdan (Tongdan boshlandi.)


 **2- mashq.** So'zlarni bir-biriga bog'lab, so'z birikmasi tuzing va yozing. Egalik va kelishik qo'shimchalarining tagiga chizing.



Namuna: vatanimizning poytaxti.

 **3- mashq.** Bosh kelishikda kelgan so'zlar qatnashgan gaplarni toping va daftaringizga ko'chiring.

1. Yulduz xolasinikiga borsa, jim o'tirmaydi. 2. Men ertak kitobini olib o'qidim. 3. Maktabning uchinchi qavatida o'zbek tili xonasi joylashgan. 4. Sinf devoriga plakatlar ilingan. 5. Javonda o'zbek yozuvchilarining asarlari bor.

 **4- mashq.** Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, ko'chiring.

Bu xonasi. Xonamiz ... va O'zbek tili ... doim o'quvchilar bilan gavjum. Sinf rahbarimiz o'zbek tili fanidan ... beradilar. Bugun maktabda bilan uchrashuv bo'ldi.

Foydalanish uchun so'zlar: o'zbek tili, shinam, katta, xonasi, dars, tilshunos olimlar.

Mustaqil ish. Bosh kelishikda kelgan otlarga 4–5 ta misol yozing.



Uyga vazifa. O‘zbek tili xonasi haqida 4–5 ta gap tuzing.



2- DARS



1- topshiriq. O‘qing. Davom ettiring.

- Dildora, ertaga tadbir bo‘ladi.
- Bilaman.
- Darsdan keyin qolib, sinf xonasini tadbirga tayyorlashimiz kerak.
- Albatta.
-



1- mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Egalik va kelishik qo‘shimchalari birga qo‘llangan gaplarni ajratib yozing.

1. Sinfimiz maktab binosining ikkinchi qavatida joylashgan. 2. Maktab hovlisida manzarali daraxtlar ekilgan bog‘ bor. 3. Do‘stim onasini juda hurmat qiladi. 4. Kitob bizning do‘stimiz. 5. Ukam sinfdoshi bilan rasm to‘garagiga qatnaydi. 6. Bola odobi bilan aziz.



Muomala odobi

Murojaatga javob:

- | | |
|--------------------|----------------------------|
| – Albatta. | – Ha, yordam beraman. |
| – Bilaman. | – Yo‘q, mumkin emas. |
| – Marhamat. | – Bilmayman. |
| – Bemalol so‘rang. | – Ilojim yo‘q. |
| – Hechqisi yo‘q. | – Kechirasiz, vaqtim yo‘q. |
| – Mumkin. | – UZR, hozir bandman. |



Yodda tuting!

Bosh kelishikning maxsus qo‘shimchasi yo‘q. Bu kelishikdagi otlar ega vazifasida keladi. Masalan: *Maktab kutubxonasi.*



Fonetik mashq

Akam keldi

Daftar muqovasi

maktab binosi

kitob muqovasi



2-topshiriq. O'qing. Tinglang. Savollarga javob bering. Ajratilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

OQILONA JAVOB

Alisher Navoiy Xuroson hokimi Husayn Boyqaro saroyida bosh vazir ekan. Podsho hamma vaqt Navoiyning maslahatlariga quloq solar edi.

Kunlardan bir kuni Husayn Boyqaro ertalab saroyga kirish oldidan Navoiyga ko'rsatkich barmog'i bilan boshini ko'rsatibdi. Navoiy ham xuddi o'sha barmog'i bilan tilini ko'rsatibdi.

Husayn Boyqaro boshini chayqabdi-da, saroyga kirmay, iziga qaytibdi.

Voqeani kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari bu imo-ishoralarning ma'nosini so'rashibdi. Navoiy bu jumboqni yechishni ularning o'zlariga havola qilibdi. Shogirdlar o'ylab-o'ylab topisholmabdi. Shogirdlardan biri Navoiyni gapga solish maqsadida siyohdonni ag'darib yuboribdi.

Shunda Navoiy:

– Abdullatif, xayolingiz nega buncha parishon bo'lib qoldi? Siyohdon ag'darildi-ku, – debdi.

– Kechiring, ustoz, – uzr so'rabdi Abdullatif, – haligi muammoning sababini o'ylab...

Navoiy boyagi imo-ishora ma'nosini aytishga majbur bo'libdi:

– Husayn „Boshga baloni nima keltiradi?“ deb so'ragan edi, „Til“, deb javob qildim.

Shogirdlari Navoiyning ziyrakligiga qoyil qolishibdi.

„Kitobim – oftobim“dan



Lug'at

ko'rsatkich barmoq – указательный палец
iziga qaytibdi – вернулся обратно
o'zlariga havola – на своё усмотрение
imo-ishora – намёк
siyohdon – чернильница



Savollar

1. Alisher Navoiy saroyda qanday vazifani bajargan?
2. Husayn Boyqaro qanday imo-ishora qilibdi?
3. Navoiy-chi?
4. Imo-ishoraning yechimini shogirdlar qanday topibdilar?
5. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga nima deb javob beribdi?



3-topshiriq. Maqol va hikmatlarni o'qing, lug'at asosida ularning mazmunini bilib oling.

1. Bilimli kishi o'zar,
Bilimsiz kishi to'zar.
2. Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.
3. Tiling bilan ko'nglingni bir tut.

Mustaqil ish. Maktabingizdagi o'zbek tili xonasini tasvirlab bering.



Uyga vazifa. Tilga oid maqol va rivoyatlardan 4–5 ta yozing va mazmunini izohlang.



3- DARS



1-topshiriq. Suhbat matnini o'qing. Davom ettiring.

- Barno, salom.
- Salom, Nodir.
- Yaxshimisan?
- Rahmat, yaxshi.

- Nega maktabga barvaqt kelding?
- Bugun „O‘zbek tili“ xonasida to‘garak mashg‘uloti bor.
- Qanday to‘garak? Nima qilasizlar?
- To‘garakda o‘zbek tili bayramiga tayyorlanamiz.
- Men ham qatnashsam bo‘ladimi?
- Ha, albatta.
-



1- mashq. Berilgan murojaatga javobni bildiruvchi so‘zlardan foydalanib, partadoshingiz bilan suhbat matni tuzing.

Albatta, bilaman, marhamat, bilmayman, bermalol so‘rang, ilojim yo‘q, hechqisi yo‘q, kechirasiz, vaqtim yo‘q, mumkin, uzr, hozir bandman.



2- mashq. Berilgan so‘zlarni tartibga solib, gaplar tuzing.

Ertaga o‘zbek tili maktabda bayrami. Bu sinfimiz tadbirga tayyorgarlik ko‘rdilar jiddiy o‘quvchilari. Yigirma yurtimizda birinchi katta oktabrda bo‘ladi bayram. Qiziqarli o‘zbek Saodat tilida oldi kitob, yozilgan.



2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang.

O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI

O‘zbek tili qadimiy tillardan biridir. Bu tilda bobolarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy va boshqa ko‘plab shoir va yozuvchilar ijod qilishgan.

O‘zbekistonda o‘zbek tili davlat tilidir. Asosiy Qonunimiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4- moddasida „O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir“, – deb yozilgan. O‘zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida“gi Qonuni 1989- yil 21- oktabrda qabul qilingan. Har yili bu kun respublikamizda til bayrami sifatida keng nishonlanadi.



Lug'at

shoir – поэт

yozuvchi – писатель

qonun – закон

modda – статья



3- mashq. Berilgan so'z birikmalarini bosh kelishikda yozing.

1. Daraxtning bargi. 2. Kitobning muqovasi. 3. Maktabning hovlisi. 4. Sinfning derazasi.



3- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

ONA TILIM

Alla bo'lib jaranglagan,
Ona tilim – jon-u dilim.
Unga axir payvastadir
Qadr-u qimmat, mehr, bilim.

Buyuk Temur jahon bo'ylab
Dovrug'ini solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan
Meros bo'lib qolgan tilim.

Tursunboy Adashboyev



Lug'at

jahon – мир

meros – наследие

qiyos – сравнения

alla – колыбельная песня

Mustaqil ish. Bosh kelishikda kelgan so'zlar qatnashgan gaplarni toping va daftaringizga ko'chiring.

Sinf xonasini tadbirga tayyorlashdi. Maktabning bog'i juda katta. Anvar kitob o'qidi. Alisher darsdan keldi. Bolalar bog'ga bordilar.



Uyga vazifa. Berilgan so'zlar ishtirokida 4–5 ta gapdan iborat bog'lanishli matn tuzing.

O‘zbek tili, xona, qiziqarli, o‘rganmoq, kitoblar, turli, ko‘rgazmalar, o‘qish, bezatilgan, sevimli.



4- DARS

Bilasizmi?

Yayra Sa‘dullayeva jurnalist. U O‘zbekiston Milliy universitetini tamomlab, bolalar sevimli jurnali „Gulxan“da faoliyat yuritgan.



1- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Tarjima qiling.

BOQI-TOQI

(Hikoya)

Shunday qilib, „B“ sinfda bir-biriga nom qo‘yish boshlanib ketdi. Nosir qo‘ng‘iroq chalinishiga besh daqiqa qolganda sinfga hovliqib kirdi-yu, paltosini yechdi. Uni qoqib yuborgandi, erib ketgan qor tomchilari eshikdan chopib kirgan Qunduzning yuz-ko‘ziga sachrab ketdi. Qunduz „vuy“ dedi-yu, qo‘llari bilan yuzini berkitgancha joyiga borib o‘tirdi. Buni ko‘rgan qizlar birdan chuvullab ketishdi.

- Paltongni koridorda qoqsang bo‘lmaydimi?
- Hovliga olib chiqib qoq!
- Hu, seni, Nosir-sir!

Voqeani kuzatib turgan Boqiga hammasidan ham „Nosir-sir“ degan so‘z yoqib ketdi. U:

– Kim aytdi? Kim aytdi? – deb shunaqangi miriqib kuldiki...

Boqi Nosir bilan bir ko‘chada tursayam, chiqisha olmasdi. Ko‘pincha futbol o‘ynashganda Boqi darvozabon, Nosir esa hujumchi bo‘lardi. Nosir mo‘ljallab tepgan koptok adashmay, to‘g‘ri Boqi himoya qilib turgan darvozaga kirardi-qo‘yardi. Boqiga bu rosa alam qilardi. Qanday bo‘lsa-da, u bilan hisobni baravarlash tirish uchun payt poylardi. O‘sha payt kelganga o‘xshadi.

– Nosirvoy-sirvoy, non bilan maza qilib yeymiz, – dedi kulgidan to‘xtamay.

Nosir ham jim turarmidi: unga tirjayib qaradi-yu, „Boqi-toqi“ dedi, xolos. Shundan keyin Mavjuda: „Nega bir-biringga nom qo‘yasanlar?“ degan edi, Boqiga yoqmasdi. Javob ber, degandek Salimni turti. Salim Mavjudaga qarab:

– O‘g‘il bolalarning gapiga aralashma, Mavjuda-jiyda, – dedi qo‘lini shimining cho‘ntagiga tiqib, endi o‘g‘il bolalar xaxolab kulib yuborishdi.

Mavjudaning jahldan lablari pirpiradi.

– Hali men jiyyda bo‘ldimmi, Salim-soqqa, – dedi Salimning yoniga borib. Bu gal kulgiga qizlar ham qo‘shilishdi.

Qaysidir qiz qo‘shimcha qildi:

– Salim-soqqa, bora qol toqqa.

Yana kulgi ko‘tarildi. Faqat o‘qituvchi kirib qolgandagina bolalar taqqa to‘xtab, joy-joylariga o‘tirishdi...

Mana oradan ozgina vaqt o‘tdi. Endi sinfda deyarli hammaning nomi bor. Faqat indamay yuradigan Ravshanoy va bir-ikkita qizninggina laqab qo‘yishga g‘ashlari keladi.

Qani, ayting-chi, bolalar, ota-onalaringiz ne-ne orzu-umidlari bilan tanlab qo‘ygan ismingiz yaxshimi yoki laqab?

Yayra Sa’dullayeva



Savollar

1. Ayting-chi, bolalar to‘g‘ri ish qilishdimi?
2. Sizning sinfingizda ham bolalar shunday ish qiladilarmi?
3. Bolalarning bir-birlariga laqab qo‘yishini siz qanday baholaysiz?



Lug‘at

daqiqqa – минута

hujumchi – нападающий

adashmoq – совершить
ошибку

alam – обида

kulmoq – смеяться

pirpiramoq – здесь:
дрожать

himoya – защита
to'xtamoq – остановиться

hisob – счёт
laqab – кличка



Uyga vazifa. „Boqi-Toqi“ hikoyasida berilgan savollarga javob berib, uni yakunlang.

VII mavzu. OLTIN KUZ

(Qaratqich kelishigining qo'llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



- Aziza, senga qaysi fasl yoqadi?
- Menga bahor fasli yoqadi.
- Nega?
- Chunki ...
- Dilbar, senga-chi?
- Men kuz faslini yoqtiraman.
- Nima uchun?
- ...



2-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Sarlavha qo'ying. Savollarga javob yozing.

O'lkamizga kuz kirib keldi. Tabiat kuz faslida oltin libosga burkanadi. Daraxtlar sarg'ayib, barglarini bitta-bitta yerga to'kadi. Dalalarda ish ko'payadi. Bobodehqonlarimiz kuzda hosilni yig'ib-terib oladilar. Bog'larda shirin-shakar mevalar, polizda qovun va tarvuzlar g'arq pishib yetiladi.

Hosilni yig'ib olishda biz ham dehqonlarga yordam beramiz.



Savollar

1. Kuzda ob-havo qanday bo'ladi?
2. Kuz faslida tabiatda yana qanday o'zgarishlar bo'ladi?
3. Dala va bog'larda qanday ishlar bajariladi?



Lug'at

oltin libos – золотая одежда
burkanmoq – облачаться
to'kmoq – высыпать
ko'paymoq – прибавляться

g'arq pishmoq – созреть
hosil – урожай
yig'ib olmoq – собрать

1-mashq. Berilgan so'zlar yordamida gaplar tuzing.

Oltin, havo, fasl, yig'im-terim, olma, anor, hosil.

Namuna: Kuzda havo salqin bo'ladi.




Bilib oling!

Qaratqich kelishigidagi so'z kimning? yoki nimaning? so'rog'iga javob bo'ladi. Qaratqich kelishigining qo'shimchasi **(-ning)** shaxs yoki narsa-buyumning kimga, nimaga tegishli ekanligini bildiradi. O'zidan keyingi so'z bilan birikib, qaratqichli birikma hosil qiladi. Masalan: *Uning do'sti, Anvarning qalami, qulfning kaliti.*


 **2- mashq.** Qaratqichli birikmalar tuzing.



 **3- mashq.** Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'ying. Qaratqich kelishigi qo'shimchasining qo'llanishiga e'tibor bering.

1. Anvar ... chin do'stim, ... singlisi mening singlim bilan dugona. 2. Uyimiz ... yonidagi ko'chada joylashgan. ... qo'ng'irog'i biznikiga eshilib turadi. 3. ... quvnoq ovozi maktab hovlisini to'ldirdi. 4. ... yordami bilan masalani to'g'ri yechdim. 5. ... kaliti Malikaning sumkasida ekan.

Foydalanish uchun so'zlar: o'quvchilarning, mening, navbat-chining, maktabning, do'stimning, uning, eshikning.


 **4- mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying va ko'chiring.

1. Oydin ... yordamchisi. 2. Men ... bog'dagi ishlariga yordam berdim. 3. Dadam ... etagiga mevali daraxt ekdi. 4. Biz ... hovlisida „Mehrjon“ bayramini o'tkazdik. 5. Devorda o'zbek ... rasmlari osilgan.

Foydalanish uchun so'zlar: o'rtog'imning, musavvirlarining, maktabimizning, buvisining, bog'imizning.

Mustaqil ish. Nuqtalar o'rniga egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'yib yozing.

1. Uy... tomi.
2. Uka... o'yinchog'i.
3. Ona... qizi.
4. Maktab... hovlisi.
5. O'z... bog'.

 **Uyga vazifa.** Egalik va qaratqich qo'shimchasining birgalikda qo'llanishiga misollar keltiring.



2- DARS



1-topshiriq. Suhbat matnini to'ldiring.

- Bog'da kimni ko'rding?
-
- Shamol nimalarni yerga to'kdi?
-
- Kuzda dehqonlar nimani yig'ib oladilar?
-
- Dehqonbobo kimlarni yordamga chaqiradi?
-
- Nimalarni yerga tashlamaslik kerak?
-



1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

1. Men kuz ... yoqtiraman. 2. Dehqonlar ... yig'ishga kirishdilar. 3. Abror akasi bilan ... uzyapti. 4. Biz ... maza qilib yeymiz. 5. Barcha meva va ... yuvib yeyish kerak.

Foydalanish uchun so'zlar: faslini, bodringni, mevalarni, sabzavotlarni, hosilni.



Yodda tuting!

Qaratqich kelishigidagi so'z ba'zan **-ning** qo'shimchasini olmasdan, ya'ni belgisiz ham qo'llanadi. Bunda umumiy xoslik, tegishlilik ma'nosi ifodalanadi. Masalan: *inson qalbi, deraza oynasi*. Ammo olmoshlar va atoqli otlar doim **-ning** qo'shimchasi bilan qo'llanadi. Masalan: *mening do'stim, Dononing ukasi*.



Fonetik mashq

tong
bong
singil
bodring

mening
Anvarning
qalamning
uyning

tishining
barchasining
ishimizning
qo'lingizning



2- mashq. Soʻzlarni toʻgʻri joylashtirib, gaplar tuzing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Kuzni, men, fasllar, ichida, yoqtiraman. 2. Polizdan, dadamga, tarvuzni, qovunni, yordamlashdim, uzishda. 3. Kuzgi, xarid, doʻkonga, kiyim-kechaklarni, bordik, qilgani. 4. Shamol, qattiq, barglarni, toʻkdi, yerga.



2- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang. Ajratilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga koʻchiring.

KUZ

Kuz keldi. Bogʻlarda **mevalar**, polizlarda **qovun-tarvuzlar** pishdi. Kuzda har xil sabzavotlar ham pishadi. Biz oilamiz bilan polizimizdagi qovun-tarvuz, sabzavotlarni yigʻishga chiqdik. Akam va men qovunlarni uzdik. Dadam **qovoq** va tarvuzlarni uzdilar. Kartoshkani kovlab oldilar. Birgalashib polizdagi **sabzavotlarni** yigʻib oldik. Bu yil poliz ekinlaridan moʻl **hosil** yigʻdik. Ukam ham biz bilan bordi. U bizga yordam bermadi, chunki u hali yosh.



Lugʻat

meva – фрукты
sabzavot – овощи
qovoq – тыква
tarvuz – арбуз

kovlamoq – копать
yordam bermoq –
 помогать
yosh – молодой

Mustaqil ish. Rasm asosida „Kuz neʼmatlari“ mavzusida kichik matn tuzing.





Uyga vazifa. Savollarga javob bering. Misollar keltiring. Qaratqich kelishigidagi soʻzlar qanday savollarga javob boʻladi? Qaratqich kelishigidagi soʻz qaysi turkumdagi soʻz bilan bogʻlanib keladi?



3- DARS



1- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang. Ajratilgan gaplarni daftaringizga koʻchiring.

MEHRJON

Yoz oxiri, kuz boshi hosil mavsumi hisoblanadi. Bu vaqt bayram va tadbirlarga juda boy boʻlgan. Xalqimizda bu mavsum pishiqchilik, toʻqchilik davri deyilgan. Bu davrda qovun sayli, olma sayli, uzum sayli, Mehrjon bayrami kabi koʻplab bayram tadbirlari oʻtkazilgan.

Mehrjon bayramini xalqimiz qadim zamonlardan nishonlab keladi. Kishilar tabiat uygʻonishi, dalalarda ish boshlanishini Navroʻz sifatida tantana qilishgan. **Oʻsimliklar dunyosining uyquga ketishi va mehnat mavsumining yakunlanishini Mehrjon deb nomlashgan.** Navroʻz bahorgi kun-tun tengligini bildiradi. **Mehrjon esa kuzgi kun-tun tenglashganda nishonlanadi.** Mustaqilligimiz tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Shular qatori Mehrjon bayrami ham nishonlana boshlandi.

Bu bayramlar dehqon mehnatini qadrlashga, ona yerimizni asrashga undaydi.



Lugʻat

sayil – народное гулянье

nishonlamoq – отмечать

mehrjon – праздник урожая

qadriyat – духовная ценность

yakun – итог

qadim zamondan –

с древних времён

mavsum – сезон



1- mashq. Nuqtalar oʻrniga egalik va qaratqich kelishigi qoʻshimchasini qoʻyib yozing.

1. Kitob... muqovasi. 2. Bog'... bog'boni. 3. Qo'shni... derazasi. 4. Mehnat... rohati. 5. Quyosh... nuri.



Muomala odobi

E'tiroz bildirish:

- Menga ma'qul emas.
- Fikringizga qo'shilmayman.
- E'tiroz bildiraman.
- Men qarshiman.
- Mutlaqo noto'g'ri.
- Bunday bo'lishi mumkin emas.
- Aslo bunday emas.
- Ma'qullamayman.



2-topshiriq. Berilgan e'tiroz bildiruvchi so'zlardan foydalanib, suhbatlashing.

Namuna: Aslo xafa bo'lmadim. Sira bezovta bo'lmang.

Aslo, sira, mutlaqo, butunlay, umuman, hech.



3-topshiriq. She'ni ifodali o'qing va mazmunini lug'at asosida bilib oling.

BOG'DA PISHDI UZUMLAR

Yashil barglar oralab,
Munchoq ko'zda mo'ralab,
Bog'da pishdi uzumlar.
Marjon-marjon bo'lishib,
Sharbatlarga to'lishib,
Bog'da pishdi uzumlar.

Tizilishib bosh-boshga
Qaraganday quyoshga –
Bog'da pishdi uzumlar.
Ey, bolalar, yuguring,
Xohlagandan yeb ko'ring,
Bog'da pishdi uzumlar.

Po'lat Mo'min




Lug'at

mo'ralamoq – подсматривать, выглядывать

sharbat – сок, сироп

tizilmoq – выстраиваться в один ряд

munchoq – бусы

 **2- mashq.** Mevalar nomini jadvalning tegishli ustuniga joylashtiring.


Anor, gilos, olma, xurmo, anjir, shaftoli, olxo'ri, nok, uzum, o'rik.

Yozgi mevalar	Kuzgi mevalar
<i>olcha</i>	<i>behi</i>

3- mashq. So'zlarni to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing va ona tilingizga tarjima qiling.

O'lkamizga, fasli, go'zal, kuz, keldi, eng. Ish, bo'ladi, dalalarda, qizg'in, bog'larda, polizlarda. Olinadi, terib, mevalar. Tayyorlanadi, mevalardan, sharbatlar, turli xil, murabbolar. Bo'ladi, boy, sharbatlar, vitamininga.

Mustaqil ish. Mehrjon bayrami qanday bayram va qachon nishonlanadi? 4–5 gapdan iborat bog'lanishli matn tuzing.




 **Uyga vazifa.** Nuqtalar o'rniga egalik va qaratqich ke-lishigi qo'shimchasini qo'yib yozing. Tarjima qiling.

Maktab... bog'i. Ukam... xonasi. Akam... sinfdoshi.

4- DARS

Bilasizmi?

Shukur Sa'dulla bolalarbop asarlar yozgan o'zbek shoiri. U tabiat kuychisi sifatida e'zozlanadi.

   **1- topshiriq.** O'qing. Tinglang. Mazmuni asosida savollar tuzing. Ajratilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

OLTIN KUZIM

Fasllarning eng go'zali,
Saxovatli oltin kuzim.
Rizqimizni mo'l-ko'l qilgan,

Tarovatli oltin kuzim!
Ato etding to'kin boylik –
Mevali **bog'**, paxtazorlar,

Sen-la bo'ldi vaqti chog'lik,
Mo'jizakor oltin kuzim!
Tinchlik kuzi, oltin kuz,

Bog'imiz husni ko'rkam,
Dam olishga juda soz,
Soya-salqin, xo'p shinam!

Shukur Sa'dulla



Lug'at

saxovatli – щедрый **to'kin** – обильный, изобильный
rizq – пропитание; доля **vaqti chog'** – веселье, радость
tarovat – свежесть **mo'jizakor** – чудотворный



2- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?
2. Kuzgi bayramlarni tartibi bilan yozing.
3. Kuz fasli sizga nimasi bilan yoqadi?
4. Agar yoqmasa, buning sababi nimada?



1- mashq. Berilgan gaplardan qaratqich kelishigidagi so'zlarni ko'chirib yozing.

1. Bug'doy – O'zbekistonning asosiy boyliklaridan biri.
2. Bug'doy kuzda ekiladi.
3. Poliz ekinlarini kuzda yig'ib olamiz.
4. Bog'imizda uzumning turli navlari o'sadi.
5. Dehqonlarning mehnatini qadrlash kerak.



3- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

1. Mehnat baxt keltirar.
2. Mehnat kishini ulug'laydi.
3. Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo'lar chiroyli.
4. Mehnat, mehnatning tagi rohat.
5. Yozgi harakat – kuzgi barakat.

Mustaqil ish. Berilgan so'zlar ishtirokida 4–5 ta gapdan iborat bog'lanishli matn tuzing.

Saxovatli, rizq, tarovat, to'kin, vaqti chog', mo'jizakor



Uyga vazifa. „Oltin kuzim“ she'rini yod oling.



VIII mavzu: TO'GARAK MASHG'ULOTLARI



(Egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchalarining birga qo'llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Tayanch so'zlardan foydalanib, rasmlar asosida suhbatlashing.



Tayanch so'zlar: to'garak, o'rganmoq, qiziqmoq, mashg'ulot, a'zo, o'tkazilmoq, yasamoq, marta, qatnashmoq.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga javob yozing.

TO'GARAK MASHG'ULOTLARI

Maktabimizda bir necha fan to'garaklari bor. Ko'pchilik sinfdoshlarim bu to'garaklarga qatnashadilar. To'garak mashg'ulotlari darslardan keyin boshlanadi. To'garak mashg'ulotlari juda qiziqarli o'tadi.

Hamid ikkita to'garakka qatnashyapti. Seshanba kuni fizika to'garagiga boradi, fan sirlarini o'rganib, olimpiada g'olibi bo'lishni istaydi.

Juma kuni kurash to'garagida mashq qiladi. Hozir mu-sobaqada qatnashishga tayyorgarlik ko'ryapti.

To'garak mashg'ulotlari bilimlarimizni boyitadi, kasb-hu-
narga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun bunday mash-
g'ulotlarni yoqtiramiz.



Lug'at

o'tmoq – проходить

qatnashmoq – участвовать,
посещать

qiziqarli – интересный,
занимательный

sir – секрет

g'olib – победитель

mashq qilmoq – упраж-
няться, тренироваться

boyitmoq – обогащать



Savollar

1. Maktabingizda qanday to'garaklar bor?
2. To'garak mashg'ulotlari qachon o'tkaziladi?
3. Sinfdoshlaringiz qaysi to'garaklarga qatnashadilar?
4. To'garaklarni nima uchun yoqtirasiz?



1-mashq. Savollarga javob yozib, ona tilingizga tarjima qiling.

1. Qaysi to'garakka qatnashasiz?
2. To'garak mashg'ulotlarida nimalarni o'rganyapsiz?
3. Tanlov va ko'rgazmalarda ishtirok etasizmi?
4. Shu kunlarda qanday tadbirlarga tayyorlanyapsiz?



Bilib oling!


Qaratqich kelishigi, odatda, egalik qo'shimchalari bilan
birga qo'llanadi. Bunda so'z o'zagiga avval egalik, keyin
kelishik qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: so'z + *im* + *ning*
boshi, til + *imiz* + *ning* boyligi, uy + *imiz* + *ning* to'ri.

xona + *m*
gap + *im*
xona + *ng*
gap + *ing*
xona + *si*
gap + *i*


ning

xona + *miz*
gap + *imiz*
xona + *ngiz*
gap + *ingiz*
xona + *lari*
gap + *lari*


ning

 **2- mashq.** Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Badiiy gimnastika dugona... (-m, -ing, -ning) sevimli mashg'uloti. 2. Dushanba kuni shaxmat to'garagi a'zolari... (-si, -ning, -ga) umumiy yig'ilish bo'ladi. 3. Nodir tennis to'garagi... (-si, -dim, -ning, -da) faol a'zosi. 4. Mohir qo'llar to'garagi... (-si, -da, -ning) qatnashchilari badiiy ko'rgazma... (-da, -ning) g'olibi bo'ldilar. 5. Biz do'stlar... (-imiz, -ingiz, -ga, -ning) yutuqlaridan xursand bo'ldik.

 **3- topshiriq.** Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.


– Zumrad, bu qanday bino?
– Bu „O'quvchilar saroyi“.
– Sen bu yerda bo'lganmisan?
– Ha, bu yerda har xil to'garaklar bor. Maktab o'quvchilari darsdan keyin bu yerga keladilar. Ular o'zlari qiziqqan to'garaklarga a'zo bo'ladilar.
– Bolalar, sizlar bu yerda bo'lganmisiz? Bu yerda qanday to'garaklar bor?
–

 **4- topshiriq.** Hikmatlarni o'qing, mazmunini izohlang.

1. Bilmaganini so'rab o'rganish ayb emas.
2. Kishi bilganlarini boshqalarga ham o'rgatishi lozim.

Mustaqil ish. *Kechirasiz, uzr, afv etasiz* so'zlari ishtirokida suhbat matnini tuzing.

Namuna: – Uzr, do'stim, ko'rmay qolibman.
– Hechqisi yo'q.
–

 **Uyga vazifa.** To'garakdagi faoliyatingiz to'g'risida kichik matn tuzing.



2- DARS



1- topshiriq. Suhbatni o'qing va davom ettiring.

- Men „Mohir qo'llar“ to'garagiga a'zo bo'lmoqchiman.
- Juda yaxshi. Qaysi maktabda va nechanchi sinfda o'qiysiz?
- 20- maktabning 5- „A“ sinfida o'qiyman.
- Unda maktabdan ma'lumotnoma olib kelasiz. O'zingiz nimalarga qiziqasiz?
- Men samolyotlar modellarini yasashga qiziqaman.
- Unday bo'lsa, sizni „Aviamodelchilar“ to'garagiga yozamiz.



1- mashq. Rasmlarga qarab, to'garak nomlarini toping. Ikkinchi ustundagi so'z va so'z birikmalaridan mosini tanlab, to'garak faoliyati haqida namunadagidek gaplar tuzing.



kuy
musiqachi
bo'yoq
cholg'u asbobi
qog'oz
ranglar
estetik tarbiya
chizmoq
nota bilan ishlash
musiqa yaratish
tabiat tasviri
rassom

Namuna: Musiqa to'garagida yangi kuy o'rganyapmiz. Dildora tabiat tasvirini chizyapti.



Yodda tuting!

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi, asosan, ot yoki olmosh bilan o'tni o'zaro bog'laydi: *Daraxtning mevasi, Azizaning kitobi, bizning bog', ularning hovlisi.*



2- mashq. Ustunlardagi so'zlarni o'zaro bog'lab, gaplar tuzing. Birinchi ustundagi so'zlarga egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchasini, ikkinchisiga faqat egalik qo'shimchasini qo'shing.

Xona	uy	yangi
Kitob	bekat	tekis va keng
Do'st	ko'cha	yorug'
Metro	jihaz	ikkinchi qavatda
Toshkent	bet	bo'yalgan

Namuna: Xonamizning jihozlari yangi.



Fonetik mashq

akamning xonasi
 ukamning o'rtog'i
 maktabning binosi
 kitobning muqovasi

gapning mazmuni
 nutqingizning to'g'riligi
 fikrning aniqligi
 tilimizning boyligi



Muomala odobi

Kechirim so'rash:

- UZR so'rayman.
- Kechirasiz, uzr.
- Kechiring, boshqa qaytarilmaydi.
- Ayb (gunoh)imga iqorman.
- Xatoyimni tan olaman.
- Gunohimdan o'ting (kechiring).

Mustaqil ish. Namunada ko'rsatilgandek kechirim so'rash odobiga oid suhbat matni tuzing.

Namuna:

- Zumrad, meni kechir, senga bergan va'damni unutibman.
- Mayli, boshqa bunday qilma.



Uyga vazifa. Maktabingizdagi to'garaklar haqida ma'lumot yozing.



3- DARS



1- topshiriq. O'qing. Davom ettiring.

- Bunyod, bu qanday bino?
- Bu bolalar ijodiyoti markazi. Bu yerda ijodkor bolalar turli to'garaklarga qatnashadilar. Bu bino 2005- yil, 1- sentabrda qurib topshirilgan. Bino Vavilon minorasiga o'xshaydi.
- Bolalar, siz bu binoda bo'lganmisiz? O'quvchilar bu yerda nimalar bilan shug'ullanadilar?
-



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga yozma javob yozing.

SIRLI QOPQA

Alijon tarix fanini juda yaxshi ko'radi. Shu sababli maktablaridagi tarix to'garagining a'zosi. Bugun to'garak rahbari Nigora Anvarovna ularni O'zbekiston davlat tarixi muzeyiga olib bordilar. Alijonni muzeydagi rang-barang rasmlardan biri juda hayajonlantirdi. Bu rasmda bir quldor kichkina bolani sotayotgani tasvirlangan ekan.

„O'sha vaqtlarda odamni ham sotishar ekan-da, qanday dahshat-a!“ – deb o'yladi u. Boshqa rasmda esa qopqa yonida turgan ikki soqchi rangdor bo'yoqlar bilan ishlangan ekan. Soqchilarning egnida satin chopon, keng cholvor, qo'llarida oybolta ushlab turibdilar.

Yelkalarida kamon, yonlarida uzun egri qilich, chehralarida shijoat sezilib turibdi. Bu rassomning „Temur qopqasi“ nomli mashhur rasmi ekan. „Rasmni bunchalik jonli,

ta'sirli ishlash uchun qancha sehr kuchi, mahorat kerak-a, hunarlariga qoyilman-e!“ – dedi Alijon. Kechgacha bu rasmlar ko'z oldidan ketmadi. Shu kundan boshlab Alijon rassomlik bilan qiziqib qoldi. Endi u rassom bo'lmoqchi.

„Adabiy ertaklar“ kitobidan



Lug'at

to'garak – кружок

hayajonlanmoq – волно-
ваться

qopqa (eshik) – ворота

satin chopon – сатиновый
халат, чапан

keng cholvor – широкие
штанины

tasvirlangan – изображён

dahshat – ужас

oybolta – секира

yelka – плечо

kamon – лук

sehr kuchi – таинствен-
ная сила

1. Alijon qaysi muzeyga bordi?
2. Alijon muzeyda nimalarni ko'rdi?
3. Nima uchun Alijon rassom bo'lishga ahd qildi?
4. Siz yashayotgan joyda qanday muzeylar bor?
5. Siz kelajakda qaysi kasbni tanlamoqchisiz?



1- mashq. Berilgan rasmlar asosida quyidagi savollarga javob yozing va ularni ona tilingizga tarjima qiling.



1. Bular qanday binolar?
2. O'quvchilar bu yerda nimalar bilan shug'ullanadilar?



Muomala odobi

Kechirim soʻraganda javob berish odobi

- Hechqisi yoʻq.
- Zarari yoʻq.
- Mayli, kechirdim.
- Boʻlib turadi.
- Kechirmayman.
- Kechirolmayman.
- Kechirib boʻlmaydi.
- Aslo.
- Xafamasman.
- Takrorlanmasin.
- Boshqa qaytarilmasin.
- Sizda ayb yoʻq.
- Uzringizni qabul qilolmayman.
- Kechirim soʻramang.
- Uzr soʻramang.



2- mashq. Savollarga javob yozing.

1. Siz nima uchun toʻgaraklarga qatnashyapsiz?
2. Toʻgarakda qanday ishlar bilan shugʻullanasiz?
3. Toʻgarak rahbaringizdan nimalarni oʻrgandingiz?
5. Toʻgarak mashgʻulotlarida foydalaniladigan narsalar roʻyxatini tuzing, ulardan qanday foydalanishingizni aytib bering.



Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi matnning mazmunini soʻzlab bering.



4- DARS



1- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang. Ajratilgan soʻzlarning maʼnosini tushuntiring.

Maktabimizning foyesida 2 ta jadval bor. Jadvallarning birinchisi darslar uchun, ikkinchisi esa **toʻgaraklarning** faoliyati uchun moʻljallangan. Men toʻgaraklarimiz haqida gapirmoqchiman. Toʻgarak mashgʻulotlari darslardan keyin **boshlanadi.**

Maktabimizda toʻgaraklar koʻp: fan toʻgaraklari, drama, raqs, mohir qoʻllar toʻgaraklari bor. Men naqqoshlik toʻgaragiga **qatnashaman.**

Sizning maktabingizda qanday to'garaklar bor? Siz qaysi to'garakka qatnashasiz? To'garak mashg'ulotlari qanday o'tadi?



1- mashq. Berilgan savollarga yozma javob bering.

1. To'garak mashg'ulotlari soat nechada boshlanadi?
2. To'garak mashg'ulotlari necha soat bo'ladi?
3. To'garak mashg'ulotlari bir haftada necha marta o'tkaziladi?
4. To'garak mashg'ulotlariga nechta o'quvchi qatnashadi?



2- mashq. Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Bugun maktabimizda ... hammasi ishlayapti.
2. To'garak ... o'n ikkita o'quvchi keldi.
3. Drama ... spektaklida men ham qatnashdim.
4. Sinfimizning faol ... kitob ta'mirlash bilan shug'ullandilar.
5. Maktab xorida ... o'quvchilari qatnashdilar.
6. Bog'dagi olma daraxtining o'n beshtasi

Foydalanish uchun so'zlar: o'quvchilari, mashg'ulotiga, to'garaklarning, payvand qilindi, to'garaginging, barcha sinflarning.



2- topshiriq. Tinglang. O'qing. So'zlang.

BILIM, TAFAKKUR, HUNAR...

Jonajon maktabim, qadrdon maktab,
Har kun quchog'ingga olasan bizni.
Onadek mehribon, oydin yo'l tilab,
Hayotga yo'llaysan har o'g'il-qizni...

Biz saboq olamiz, bahs suhbatlardan,
Tafakkur nuridan burro so'zimiz.
Hunar o'rganamiz to'garaklardan
Borliqqa teranroq boqar ko'zimiz...

Kimdir naqqosh bo'lib umrini bezar,
Kim esa me'mordir, ufqda ko'zi.
Chevar qizlarimiz zar tola bilan,
Vatan umidlarin etar zardo'zi...

Jonajon maktabim, onajon maktab,
Sen dilga joylading bebaho gavhar.
Chin inson bo'lsak biz, albat sen sabab,
Sendan oldik ta'lim, ilm-u fan, hunar...

Shul sabab hamisha e'zozda noming,
Qayda, kim bo'lsak-da, unutilmaymiz.
Har yurak qo'rida bor ehtiroming,
Seni madh etmoqdan sira tolmaymiz...

Muhiddin Omon

Mustaqil ish. O'zingizning qiziqishingiz haqida 5–6 gapdan iborat matn tuzing.



Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi she'ning mazmunini so'zlab bering. O'quv lug'atidan foydalanib, lug'at tuzing.

IX mavzu: QISHKI TA'TIL

(Tushum kelishigining qo'llanishi)



1- DARS



1-topshiriq. Tayanch so'zlardan foydalanib, „Ta'til taassurotlari“ mavzusida gaplar tuzing.

Rasm asosida tayanch so'zlar: ta'tilda, dam olmoq, yordam bermoq, birgalikda, tog', qishloq, o'yinlar, chana, chang'i, toza havo, manzara.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. Savol va topshiriqlarni bajaring.

TA'TIL TAASSUROTлари

Qishki ta'til kunlarining birida oyim bizni „Yosh tomoshabinlar“ teatriga olib bordilar. Teatrda „O'rmon ertagi“ spektaklini tomosha qildik. Spektaklda Qorbobo va Qorqiz, Shum kampir va bo'ri qatnashdilar. Yaxshilik va yovuzlik o'rtasida kurash bo'ldi. Shum bola, Hoshimjon, Qizil qalpoqcha yaxshilik uchun kurashdilar. Ular Qorboboga yordam berdilar. Yaxshilik yomonlikni yengdi. Yovuz kuchlar o'z xatolarini tushundilar. Ular Qorbobo va Qorqizdan kechirim so'radilar. Tomosha hammamizga yoqdi.



Savollar

1. Ta'til vaqtida siz qanday spektaklni tomosha qildingiz?
2. Matndan foydalanib, o'z taassurotlaringizni yozing.



Lug'at

yosh tomoshabinlar –
юные зрители

yovuzlik – зло

yaxshilik – добро

shum kampir – Баба Яга

kurashmoq – бороться

yovuz kuchlar – злые силы

xato – ошибка



1- mashq. Berilgan so'zlarni tartib bilan yozib, gaplar tuzing.

1. Archa, bilan, o'yinchoqlar, bezatmoq.
2. Keyin, nonushtadan, sayr qilmoq, tabiat qo'ynida.
3. O'rgatmoq, ustozim, chizishni, menga, rasm.
4. Do'st, bilan, yasamoq, qushlarga, in.

Namuna: Archani o'yinchoqlar bilan bezatdik.



Bilib oling!

Harakat yo'naltirilgan shaxs yoki narsani ifodalash uchun so'zga **-ni** qo'shimchasi qo'shiladi. **-ni** tushum kelishigi qo'shimchasi. Tushum kelishigidagi so'z kimni? nimani? so'roqlariga javob bo'lib, fe'l bilan bog'lanadi. Masalan: *Kitobni o'qidi. Gulni sug'ordi.* **-ni** qo'shimchasi men, sen kabi olmoshlarga qo'shilganda bitta *n* harfi tushib qoladi. Masalan: *men + ni > meni, sen + ni > seni.*



2- mashq. Berilgan so'zlarni tushum kelishigida qo'llab, so'z birikmalari tuzing.

Namuna: Xatni yozdi.

Xat, meva, hosil, ko'ylak, qo'l, suvni, dehqon.



3- mashq. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.

1. Bu kitob... (*-dan, -ning, -ni*) do'stimdan oldim.
2. Men... (*-da, -ning, -ni*) akam universitetga o'qishga kirdi.
3. Bahorgi ta'til... (*-ga, -ning, -ni*) Samarqand shahrida

o'tkazmoqchimiz. 4. Bog'imizga har xil ko'chatlar... (-dan, -ni, -ning) ekdik. 5. Qishki ta'til... (-ga, -ning, -ni) ko'ngilli o'tkazdim.

Mustaqil ish. O'qing va to'ldiring.

1. – Andrey, sen qayerda dam olding?
–
2. – Ta'tilda qanday kitoblarni o'qidingiz?
–
3. Bolalar qanday o'yinlarni o'ynadilar?
–



3-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

BIR-BIRIN KUZATAR FASLLAR

Bir-birini qay usulda
Kuzatishar fasllar?
Bir-biriga nimalarni
Uzatishar fasllar?
Fasllar bu, yil boboning
O'g'illari, qizlari.
Har qadamda seziladi
O'ziga xos izlari.
Go'yo ular bir-birining
Qo'llaridan ushlashar.

Gir aylanib, davra qurib
To'rtov o'yin tusharlar.
Bahoroyni Qishpolvon-chi,
Kutar ekan o'xshatib:
U yerlarni dam oldirib,
Dalalarni uxlatib.
Oppoq qordan ko'rpa yopib,
Oq bo'yoqqa suvarkan.
Eng zararli mikroblarni
Yo'qotarkan – quvarkan.

Po'lat Mo'min



Lug'at



kuzatmoq – провозжать
uzatmoq – протягивать
iz – след

gir aylanib – возвращаться
davra qurib – *здесь:* в кругу
suvamoq – штукатурить,
замазывать



Uyga vazifa. „Bir-birin kuzatar fasllar“ she'rini yod oling.

2- DARS

  **1- topshiriq.** Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

- Dilbar, yaxshimisan? Ta'til yaxshi o'tdimi?
- Ha, rahmat. Ta'til yaxshi o'tdi. Ta'tilda xolamlarnikida mehmon bo'ldik. Jiyanim Aziza bilan qishki o'yinlar o'ynadim.
- Rashid, o'zing qayerda bo'lding?
- Men ...

Muomala odobi

Tasdiqlash:

- To'g'ri.
- Shunday bo'lgandi.
- Aslida shunday.
- Ha, eshitdim.
- Tasdiqlayman.
- O'z ko'zim bilan ko'rdim.

 **1- mashq.** Tushum kelishigi ishtirokida 4–5 ta gap tuzing.

Namuna: Men bu kitobni o'qidim.

Foydalanish uchun so'zlar: kitob, film, dars, vazifa, ukam.

Yodda tuting!

Tushum kelishigi belgili va belgisiz qo'llanishi mumkin. **-ni** qo'shimchasi bilan, ya'ni belgili qo'llanganda aniq voqealarga oid harakatni ifodalaydi.

Umumiy, mavhum narsa-hodisalarga doir harakatni ifodalaganda qo'shimchasiz, ya'ni belgisiz qo'llanadi.

Qiyoslang:

olma yemoq

olma + ni yemoq

qizil olmani yemoq

ertak o'qimoq

ertak + ni o'qimoq

o'sha ertakni o'qimoq



Fonetik mashq

rasmni chizdi
hovlini supurdi
derazani ochdi
she'ni yodladi

kitobni oching
mevani yeng
savolni o'qing
uzumni uzing



2- topshiriq. O'qing. Savollarga javob bering.

TA'TILDA

Men qishki ta'tilni uyda o'tkazdim. Ta'til kunlari „Sariq devni minib“ qissasini o'qidim. Asar menga yoqdi. Asardagi voqealarni ukamga gapirib berdim. Ukam rosa kuldi. Endi u sehrli qalpoqchani qidiriyapti.



Savollar

1. Ta'til vaqtida qanday kitob o'qidingiz yoki kinofilm ko'rdingiz?
2. O'qigan kitobingiz yoki ko'rgan filmingiz mazmunini yaqin o'tgan zamonda qisqa hikoya qiling.



2- mashq. Belgisiz qo'llangan tushum kelishigida kelgan gapni topib, daftaringizga ko'chiring.

1. Ko'chaga atirgullar ekdim. 2. Sayohatchilarning barchasini mehmonga taklif qildik. 3. Qaysi tarixiy shaharlarni ko'rgansiz? 4. Qorbo'ron o'ynashni yoqtiraman. 5. Ukamni bog'chaga chanada olib bordim.

Mustaqil ish. Tushum kelishigi ishtirokida „Qishki ta'tilda“ mavzusida 5–6 gapdan iborat matn tuzing.



Uyga vazifa. „Bir-birini kuzatar fasllar“ she'ridan tushum kelishigi qatnashgan gaplarni topib, daftaringizga yozing.



3- DARS



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

YILBOBONING SOVG'ASI

Qadim zamonda ona va uning ikki o'g'li yashagan ekan. Ona shu qishloqdagi boyning xizmatini qilar ekan. U har kuni boyning uyini tozalar ekan. Ovqatini pishirar va mollariga qarar ekan. Boy onaga har kuni yarimta kulcha berarkan. U kulchani ikkiga bo'lib o'g'illarini to'yg'azar ekan. Ona kasal bo'lib qolibdi. Qishloq tabibi unga yalpiz davo bo'lishini aytibdi. Kichik o'g'il onasiga qarab qolibdi. Katta o'g'il esa yalpizni qidirib ketibdi. U soy bo'yidan uzoq vaqt yalpiz izlabdi, ammo topa olmabdi. Birdan qor bo'roni ko'tarilib, yo'ldan adashib qolibdi. Shu vaqt uzoqdan yorug'lik ko'rinibdi. Bola yorug'likka qarab boraveribdi. Gulxan atrofida bobo va uning o'n ikki farzandi o'tirishgan ekan. Ular bolani gulxan atrofiga taklif qilibdilar. Undan nega sovuqda bir o'zi yurganini so'rashibdi. Bola voqeani aytib beribdi. „Agar yalpizni topmasam, onam o'lib qolishlari mumkin“, – deb yig'lab yuboribdi. Shunda bobo bolaga: „Men Yilboboman. Bular esa yil oylari. Hozir ular tezlik bilan bir-birlariga navbat beradilar. Martning navbati kelguncha sen soyga yetib olasan. Soy bo'yidagi yalpizlarni tezda terib olgin. Lekin ko'rganlaringni hech kimga aytmagin“, – debdi. Bola Yilboboga minnatdorlik bildirib, yo'lga tushibdi. Bir etak yalpiz terib, uyiga jo'nabdi. Tabib yalpizdan dori tayyorlabdi. Onasi tez kunda tuzalib ketibdi.

Nodira Alovuddinova



Lug'at

tog' etagi – предгорье
mollarga qaramoq – ухаживать за скотом

izlamoq – искать
yo'ldan adashmoq – сбиться с пути

qizg'anchiq – скупой, жадный
ochlik – голод
tabib – лекарь

nihoyat – наконец
navbat – очередь

Mustaqil ish.

1. Ayting-chi, „Yilboboning sovg'asi“ ertagidagi bolaning o'rnida bo'lganingizda siz nima qilgan bo'lardingiz?
2. „Yilboboning sovg'asi“ ertagiga o'xshash yana qanday ertaklarni bilasiz?
3. Agar bilsangiz, farqini tushuntirib bering.



Uyga vazifa. „Ta'til kunlarining birida“ mavzusida kichik matn tizing.



4- DARS

Bilasizmi?

Aleksandr Sergeyevich Pushkin dunyoga mashhur rus shoiri. Uning ertaklarini dunyo bolalari sevib o'qiydilar.



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Ertakni o'z so'zingiz bilan davom ettiring.

BALIQCHI VA BALIQ HAQIDA ERTAK

O'tgan choqda dengiz bo'yida
Chol va kampir umr surgandi,
Chol to'r solib ovlarkan baliq,
Kampir esa yigirar urchuq,
Chol dengizga to'r soldi bir gal.

... ..

To'rga tushdi bir kichik baliq,
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.
Oltin baliq xuddi odamday,
Tilga kirib yolvorib qoldi:
„Qo'yib yubor dengizga, bobo,

Katta to'lov to'layman senga,
Ko'ngling ne tilasa bergayman".
Hayron bo'ldi, qo'rqib ketdi chol
O'ttiz uch yil baliq ovladi,
Ammo baliq so'zlaganini
Eshitmagan edi umrida.
Chol baliqni qo'yib yubordi,



... ..

Chol qaytdi-da, kampir yoniga,
Aytdi shundoq qiziq mo'jiza:
„Tutib oldim bugun bir baliq,
Jo'n baliqmas – naq oltin baliq.
Baliq tilga kirib, so'zladi,
Ko'p yalindi qo'yib yubor deb,
O'z uyiga – moviy dengizga.
Katta to'lov to'layin, dedi,
Ne istasang berayin, dedi.
Men olgani botina olmadim,
Qo'yvordim moviy dengizga".
Cholni qarg'ay boshladi kampir:
„Ey tentak chol, go'l, devona chol!
Ololmabsan baliqdan to'lov.
Hech bo'lmasa bitta tog'ora
So'rab olmaysanmi undan sen,
Tog'oramiz teshik-ku, axir!“



Chol jo'naydi moviy dengizga,
Mavj urmoqda dengiz qarasa,
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib, so'radi undan:
„Nima kerak senga, chol bobo?“
Ta'zim bilan javob berar chol:
„Podsho baliq, holimga achin, ...

A. S. Pushkin



Uyga vazifa. 1-topshiriqda berilgan ertak haqida „Esse“
yozing.

X mavzu: ERTAKLAR OLAMIDA

(Jo'nalish kelishigining qo'llanilishi)



1- DARS



1- topshiriq. Berilgan rasmlar va so'zlardan foydalanib, gaplar tuzing.



Foydalanish uchun so'zlar: Turna, aqlli, ayyor, yassi idish, tulki, sher, dovyurak, qilich, makkor, yirtqich, yengmoq.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga yozma javob bering.

ERTAKLAR OLAMIDA

Bolaligimizdan barchamiz ertak o'qishni, tinglashni yaxshi ko'ramiz. Ertak tinglamay katta bo'lgan bola bo'lmasa kerak. Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy janrlaridan biridir. Ertaklar insonlarda eng go'zal fazilatlarini tarbiyalaydi. Har bir xalqning o'z ertaklari bor. Masalan, o'zbek xalq ertaklari, rus xalq ertaklari, qozoq xalq ertaklari. Qaysi xalqning ertagi bo'lmasin, ularda doimo yaxshilik yomonlik ustidan g'alaba qozonadi, shuning uchun ham „Ertaklar yaxshilikka yetaklar“, deymiz.

Ozoda Najmiddinova



Savollar

1. Siz qaysi ertaklarni o'qigansiz?
2. Sizga qaysi ertak yoqadi?
3. Qaysi ertak qahramonlariga o'xshashni xohlaysiz?
4. Nima sababdan „Ertaklar yaxshilikka yetaklar“ deymiz?



Lug'at

ertaklar olamida – в мире сказок
xalq og'zaki ijodi – устное народное творчество
yetaklamoq – повести, водить

yomonlik – зло
fazilat – достоинство
yaxshilik – доброта, добро



1- mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'z va so'z birikmalarini qo'yib, ko'chirib yozing.

1. Men ... xalq ertaklarini o'qishni yaxshi ko'raman.
2. Ertak qahramonlari bizni ... bo'lishga o'rgatadi.
3. Men bugun kutubxonadan ... xalq ertaklari kitobini oldim.
4. Ertaklar ... yetaklar.
5. „Zumrad va Qimmat“ ertagidagi ... odobli qiz.

Foydalanish uchun so'zlar: odobli, rus, o'zbek, yaxshilikka, Zumrad.





Bilib oling!


Jo'nalish kelishigi **-ga (-ka, -qa)** qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Bu kelishikdagi so'z **kimga?, nimaga?, qayerga?** so'roqlariga javob bo'ladi.

-ga qo'shimchasi **-k, -q** harflari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda **-ka, -qa** shaklida talaffuz qilinadi va yoziladi. **-g, -g'** harflari bilan tugagan so'zlarga **-ga** shaklida qo'shiladi va shunday yoziladi.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi	So'rog'i	Misol
-ga	<i>kimga?</i> <i>nimaga?</i> <i>qayerga?</i>	<i>onamga</i> <i>idishga</i> <i>maktabga</i>

 **2- mashq.** Ikki ustundagi so'zlardan bir-biriga mosini tanlab, *-ga* qo'shimchasi yordamida so'z birikmasi tuzing va ko'chirib yozing:

Quti		suyak berdi
Qimmat		gapirdi
Qishloq		bordi
O'rmon		soldi
Kuchuk		keldi

 **3- mashq.** Berilgan gaplar asosida savollar tuzing. Ularni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Onam bilan bugun kitob do'koniga boramiz.
2. Dugonalarim bilan kutubxonaga a'zo bo'ldik.
3. Maktabimizga bolalar shoiri Anvar Obidjonni taklif qildik.
4. Adabiyot darsida ertaklar olamiga sayohat qildik.

Mustaqil ish. „Qizil qalpoqcha“, „Zumrad va Qimmat“, „Tulki bilan laylak“ ertaklari qahramonlari qayerga bordilar? Kimlar bilan uchrashdilar?



Uyga vazifa. „Ertaklar yaxshilikka yetaklar“ mavzusida 4–5 gapdan iborat bog'lanishli matn tuzing.



2- DARS



1- topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.

- Zumrad, senga qanday ertaklar yoqadi?
- Menga sehrlil ertaklar yoqadi.
- Sehrlil ertaklar qanday bo'ladi?
- Sehrlil ertaklarda qahramon sehr tufayli gulga aylanishi yoki uxlab qolishi mumkin...



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

– Qizim, narsalaring... (-ni, -ning) yig‘ishtir. Seni uying... (-ga, -da) jo‘nataman. Yerto‘lada qizil va oq sandiq bor. Oq sandiq... (-ni, -ib) qoldirib, qizil sandiqni olib chiq, – debdi kampir. O‘zi esa o‘rmon... (-ga, -qa) kirib ket... (-ib, -b)di. Zumrad narsalarini yig‘ishtirguncha, u saman ot qo‘shilgan aravani yetaklab kel...(-b, -ib)di.

(„Zumrad va Qimmat“ ertagidan)



2- mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

– Xafa bo‘lma, qizim, sen... (-ga, -qa, -ka) yordam beraman, – debdi kampir va uni ovqat... (-ka, -qa, -ga) chaqiribdi, iliq so‘zlar aytibdi. Lekin Qimmat yaxshi so‘zlar aytgan kampir... (-qa, -ka, -ga) minnatdorligini bildirmabdi. Kampir undan xafa bo‘lib, qo‘g‘irchoqlar va rasmi kitoblar bermabdi, ertak ham aytib bermabdi, ovqat... (-qa, -ga, -ka) ham taklif qilmabdi.

(„Zumrad va Qimmat“ ertagidan)



Muomala odobi

Rozilik bildirish:

- | | |
|----------------|-------------------|
| – Roziman. | – Mayli. |
| – Bemalol. | – Xo‘p. |
| – Qo‘shilaman. | – Qarshi emasman. |



2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Savol va topshiriqlarga javob bering.

OYGUL BILAN BAXTIYOR

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.
Esimda o'sha damlar,
O'zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh.
O't bog'lagan qanotlar,
Beqanot uchgan otlar,
Baxtiyor bilan Oygul,
Qiz bo'lib ochilgan gul.
So'ylaguvchi devorlar,

Bola bo'p qolgan chollar...
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi.
Tinglar edim betinim,
Uzun tunlar yotib jim.
Seza olardim kuchin,
Ko'pi yolg'on, ko'pi chin.
Ammo Oygul-Baxtiyor
Ertagini u takror
Qilar edi har kechin...

Hamid Olimjon



Lug'at

bolalik – детство
uyqusiz tun – бессонная
ночь
qanot – крыло
so'ylaguvchi – говорящий

devor – стена, забор
qissa – повесть, сказание
hissa – доля, часть
chin – истина, правда



Savol va topshiriqlar

1. Ertakni kim so'zlab berar edi?
2. „Esimda o'sha damlar...“ davom ettiring.
3. Buvi nabirasining aqliy rivojiga qanday hissa qo'shdi?

Mustaqil ish. „Oygul bilan Baxtiyor“ ertagi matnida siz bilgan yana qaysi ertaklar haqida ma'lumot berilgan? O'qituvchingiz yordamida aniqlang.



Uyga vazifa. 2- topshiriqdagi she'ni yodlang.



3- DARS



1- topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.



- Zumrad, bu qanday bino?
- Bu „Kitob olami“ do‘koni.
- Sen bu yerda bo‘lganmisan?
- Ha, bu yerda har xil kitoblar bor. O‘quvchilar uchun ham ko‘p kitoblar bor. O‘quvchilar o‘zlari qiziqqan kitoblar bilan tanishib, sotib olishlari mumkin.
- Bolalar, sizlar kitob do‘konida bo‘lganmisiz? U yerda qanday kitoblar bor?



Yodda tuting!

-ga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *u, bu, shu, o‘sha* olmoshlariga qo‘shilganda so‘z o‘zagida bitta *-n* tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *u + ga > unga, shu + ga > shunga, o‘sha + ga > o‘shanga* kabi.




Fonetik mashq

maktabga
kitobga
kinoga
teatrga

ukamga
do‘stimga
onamga
buvimga

o‘rikka
eshikka
bilakka
pufakka

buloqqa
quloqqa
so‘roqqa
tomoqqa

 **1- mashq.** Berilgan soʻzlarni guruhlarga ajrating va ularga joʻnalish kelishigi qoʻshimchasidan mosini qoʻshing.





Barg, chelak, qishloq, pufak, tuman, oʻlka, terak, quloq, oftob, sochiq, osmon, oʻtloq, kitob, yurak, toshloq, tuzoq, texnik, olam, inson, qaymoq, kiyik, kaklik, paypoq, nok, guldon, yostiqlik, javon.

Namuna:

+ **ga**
barg

+ **ka**
ilgak

+ **qa**
qishloq

    **2- topshiriq.** Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang. Savollarga javob bering. Ajratilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

SHIRIN UYQU

Bir odamning uchta oʻgʻli bor ekan. U vafoti oldidan oʻgʻillariga: „Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng“, – deb vasiyat qilibdi. Bu gapni katta oʻgʻillari bir xil tushunishibdi, kichik oʻgʻli esa boshqacha tushunibdi.

Katta oʻgʻillar hovliga suv sepib, karavotga koʻrpani qalin toʻshab, har xil shirin taomlarni ustma-ust yeb yotaverishibdi. Oxiri yeyishga ovqatlari qolmabdi.

Kichkina oʻgʻil esa koʻp mehnat qilibdi, quruq yegan noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uyqusi ham shirin tuyilar emish. Shunday qilib borgan sari uning davlati ziyoda, uyqusi shirin, ovqati mazali boʻlib boravergan ekan.

„Oʻzbek xalq ertaklari“ kitobidan



Lugʻat

shirin uyqu – сладкий сон
vasiyat qilmoq – завещать
davlati ziyoda – чрезмерное богатство

shirin taom – вкусная еда
koʻrpa – одеяло
kichkina oʻgʻil – младший сын



Savollar

1. Nima uchun ertak „Shirin uyqu“ deb nomlangan?
2. Shirin ovqat yeb, shirin uxlash uchun nima qilish kerak?
3. Katta o‘g‘illar ota vasiyatini qanday tushundilar?
4. Kichik o‘g‘il-chi?
5. Qani ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o‘g‘il to‘g‘ri tushungan?

Mustaqil ish. „Zumrad va Qimmat“ ertagini tinglang yoki tomosha qiling. So‘ngra berilgan rasmlar asosida matn tuzing.



Uyga vazifa. O‘zingiz yoqtirgan ertaklardan birini so‘zlab berish uchun reja tuzing.



4- DARS



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘ying. Qo‘shimchani qanday shaklda qo‘llanishiga e‘tibor bering.

ko‘cha...

uy...

maktab...

do‘stim...

chiqdim

kirdim

bordim

aytdim

cho‘ntak...

varaqq...

terak...


tovuqq...

soldi

chizdi

chiqdi

berdi

 **2-mashq.** Berilgan gaplar asosida savollar tuzing. Ularni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Bugun onam bilan teatrga boraman. 2. Men yangi o'qigan kitobim haqida do'stinga gapirib berdim. 3. Lobar darsdan so'ng uyga ketdi. 4. Ular ertaga kutubxonaga boradilar. 5. Abror bugun maktabga bormadi.


 **3-mashq.** So'zlarni to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing.

1. Qo'rqqanidan, yig'lab, yuboribdi, Zumrad.
2. U, kutib olibdi, bilan, mehribonlik, iliq, Zumradni.
3. Chol, sog'inib, qizini, o'tirgan ekan, ostonada.

   **1-topshiriq.** O'qing Tinglang. So'zlang.

Ertak, qo'shiq, doston, maqol, topishmoq xalq og'zaki ijodi namunalari. Ular og'izdan og'izga o'tib, og'zaki holda bizgacha yetib kelgani uchun og'zaki ijod deyiladi. Og'zaki ijodning muallifi xalq bo'lgani uchun uni xalq og'zaki ijodi deymiz. Unda xalqning orzu-umidlari, istaklari ifoda etiladi.

Ertaklar ulardagi muammolarga, ishtirok etuvchi qahramonlariga qarab: sehrli, maishiy, sarguzasht, qahramonlik kabi turlarga bo'linadi.

 **4-mashq.** Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chirib yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Shuhrat sinf majlisi... qatnasha olmadi. 2. Salima ukasi... yangi kitob sotib oldi. 3. Dam olish kuni... maroqli o'tkazdik. 4. Bugun kuz... birinchi kuni. 5. Kun tartibi... qat'iy rioya qilish kerak.

Mustaqil ish. Maqollarni o'qing, mazmunini izohlang. Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan so'zlarga savol bering.

1. Qilganing menga, o'rganganing o'zingga.
2. Ko'p o'qigan ko'p bilar.
3. Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas.
4. Ilm olish – ignada quduq qazish bilan barobar.



5- DARS



1- topshiriq. Rollarga bo'lib o'qing. Tinglang. So'zlang. Jo'nalish kelishigi qatnashgan gaplarni ko'chiring.

AQL VA BOYLIK

Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kun chol o'g'illarini oldiga chaqirib:

– O'g'illarim, men qarib qoldim, – debdi, – orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, u menga merosxo'r bo'ladi. Har qaysingiz menga aqlli va davlatli ekanligingizni ko'rsating.

Eng katta o'g'il oltin uzuk taqqan qo'lini uzatib:

– Mana mening boyligim, boy odamda aql ham bo'ladi, – debdi.

Ikkinchi o'g'li zar chophonini kiyib:

– Shu paytda meni ko'rgan kishi boyligimga va aqlimga qoyil qoladi, – debdi.

Uchinchi o'g'li kumush va javohir qadalgan kamarini beliga bog'lab:

– Hech kim umrida bunday kamarni ko'rgan emas, – debdi.

Chol boshini chayqab, katta o'g'illariga hech nima demabdi. Kenja o'g'liga qarab:

– Nega sen indamaysan? Sen qaysi boyliging bilan maqtanasan? – debdi.

– Menda oltin uzuk ham, zar chophon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, – debdi.

Kenja o'g'ilning javobi cholga yoqibdi, bor-yo'g'ini unga meros qoldiradigan bo'libdi. Katta o'g'illariga esa uning so'zidan chiqmaslikni tayinlabdi.

„O'zbek xalq ertaklari“ kitobidan



Lug'at

merosxo'r – наследник
chopon – мужской халат

kamar – пояс, кушак
boylik – богатство



1- mashq. „Aql va boylik“ ertagidan foydalanib, nuqtalar o'r-nini to'ldiring. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qatnashgan so'z-larning tagiga chizing.

1. Bir cholning to'rt ... bor ekan. 2. Kim aqlli va ... bo'lsa, u menga merosxo'r bo'ladi. 3. Har qaysingiz menga ... va davlatli ekanligingizni ko'rsating. 4. Uchinchi o'g'li ... va javohir qadalgan kamarini beliga bog'lab: – Hech kim umrida bunday ... ko'rgan emas, – debdi. 5. Kenja o'g'ilning ... cholga yoqibdi, bor-yo'g'ini unga meros qoldiradigan bo'libdi.

Mustaqil ish.

- O'qituvchingiz yordamida „Aql va boylik“ ertagi qahra-monlarini „Uch og'a-ini botirlar“ ertagi qahramonlari bilan qiyoslang;
- o'xshash va farqli tomonlarini sanang.



Uyga vazifa. O'zingiz sevgan ertak qahramonlari haqida og'zaki hikoya tuzing.

XI mavzu: MENING DARSXONAM

(O‘rin-payt kelishigining qo‘llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



- Nodira, uyingiz necha xonali?
- Uyimiz besh xonali.
- Sening darsxonang bormi?
- Ha, mening darsxonam bor.
- Darsxonang qanday?
- Darsxonam uncha katta emas, lekin juda yorug‘ va shinam.
-



2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Savollarga yozma ravishda javob bering.

MENING DARSXONAM

Mening ismim Nodir. Men 5- sinfda o‘qiyman. Biz ko‘p qavatli uyning beshinchi qavatida yashaymiz. Uyimiz besh xonali. Bu mening darsxonam. Darsxonam yorug‘, shinam

va qulay. Xona derazasi katta ko'chaga qaragan. Deraza oldiga yozuv stoli qo'yilgan. Stolning chap tomonida kitob javoni bor. Kitob javoniga darsliklarimni, o'quv qurollarimni, o'yinchoqlarimni tartib bilan joylaganman. Rus va o'zbek tilidagi badiiy adabiyotlarni ham javonda saqlayman. Kitob javonimning qarshisiga karavotim qo'yilgan. Bu xonadagi barcha narsa men uchun qadrlil. Men xonamni doimo ozoda saqlayman.



Savollar

1. Sizning darsxonangiz bormi?
2. Darsxonangiz qanday jihozlangan?
3. Darsxonangiz o'zingizga yoqadimi? Nima uchun?



Lug'at

tartib – порядок
shinam – уютный
ozoda – чистый

deraza oldiga – у окна
ko'chaga qaragan – смотрящий на улицу



1- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, ko'chirib yozing.

1. Karavotning ... stul va stol bor. 2. Stolning chap ... kitob javoni joylashgan. 3. ... ikkita katta deraza bor. 4. ... kitoblar taxlab qo'yilgan. 5. ... chiqdim. 6. O'quvchilar darsdan so'ng ... qoldilar.

Foydalanish uchun so'zlar: tomonida, yonida, xonada, xonadan, javonga, sinfda.


Namuna: Javonga kitoblar taxlab qo'yilgan.




Bilib oling!

O'rin-payt kelishigidagi so'z **-da** qo'shimchasi yordamida yasaladi va *kimda? nimada? qayerda? qachon?* so'roqlariga javob bo'ladi. Bu kelishikdagi so'zlar ish-harakatning payti, o'rne, vositasi kabi ma'nolarni ifo-

dalaydi. Masalan: *Tadbirni **maktabda** (qayerda?) o‘tkazdik. Akmal **mashinada** (nimada?) keldi. **Do‘stimda** (kimda?) qiziqarli kitob bor. Oyim soat **12.00 da** (qachon?) keladilar.*


 **2- mashq.** Birinchi ustundagi so‘zlarga o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini qo‘shing va ikkinchi ustundagi so‘zlar bilan bog‘lab, so‘z birikmalari tuzing.

uy	}	uchrashmoq		uyda kutmoq
javon		turmoq		
soat o‘n		ketmoq		
tushlik		ko‘rishmoq		
maktab		badantarbiya qilmoq		
bekat		kutmoq		
hovli		ovqatlanmoq		


 **3- mashq.** Berilgan so‘zlardan bir-biriga mosini tanlab, *-da* qo‘shimchasi yordamida so‘z birikmasi tuzing va ko‘chirib yozing:

hovli maktab bajardi
 bor navbatchi o‘sadi
 men bog‘

Mustaqil ish. Sizing darsxonangiz qanday? O‘z darsxonangiz haqida og‘zaki matn tuzing.

 **Uyga vazifa.** O‘rin-payt kelishigida kelgan so‘zlar ishtirokida 4–5 ta gap tuzing.

2- DARS

 **1- topshiriq.** Berilgan savollarga javob bering. O‘rin-payt kelishigidagi so‘zlarni aniqlang.

1. – Darsxonangizda qanday jihozlar bor?
 –

2. – Ukangizga qanday yordam berdingiz?
–
3. – Xonangizning devorida nimalar osilgan?
–
4. – Kitob tanlashda kimlarga murojaat qilasiz?
–
5. – Sevimli narsalaringizni qayerda saqlaysiz?
–



Yodda tuting!

O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi **u, bu, shu, o‘sha** olmoshlariga qo‘shilganda, undan oldin bitta **-n** tovushi orttiriladi.

Qarang: u + n + da > **unda**, shu + n + da > **shunda** kabi.



1- mashq. So‘z va so‘z birikmalarini to‘g‘ri joylashtirib, gaplar tuzing.

1. Soat, men, nonushta qilaman, 7.00 da.
2. Qilaman, maktabdan, tushlik, kelib.
3. Onamga, ishlarida, yordamlashaman, uy.
4. 19.00 da, uy, bajarib bo‘laman, soat, vazifalarimni.



Fonetik mashq

Senda	otda	balandda	soat uchda
tomda	o‘tda	qandda	tongda
uchda	sutda	Samadda	tunda



2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Unda berilgan uy jihozlari nomlarini daftaringizga ko‘chiring.

MEBEL DO‘KONI

Mebel do‘konida uy jihozlari sotiladi. Yumshoq mebellar ikkinchi qavatga joylashtirilgan. Bu qavatga qizil gilam solingan zinadan chiqiladi. Bu yerda qizil, sariq, yashil, qora rangli divanlar bor. Biz uyimizga katta qora divan va o‘rindig‘i qora rangli oltita stul sotib oldik.



Lugʻat

yumshoq mebel – мягкая мебель
gilam – ковёр

oʻrindiq – сиденье
doʻkon – магазин



Muomala odobi

- Onajon, ishga yaxshi borib keling!
- Rahmat, qizim.
- Buvijon, siz yaxshi qoling. Zerikmang.
- Rahmat, bolam.
- Akajon, sizga imtihonda omad tilayman!
- Aytganing kelsin! Rahmat!



2- mashq. Jihozlarni oʻz oʻrniga qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

Xona oʻrtasida yumshoq stul bor. Uning atrofida oltita stol bor. Sifga soat osilgan. Javonning ustiga gilam solingan. Devorga billur qandil osilgan. Stol tagiga guldon qoʻyilgan. Oynaga dasturxon osilgan. Polga parda solingan.

Mustaqil ish.

1. Darsxonada nimalar qilasiz?
2. Oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasi olmoshlarga qoʻshilganda qanday qoʻllanadi?



Uyga vazifa. Qayerda? va kimda? soʻroqlariga javob boʻladigan soʻzlar ishtirokida ikkitadan gap tuzing.

Namuna: Men **kutubxonada** Karimni koʻrdim.
Bu kitob **ukamda** bor.



3- DARS



1-topshiriq. Rasmlar asosida berilgan soʻzlar yordamida uy jihozlarini qiyoslab tasvirlang.

Namuna: Stul qizil rangda, shkaf esa ... rangda.



Foydalanish uchun soʻzlar: qora, sariq, qizil, oq, javon, stul, jigarrang, sovutgich, televizor.



1- mashq. Berilgan gaplar asosida savollar tuzing. Ularni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Men bu hikoyani yozgi ta'tilda o'qiganman. 2. Men yangi o'qigan kitobim haqida do'stinga gapirib berdim. 3. Oydin darsdan so'ng kutubxonada qoldi. 4. Ular ertaga kutubxonada uchrashadilar. 5. Abror bugun darsda yozmadi.



2- mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli kelishik qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Sinfimiz bilan musobaqa... tayyorlandik. 2. Musobaqa... „Quvnoqlar“ guruhi g'olib bo'ldi. 3. G'oliblar... sovg'alalar berildi. 4. Sinf rahbarimiz biz... xursand bo'idilar. 5. Biz... to'garak rahbarimiz yordam berdilar. 6. Sinfimiz... barcha o'quvchilari musobaqa... faol qatnashdilar.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga javob bering.

KUN TARTIBI

Rejalashtirilgan ishlaringizni vaqtida bajarish uchun quyidagilarga amal qiling:

1. Aldamaslikka o'rganing.
2. Vaqtingizni to'g'ri taqsimlashga o'rganing.
3. Har kuni bir vaqtda uxlashga va uyg'onishga odatlaning.
4. Uchrashuvga kechikmaslikka odatlaning.

5. Kechikish eng yomon odatlardan biri ekanligi esingizda tursin.

6. Qat'iy kun tartibingiz bo'lsin.

7. Har qanday masalaga mas'uliyat bilan yondashing.

H. Hamroyeva



Lug'at

mo'ljallamoq – намечать, рассчитывать

reja – план

tavsiya – рекомендация

tanqid – критика

nisbatan – сравнительно, относительно

taqsimlamoq – распределять

mas'uliyat – ответственность



Savollar

1. Siz o'z kuningizni qanday rejalashtirasiz?

2. Kun tartibiga yana nimalarni qo'shish mumkin?



3-topshiriq. She'ni ifodali o'qing va ajratilgan so'zlar ishtirokida *-ga* kelishik qo'shimchasini *-da* bilan almashtirib, gaplar tuzing.

MENING DARSXONAM

Darsxonamga javoncham
Juda yarashar.

Unga kitob terganman,
Do'stlar qarashar.

Darsxonam yop-yorug',
Ozoda har vaqt.

Doim „a'lo“ **o'qishga**
Men qilganman ahd.

Abdurahmon Akbar

Namuna: Darsxonam**ga** javoncham juda yarashar.
Darsxonam**da** javoncha bor.

Mustaqil ish. O'rin-payt kelishigidagi so'z qanday ma'nolarni ifodalaydi?



Uyga vazifa. „Mening darsxonam“ she’rini yod oling.



4- DARS



1- topshiriq. O’qing. Tinglang. Davom ettiring.

- Dono, darsdan keyin nima ish qilmoqchisan?
- Uyga borib, darsxonamni tartibga solmoqchiman. Kecha mehmonlar kelishgan edi. Ularning uch yoshli o’g’li darsxonamda o’ynadi.
- Shuning uchun endi xonangni tartibga solmoqchimisan?
- Ha



1- mashq. Birinchi ustundagi so’zlarga o’rin-payt kelishigi qo’shimchasini qo’shing va ikkinchi ustundagi so’zlardan mosini tanlab, so’z birikmasi tuzing.

Darsxona	→	kutmoq
Javon		yozmoq
Kompyuter		bo’yamoq
Qalam		o’qimoq
Maktab	→	saqlamoq

Namuna: maktabda kutmoq.



2- mashq. Nuqtalar o’rniga mos kelishik qo’shimchalarni qo’yib, gaplarni ko’chiring.

1. Qadim zamon... Xiva... bir zolim xon o’tgan ekan.
2. Bir qishloq... Zuhra degan oqila qiz bor ekan.
3. Agar kim ish... chiqmasa, o’zi... ham, yaqinlari... ham jazolar ekan.
4. Zuhra yigit... o’lim... qutqarish rejasi... tuzibdi.
5. Shunday qilib, Zuhra odamlar... jazo... saqlab qolibdi.



2- topshiriq. Matnni o’qing va savollarga javob bering.

DILBAR

(Hikoya)

Ikki yuzi qip-qizil Dilbar uyning o'rtasida o'tirib oldi. Qaychi bilan rangli qog'ozni qirqib, quticha yasayotgandi. Dilbar stol ustidan qutichani olish uchun o'rnidan turgan edi. Birdan etagidagi qog'ozlar yerga sochilib ketdi. Yozilgan gilam iflos bo'ldi.

Dilbar darrov katta-katta qog'ozlarni terib oldi. Supurgini olib, uyni supurishga tushdi.

– O'hho', ona qiz degan shunday bo'lsin-da. O'zimning oppoq qizim, aqli qizim, – dedi Salomat opa.

Dilbar onasiga qarab:

– Oyi, bu supurgingiz yomon ekan. Menga yaxshi, kichkina supurgi olib bering, – dedi.

– Xo'p bo'ladi, oppoq qizim, – dedi Salomat opa.

– Oyi, o'zingizga ham yaxshisidan olib kelasizmi? Bu sizni ham charchatib qo'ymaydimi?

– Charchatadi, qizim. Supurish ana shunaqa qiyin bo'ladi. Shuning uchun uyni iflos qilmagin deb seni urishaman-da, – dedi Salomat opa.

– Endi hech iflos qilmayman. Supurgi olib bersangiz, har kuni o'zim supuraman.

– Xo'p, qizim, ertaga olib beraman, – dedi qizini erkalatib Salomat opa.

Ertasi kuni Salomat opa Dilbarga kichkinagina supurgi olib berdi. Dilbar endi har kuni ertalab uyni supuradi. U juda ozoda qiz, uyni iflos qilmaydi. Chunki u mehnatning qadriga yetadi.

Karim Rahim



Savollar

1. Hikoyada qanday jihoz nomlari bor?
2. Dilbar gilamga nimani sochib yubordi?
3. Dilbar nima uchun supurgini yomon dedi?
4. Dilbar oyisiga qanday va'da berdi?



Lug‘at

o‘rta – середина

qaychi – ножницы

qirqmoq – резать, отрезать

etak – фартук

sochilmoq – разбрасываться

charchamoq – уставать

bulg‘atmoq – пачкать

supurmoq – подметать

qadriga yetmoq – ценить

supurgi – веник



Uyga vazifa. „Dilbar“ matning mazmunini so‘zlab bering.



5- DARS



1- topshiriq. O‘qing. Tinglang. Savollar tuzing. Lu-
g‘atda berilgan so‘zlar ishtirokida 4–5 ta gap tuzing.

MEHNATNING TAGI ROHAT

Albatta, barcha fanlarni birdek sevish mumkin emas. Har bir o‘quvchining yaxshi ko‘radigan darslari bor. Qiziq-
maydigan mashg‘ulotlari ham bor. Odam faqat o‘ziga yoq-
qan ishni qilishi mumkin emas. Hozirgi farovon hayot –
tinimsiz mehnatning mahsuli.

Siz ham o‘zingizning maqsadlaringizga mehnat orqali
erishasiz. Sizga zerikarli tuyulgan mashg‘ulotlar ham foydali
bo‘lishi mumkin.

Oddiygina misol. Siz matematikadan murakkab masalani
yechishni yomon ko‘rasiz. Biroq Erkin Vohidovning she’r-
larini yodlash yoqadi. Lekin sizning vazifangiz maktab das-
turidagi barcha fanlarni o‘rganishdir. Hayot hamisha ham
siz o‘ylaganingizdek bo‘lavermaydi. Yaxshisi, irodangizni
mustahkamlang. Dars tayyorlashni qiyinroq fanlardan bosh-
lang. Uy ishlari bilan shug‘ullanganingizda ham shu usul-
dan foydalaning. Ishlaringiz osongina bitib qolganini o‘zingiz
ham sezmay qolasiz.

Shuning uchun „Mehnatning tagi rohat“ deydilar.


Hulkar Hamroyeva



Lug'at

birdek – одинаково	farovon hayot – зажиточная
faqat – только	жизнь
o'ziga – самому	mehnat mahsuli – плоды труда
maqsad – цель	zerikarli tuyulmoq – казаться
sezmay qolmoq – не	скучным
заметить	

Mustaqil ish. Namunadan foydalanib, rasmda berilgan yotoqxonaga jihozlariga rang tanlab, og'zaki tasvirlab bering.



Namuna: Bu darsxona. Xonada katta jigarrang kitob javoni bor. Javonga har xil qiziqarli kitoblar terib qo'yilgan. Devorga tabiat tasviri tushirilgan surat ilingan. Deraza yoniga stol va stul qo'yilgan. Stol ustida kompyuter bor.



Uyga vazifa. „Mehnatning tagi rohat“ matnining mazmunini so'zlab bering.

XII mavzu: SHAHAR BO‘YLAB SAYOHAT

(Chiqish kelishigining qo‘llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing, davom ettiring.

- Komil, bu buxorolik dugonam Aziza. U Toshkentni tomosha qilmoqchi ekan.
- Juda yaxshi, Dono. Birgalikda shahrimiz bo‘ylab sayohat qilamiz.
- Mening rejam shunday: avval Mustaqillik maydoniga boramiz.
- Yaxshi, qani ketdik.
- Aziza, bu ko‘rkam maskan Mustaqillik maydoni deb ataladi. U poytaxtimizning markazida joylashgan. Bu yerda hashamatli binolar, haykallar ko‘p. Mana bu



2- topshiriq. O‘qing. Berilgan savollar asosida uning mazmunini qayta hikoya qiling.

SHAHAR BO‘YLAB SAYOHAT

O‘qituvchimiz bizni Toshkentga sayohatga olib bordilar. Vatanimiz poytaxti katta va go‘zal shahar ekan. Sayohatimiz Mustaqillik maydonidan boshlandi. Keng va ko‘rkam bu maydonda „Ezgulik“ arkasini, „Baxtiyor ona“ haykalini ko‘rdik. Bu yerdan Amir Temur xiyoboni tomon sayr qildik. Buyuk sarkarda bobomizga o‘rnatilgan haykal oldida rasmga tushdik. Temuriylar tarixi davlat muzeyi, „O‘zbekiston“ xalqaro anjumanlar saroyi va Toshkent kurantlarini tomosha qildik. Keyin metroga tushdik. Metro bekatlarining go‘zal naqshlari bizni hayratda qoldirdi.

So‘ngra O‘zbekiston milliy bog‘ini tomosha qildik. Bu yerda ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy haykali poyiga gullar

qo'ydik. Poytaxtimizning Eski shahar qismidagi Sirk binosi, Hazrati Imom masjidi hamda Baroqxon va Ko'kaldosh madrasasi bizda katta taassurot qoldirdi.

Ha, Toshkent juda go'zal va zamonaviy shahar. Biz poytaxtimiz bilan faxrlanamiz. Sayohatdan katta taassurot bilan qaytdik.



Savollar

1. Bolalar qayerga sayohatga borishdi?
2. Mustaqillik maydonida nimalarni ko'rishdi?
3. O'zbekiston milliy bog'ida nima qilishdi?
4. Amir Temur xiyoboni atrofida qanday binolar bor ekan?



Lug'at

poytaxt – столица

ko'rkam – красивый,

прелестный

faxrlanmoq – гордиться

hayratda qolmoq – удивляться,

изумляться

zamonaviy – современный

taassurot – впечатление




1-mashq. „Shahar bo'ylab sayohat“ matnidan *kimdan?* *nimadan?* *qayerdan?* savollariga javob bergan so'zlarni jadvalga joylashtiring.

<i>Nimadan?</i>	<i>Kimdan?</i>	<i>Qayerdan?</i>



Bilib oling!

Chiqish kelishigi *kimdan?* *nimadan?* *qayerdan?* so'roqlaridan biriga javob bo'lib, **-dan** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu kelishikdagi so'zlar, asosan, fe'l bilan bog'lanadi. Masalan: *Maktabdan* keldi. *Ukamdan* oldim.

 **2-mashq.** Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Ozoda bilan Anvar Tabiat muzeyi... (-da, -dan, -ga) bordilar. 2. Tarixiy obidalar... (-dan, -ga, -ni) ko'rdik va rasmga tushdik. 3. Qiz bolalar... (-ning, -ni, -da) o'g'il bolalar hurmat qilishi kerak. 4. Avtobus to'xtagach, biz bekat... (-dan, -da, -ni) tushdik. 5. Mehmonlar kelishdi va shahrimiz... (-ning, -ni, -da) tomosha qilishdi.

3-mashq. Ustunlarda berilgan so'zlardan bir-biriga mosini tanlab, chiqish kelishigi qo'shimchasi yordamida bir-biriga bog'lang. Tuzgan gaplaringizni daftarga ko'chiring.

Shahar		so'radik
Mehmon		o'tdik
Ko'cha	dan	xabar oldik
Do'stim		keldik
Bog'		chiqdik

Mustaqil ish. Partadoshingiz bilan qilgan sayohatingiz haqida suhbatlashing. Namunadagidek gaplar tuzing.


Namuna: – Sayohatga kimlar bilan bordingiz?
– Sayohatga onam, akam va men bordik.



Uyga vazifa. O'z shahringiz haqida kichik matn tuzing.



2- DARS

 **1-topshiriq.** Tayanch so'zlardan foydalanib, do'stingizga rasmlarda tasvirlangan joylarni tanishtiring.





Tayanch soʻzlar: hamroh, yoʻl boshlovchi, markazda, birga, aylanmoq, hayratlanmoq, taassurot, qiziqmoq, rasimga tushirmoq, ziyorat qilmoq.



1- mashq. Oʻqing, javoblarni toʻldiring va koʻchiring.

- Kim bilan shahar aylandingiz?
- ... va
- Qayerlarni koʻrishni xohlaysiz?
- ... hamda
- Qaysi muzeylarni tomosha qildingiz?
- ... va
- Istirohat bogʻida dam oldingizmi?
- Ha, ... hamda



2- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang. Ajratilgan soʻzlar ishtirokida yangi gaplar tuzing.

HAMROHLAR

Ikki kishi **safarga** chiqishibdi. Ularning biri qanoatli, ikkinchisi ochkoʻz edi. Ular uzoq yoʻl yurishibdi. Yoʻl boʻyida yarmi **tuproqqa** koʻmilgan bir toshni koʻrishibdi. Toshda shunday soʻzlar yozilgan ekan: „Kim toshni teskari agʻdarsa, unda **xazina** manzili koʻrsatilgan“. Ochkoʻz kishi toshni qazib olishga tushibdi. Sherigi esa yoʻlda davom etibdi. Ertalab bir shahar oldidan chiqibdi. Shaharga olib boradigan **yoʻllar** koʻp ekan. Lekin u eng yaqinini tanlabdi. Darvoza oldida uni shahar xalqi kutib olibdi. Bu yurtning

odaticha, podshoh o'lsa, uning vafoti sir tutilar va kim shaharga birinchi bo'lib kirib kelsa, uni taxtga o'tqazishar ekan. Shunday qilib, qanoatli **sayyoh** mamlakatga podshoh bo'libdi.

Ochko'z kishi esa qiynalib toshni ag'daribdi. Toshga shunday yozilgan ekan: „Oson yo'l bilan boylikka erishmoqchi bo'lgan kishi adashadi. Yo'l yurib, dunyoni tanigan kishi bilimli va baxtli bo'ladi“.



Lug'at

hamroh – спутник

safar – поход

ochko'z – жадный,
алчный

sayyoh – путешественник

xazina – сокровище

qanoatli – терпеливый

qiyinchilik – трудность,
затруднение

teskari – обратная
сторона



Muomala odobi

Taklif etish

- Taklif etaman.
- Xush kelibsiz.
- Marhamat.

- Uyimizga marhamat.
- Biznikiga keling.
- Mehmonimiz bo'ling.

Mustaqil ish. Shahringizning ko'rkam maskanlaridan birini ta'riflab matn tuzing.



Uyga vazifa. Do'stlaringiz bilan sayohat qilish uchun reja tuzing.



3- DARS



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

TARIXIY SHAHARLAR

O'zbekistonda **tarixiy shaharlar** ko'p. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon kabi shaharlar dunyoga mashhur. Bu shaharlarga doim ko'plab **sayyohlar** keladilar.

Temuriylar davrida Samarqandda juda ko'p me'moriy binolar qurilgan. Bular Registon maydoni, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim jome masjidi, Go'ri Amir maqbarasidir.

Buxoro Buyuk ipak yo'lidagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Bu muzey-shahar qadimdan **olimlari**, zargarlari, hunarmandlari bilan **tanilgan**. Minorayi Kalon, Mir Arab madrasasi, Labihovuz, Somoniylar maqbarasi, Chor minor, Sitorayi Mohi Xosa kabi obidalari noyob boylikdir.

Xiva Xorazmning qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, o'ziga xos tarixiy obidalari juda ko'p. Bu yerdagi masjid va madrasalarni **sayyohlar** qiziqib tomosha qiladilar. Ko'hna ark, Kalta minor, Toshhovuz saroyi, Juma masjidi, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi kabi obidalar shaharning ko'rkidir. Yurtimiz tarixiy obidalarini asraylik!



Lug'at

qadimiy – древний, старинный

obida – памятник

ko'rk – краса

zargar – ювелир

o'ziga xos – своеобразный

naqsh – орнамент, узор

ko'plab – множество

asramoq – беречь



Yodda tuting!

-dan chiqish kelishigi *u, bu, shu, o'sha* olmoshlariga qo'shilganda bitta **-n** tovushi orttiriladi va shunday yoziladi. Qarang: *u + n + dan > undan*, *shu + n + dan > shundan* kabi.



Fonetik mashq

u + *n* + *dan* → *undan*
 bu + *n* + *dan* → *bundan*
 shu + *n* + *dan* → *shundan*
 o'sha + *n* + *dan* → *o'shandan*



2-topshiriq. Savollarga javob berib, dialogni davom ettiring.

- Sayohatdan qachon qaytasiz?
-
- Rasadxona Registon maydonidan uzoqdami?
-
- Somoniyalar maqbarasi nimadan qurilgan?
-



1-mashq. Kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Samarqand O'zbekiston... tarixiy shaharlaridan biri.
2. Siz bu shahar... bo'lganmisiz?
3. Ular Toshkent... sayohat... bordilar.
4. Bolalar qadimiy minora... ko'rdilar.
5. Biz sayohatga Toshkent..., undan so'ng Buxoroga boramiz.

Mustaqil ish. O'z shahringiz haqida ma'lumot yozing.



Uyga vazifa. Biror tarixiy shahar haqida kichik matn tuzing.



4- DARS



1-topshiriq. O'qing. Tinglang. Davom ettiring.

- Dono, Samarqandga sayohatga bordingmi?
- Ha, Samarqandni tomosha qildim.
- Qayerlarda bo'lding, gapirib ber.
- Komil, Samarqandda tarixiy obidalar ko'p ekan. Hammasini ko'rishga vaqtimiz yetmadi. Menga Registon

maydoni juda yoqdi. Xolam menga Mirzo Ulug'bek rasadxonasini, Shohi Zinda obidasini ham ko'rsatdilar. Ammo u yerda rasimga tushmadik.

– Ajoyib joylar ekan. Men bu yerlarni ko'rmaganman. O'tgan yili Buxoroga bordik. Buxoro haqiqiy muzey-shaharga o'xshaydi.

– Men esa Buxoroga bormaganman. Iltimos, menga Buxoro haqida gapirib ber.

– Buxoro qadimiy va navqiron shahar ...




1-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Yaqinda biznikiga Buxoro... (-ga, -da, -dan) mehmonlar kelishadi. Jiyanim Feruza menga shahar... (-ni, -ning, -ga) ko'rsatmoqchi. Biz mashina... (-da, -ga, -dan) aylandik. Eski shahar haqiqiy muzey-shahar... (-ni, -ning, -ga) o'xshaydi. Minorayi Kalon... (-ni, -ning, -ga) juda ko'rgim kelyapti.

Mir Arab madrasasi... (-da, -ning, -ga) peshtoqlari naqshinkor va rangli. Necha asrdan beri u... (-ga, -ning, -dan) rangi o'chmagan.


Mustaqil ish. Rasmlardan foydalanib, gaplar tuzing.



Samarqand. Ulug'bek rasadxonasi



Buxoro. Chor minor.



Buxoro. Ismoil Somoniy
maqbarasi



Xiva. Pahlavon Mahmud
maqbarasi.



2- mashq. Quyidagi soʻz birikmalarini oʻqing, kelishik qoʻshimchalari qatnashgan soʻz birikmalarini daftaringizga yozing.

Sayr qildi, tushunmadi, xursand boʻldi, tomosha qildi, tasvirga olmang, devorga chizmang, binoni asraymiz, naqshni koʻchirmang, hayratlandik, chiroyli koʻrinadi, tarixni eslatadi, qoʻlingizni tekkizmang, devorga suyanmang, eslab koʻring, gumbazni koʻring.



2- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang.

MINORA

Buxoroda boʻlganingda
Koʻrganmisan, Gulnora,
Shaharning qoq oʻrtasida
Turar ulkan minora.
Bulutlarning unga hatto
Tegib oʻtar koʻylagi.
Qancha yurtdan havas bilan
Kelishadi koʻrgani.
Qay tomondan boqma unga,
Darrov koʻzga tashlanar.
Qancha ertak, fojialar
Minoradan boshlanar.

Qariyb ming yil yashamoqda,
Gard qo'nmagan toshiga.
Qaramoqchi bo'lsang unga –
Do'pping tushar boshingdan.
O'ymakorlik naqshlari
Diqqatingni tortadi.
O'tib qolsam yonidan
Mehrimg tag'in ortadi...

Safar Barnoyev



Lug'at

qoq o'rtasida – в центре
boqmoq – смотреть, глядеть
fojia – трагедия

qariyb – почти
o'ymakorlik – резьба
do'ppi – тюбетейка



3- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zbekistonning qanday tarixiy shaharlarini bilasiz?
2. O'zingiz ko'rgan yoki eshitgan tarixiy obida haqida so'zlab bering.
3. Qaysi tarixiy shahar va obidalarni ko'rmagansiz? Shu haqda gaplar tuzing.
4. Sizningcha, tarixiy obidalarga qanday munosabatda bo'lish kerak?



Uyga vazifa. „Minora“ she'rini yod oling.



5- DARS



1- mashq. O'qing. Uni o'zingiz bilgan ma'lumotlar bilan og'zaki to'ldiring.

Nimasi ko'p Toshkentning?
Suvi, soyi, soyasi...
Toshkentga ixlosmandning
Tugamas hikoyasi!..
Nimalar ko'p Toshkentda?

Oshlar, ishlar, kishilar,
 Sozanda-yu pazanda,
 Ishchilar, ishboshilar.
 Nima ko'rding Toshkentda?
 Mevalarning aslini,
 Doim quyosh faslini ...

M. Shayxzoda



Lug'at

nimasi ko'p? – чего много?

ixlosmand – поклонник;
 приверженец

sozanda – музыкант

pazanda – искусный
 повар, кулинар



1-topshiriq. Berilgan ramziy belgilardan foydalanib, o'qituv-chingiz yordamida shahringiz madaniy-maishiy obyektlarining taxminiy ro'yxatini tuzing.



M – metro



M – muzey



T – teatr



X – xiyobon



M – maydon



K – kutubxona

Mustaqil ish. Shahringizning madaniy-maishiy obyektlari taxminiy ro'yxati asosida tayanch so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, shahringizni tanishtiring.

Tayanch so'z va so'z birikmalari: shahar bo'ylab sayohat, bayramga tayyorgarlik, Navro'z sayillari, zamonaviy binolar, muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, katta taassurot.



2- mashq. Savollarga javob yozing.

REGISTON

Samarqand tarixiy obidalari bilan dunyoga tanilgan. Bu shaharda xalqimiz tarixi, madaniyatidan darak beruvchi ko'plab obidalar bor. Ana shunday obidalardan biri Registon majmuasidir. Registon – ko'hna Samarqandning bosh maydoni. Bu maydonda Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari joylashgan.

Ulug'bek madrasasi O'rta Osiyoning eng yirik o'quv yurti bo'lgan. Ulug'bek madrasasi qarshisida Sherdor madrasasi joylashgan. Unda o'n ikkita yulduz sher shaklida tasvirlangan. Shuning uchun bu madrasa Sherdor deb atalgan.

Tillakori madrasasiga oltin bezaklar ishlatilganligi uchun shunday nom berilgan.

Samarqandning shimolida Shohi Zinda obidasi joylashgan. Samarqandga borsangiz, bunday go'zal obidalarning ko'pini ko'rasiz.



Lug'at

tasvirlangan – здесь: изображён

majmua – комплекс

bezak – украшение

maqbara – мавзолей

1. Samarqandning qaysi obidalarini bilasiz?
2. Registon maydonida qanday madrasalar joylashgan?
3. Sherdor madrasasining nomi nimani bildiradi?
4. *Obida, madrasa, tarixiy* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.



2-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollar tuzing.

ICHAN QAL'A

Xiva Markaziy Osiyodagi yagona muzey-shahar hisoblanadi. Xiva arxitekturasi XVIII asrning oxiridan XX asrning boshlarigacha shakllangan.

Uning eng qadimgi yodgorligi Ichan qal'adir. Ichan qal'a O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik hisoblanadi. Ichan qal'aga to'rt darvozadan kirilgan. Bular: „Bog'cha“, „Polvon“, „Tosh“, „Ota“ darvozalaridir. Xorazm xalq me'morligining ajoyib obidalari: madrasa, masjid, saroy va minoralar asosan Ichan qal'ada joylashgan.

Xiva shahrida zamonaviy binolar ham qurilmoqda.



Lug'at

yagona – единственный
shakllanmoq – формироваться

asr – век
masjid – мечеть



3-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

Viloyatlar qator-qator,
Har birining o'z zavqi bor.
Buxoro-yu Samarqand bu,
Farg'ona – jonga monand bu,
Toshkent – yurakka payvand bu,
Namanganim – tili qandim,
Andijon – ko'ksi balandim,
Qoraqalpoq, Surxonimdir,
Baraka dasturxonimdir.
Qarshi, Jizzax, Xorazm bu,
Guliston – gul orazim bu,
Bir-biridan ziyodimsan,
O'zbekiston – diyorimsan!

Jumaniyoz Jabborov



Lug'at

monand – похожий, подобный
payvand – неразрывно
связанный

ziyod – больше, лучше
oraz – облик



Uyga vazifa. Borgan shaharlaringiz haqida kichik hikoya tuzing.

XIII mavzu: ONAJONLAR BAYRAMI

(Sifat soʻz turkumi. Rang-tus bildiruvchi sifatlarning qoʻllanishi)




1- DARS



1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring. Tuzgan gaplaringizda oq, pushti, sariq rang-tus bildiruvchi sifatlar ishtirok etsin.



- Atrof juda chiroyli-ya? Men bahorni yaxshi koʻraman.
- Men ham yaxshi koʻraman. Yomgʻirdan keyin osmon koʻm-koʻk boʻlib, yam-yashil barglar yanada kattalashib qolganga oʻxshaydi-ya?
- Voy, turnalar uchib kelyapti, qara!
- Ha, bir, ikki..., yigirma, juda koʻp ekan-ku! Uzoqlashgan sari qora nuqtaga aylanib qolyapti. Koʻryapsanmi?
- Ha, koʻryapman. Bugun maktab bogʻida hashar ekan. Eshitdingmi?
- Ha, eshitdim. Hasharga kechikmaslik uchun uyga tezroq borish kerak.
- Unda yugurdik. Kim birinchi?
- Bir, ikki, uch, uchdan qolgan puch.

 **1- mashq.** Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

Bahor keldi. Daraxtlar ... libosga burkandi. Dalada ish Polizlarda ... ishlari boshlab yuborildi. Dalada dehqonlarga hasharchilar yordam Traktorning gurullagan ... eshitilyapti. Dehqonlar hosil mo'l bo'lishi uchun tinmay

Foydalanish uchun so'zlar: boshlandi, ovozi, yam-yashil, berishmoqda, ekin-tikin, mehnat qilyaptilar.

 **2- topshiriq.** Savollarga og'zaki javob bering.

1. Bahor kelishi bilan tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
2. Dala va polizlarda qanday ishlar boshlanadi?
3. Dehqonlar qanday mehnat qiladilar?
4. Bahor faslida siz ham obodonlashtirish ishlarida qatnashasizmi?



Lug'at

o'zgarish – изменение

dehqon – дехканин


poliz – бахча

obodonlashtirish –
благоустройство



Bilib oling!

Predmetning belgisini bildirib, *qanday? qanaqa? qaysi?* so'roqlaridan biriga javob bo'lgan so'zlar **sifat** deyiladi. Masalan: *kichkina, yashil, yozgi.*

 **2- mashq.** Sifat qatnashgan gaplarni ko'chiring.

1. Mart, aprel, may – bahor oylari.
2. Mart oyining o'rtalarida atrof yam-yashil tusga kiradi.
3. Bodom, o'rik daraxtlari och pushti rangli gullari bilan tabiatni bezatadi.
4. Qir va adirlar qip-qizil lola bilan qoplanadi.
5. Oppoq qor baland tog'larning cho'qqisidagina qoladi.

Mustaqil ish. O'qituvchingiz yordamida bahor yomg'iridan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalak ranglarini sanang.



Uyga vazifa. Rang-tus bildiruvchi sifatlar ishtirokida 4 ta gap tuzing.



2- DARS



1- topshiriq. O'qing. Suhbatni davom ettiring.

- Nodir, sinfimiz qizlarini bayram bilan qanday tabriklaymiz?
- Bu haqda ko'pchilik bo'lib o'ylash kerak.
- To'g'ri, darsdan keyin hamma bolalar bilan sport maydonida uchrashamiz.
- Yaxshi. Menda bir taklif bor. Bugun ikkinchi mart. Sakkizinchi mart – dam olish kuni. Hammamiz baravar kirishamiz. Vazifalarni to'g'ri taqsimlasak, yettinchigacha chiroyli tadbir tayyorlashimiz mumkin.
- Qoyil. Zo'r fikr. Qani, qolgan bolalar nima deyishar ekan?
- ...



Bilib oling!

Shaxs yoki narsalarning rang-tusini ifodalashda *oq, qora, yashil, ko'k, sariq, qizil, jigarrang, kulrang* kabi so'zlar faol qo'llanadi. Bunday so'zlar **qanday?** so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: *yashil (qanday?) yaylov. Qizil (qanday?) lolalar ochildi. Kitobni jigarrang javonga qo'ydim.*



Fonetik mashq

qizil

oq

sariq

qip-qizil

oppoq

sap-sariq

qirmizi

yashil

havorang

jigarrang

kulrang

safsarrang



2-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Savollarga javob yozing.

TABRIK

Sinfimiz o'g'il bolalari birgalikda 8-mart bayramiga ajoyib tabrik rejasini tuzdik. Bu sinf rahbarimizdan ham, qizlardan ham sir tutildi. 6-mart kuni darsdan keyin hamma bolalar sinfda qoladi. Sinfni oq, pushti, binafsha rangli gullar bilan bezatamiz. Doskaga qizil, sariq, yashil, moviy rangli bo'r bilan tabriknoma yozamiz. Devoriy gazeta tayyorlaymiz. 7-mart kuni ertalab har bir qizga bittadan gul va tabriknoma beramiz.



Savollar

1. Nima uchun bayram rejasini tuzishda qizlar qatnashmadilar?
2. Reja bo'yicha nimalar amalga oshiriladi?
3. Sizing sinfingizda bu bayramni o'tkazish qanday rejalashtirilgan?



Lug'at

ajoyib – удивительный,
чудесный
reja – план

rangli bo'r – цветной мелок
devoriy gazeta – стенгазета



1-mashq. Savollarga rang-tus bildiruvchi so'zlar ishtirokida javob yozing.

1. – Aytolmaysizmi, Azizlarning eshigi qaysi?
–
2. – Zumradga atalgan sovg'a qaysi sandiqda edi?
–
3. – Ko'k somsa yeysizmi yoki qovoq somsa?
– Menga
4. – Stoldagi yashil olmalar nordon ekanmi?
– Yo'q,



2- mashq. Nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos keladigan sifatlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.

Sinfdozlarim bilan „Bahor guldastasi“ tanloviga tayyorlanaymiz. Guldastamiz faqat ... yoki ... guldan iborat bo'lmaydi. Biz dala gullari va madaniylashtirilgan gullarni birlashtiramiz. Bu guldasta yasash uchun boychechak, chuchmoma, ... lola, ... atirgul, chinnigul kerak. Shunda har birimiz ... guldasta yasashga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Mustaqil ish. Guruhlarga bo'linib, bahorda issiq o'lkalardan uchib keladigan qushlardan biri haqida og'zaki ma'lumot tayyorlang. Ma'lumotingizda sifatlardan foydalaning.



Uyga vazifa. Bahorgi ishlar haqida kichik hikoya yozing.



3- DARS



1- topshiriq. Suhbatni o'qing, o'zingiz ham shu kabi suhbat matni tuzing.

- Komila, iltimos, ertaga men bilan birga navbatchilik qiling.
- Nima uchun? Ertaga Nigora sen bilan navbatchilik qilishi kerak emasmi?
- Ha, ertaga Nigora bilan navbatchilik qilishimiz kerak edi. Ertaga Nigoralarning uyiga mehmon kelar ekan. Onasiga yordam berish uchun darsdan keyin tezda uyiga borishi kerakligini aytdi.
- Mayli, roziman. Nigoraoning onasi Mehribonlik uyida ishlaydilar. Ishdan charchab qaytadilar. Ularga yordam berish kerak.
- Unday bo'lsa, sinfdagi ishlarni tezda bajarib, ularnikiga boramiz.
- Juda yaxshi taklif. Buvijonim: „Ko'pdan ish qochib qutulmas“, – deydilar.



Bilib oling!

-mtir (-imtir) qo'shimchasi rang belgisining me'yoridan ozligini, rang darajasining pastligini ifodalaydi: *oqimtir, qoramtir* kabi. **-ish** qo'shimchasi ham rangni ozaytirib ko'rsatadi va rangni ifodalovchi so'zlargagina qo'shiladi: *ko'kish, sarg'ish, qizg'ish* kabi.



Fonetik mashq

ko'k	sariq	ko'kish	sarg'ish
oq	qizil	oqish	qizg'ish



1- mashq. Qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring va ular asosida „Bahor manzaralari“ nomli matn tuzing.

1. Bahor keldi va bog'lar (*ko'k, yashil*) rangga kirdi. 2. Qirlarda (*oq, qizil*) lolaqizg'aldoqlar ochildi. 3. O'rik shoxlari (*oq, pushti*) rangli gullarga burkandi. 4. Gilos daraxti (*sariq, oppoq*) guldastaga aylandi. 5. Olma shoxlarida (*qoramtir, och qizil*) gullar paydo bo'ldi.



Muomala odobi

Istak bildirish, tabriklash:

- | | |
|-----------------|-------------------|
| – Tabriklayman. | istayman |
| – Qutlayman. | chin dildan |
| – ... tilayman. | qalbdan, yurakdan |



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

MEHRIBON QUYOSH

Bahor keldi sevinib,
Bulut to'kdi duv-duv yosh.
Mehri bilan chulg'adi
Zaminni bobo Quyosh.

Keyin kumush bulutga
– Ko‘z yoshingni artib ol,
Degandayin jilmayib,
Tutdi kamalak – ro‘mol!

Abdurahmon Akbar



Lug‘at






sevinmoq – радоваться
mehr – *здесь*: любовь
bobo **Quyosh** – дедушка
Солнце

zamin – земля
jilmaymoq – улыбаться
kamalak – радуга

Mustaqil ish.

1. Guruhlararo „Assalom, bahor!“ mavzusida eng ko‘p sifat qatnashgan matn bo‘yicha musobaqa tashkil qiling.
2. *Ko‘kat, yalpiz, ismaloq, sumalak, vitaminlarga boy, termoq, tayyorlamoq* so‘zlarini qatnashtirib, „Bahor taomlari“ mavzusida suhbat matni tuzing.

2- mashq. Qaysi rang qanday nomlanadi?

 qizil  siyohrang  pushti
 sariq  kulrang



Uyga vazifa. „Mehribon quyosh“ she‘rini yod oling.



4- DARS



1- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Savol va topshiriqlarni bajaring.

MENING ONAM HAMMADAN CHIROYLI

Uzoq shaharlardan biridagi katta, shovqinli bozorda bir qizcha yo‘qolib qoldi. Qizcha baland ovoz bilan yig‘lar va to‘xtovsiz:

– Oyi! Oyi! Oyijooon! – deya qichqirardi. Uning atrofiga odamlar to‘planib, kimdir qizchaga savol berdi:

– Onang qanday? Uning ko‘rinishi qanday?

Qizcha yig‘lashdan to‘xtab, qo‘llari bilan yuzidagi ko‘z yoshlarini artib:

– Onam juda chiroyli! – deya javob berdi.

Shundan so‘ng odamlar qizcha bilan birga uning onasini izlay boshladilar. Ular ko‘chadagi chiroyli ayollarga e‘tibor berib qaray boshladilar. Qizchanning onasini qidirib, butun bozorni aylanib chiqdilar. Oradan ancha vaqt o‘tsa ham qizchanning onasini topa olmadilar.

Kutilmaganda qizcha bir ayolning bag‘riga o‘zini otdi. Ayol qizchani bag‘riga bosdi. Ko‘zidagi xursandchilik yoshlari bilan qizcha baland ovozda: „Onajonim, topilganingiz juda yaxshi bo‘ldi! Hech qachon meni tashlab ketmang-da! Siz dunyodagi eng chiroyli onasiz!“ – deya qichqirdi.

Qizchanning onasi chiroyli emas edi. Ammo to‘planganlarning hech biri uning bu so‘zlarini inkor eta olmadi.

Vladimir Semizarov



Savol va topshiriqlar

1. Matndan sifatlarni topib, daftaringizga ko‘chiring.
2. Siz ham onangiz, opangiz yoki buvingizga „Tabriknoma“ yozing.
3. Nima uchun qizchaga hech kim e‘tiroz bildirmadi? Siz nima deb o‘ylaysiz?



1- mashq. „Mening onam hammadan chiroyli“ matnidan foydalanib, gaplarni to‘ldiring.

1. Uning atrofiga odamlar to‘planib, kimdir qizchaga savol berdi...
2. Shundan so‘ng odamlar qizcha bilan birga...
3. ... qizchanning onasini topa olmadilar.
4. Kutilmaganda qizcha...
5. Onajonim...

Mustaqil ish. Onajoningiz haqida 4–6 ta gapdan iborat yozma matn tuzing.

   **2-topshiriq.** O'qing. Tinglang. So'zlang.

ONAJONLAR BAYRAMI

Bahor fasli azaldan
Bayramlarga boy fasl.
Yil oylari husniga
Berguvchi chiroy fasl.

Nega shunday ekanin
Hammamiz ham bilamiz.
Shu faslda Onalar
Kunin bayram qilamiz.

Bahorning bu bayrami
Olamni ham keng qilar.
Onajonlar qadrini
Quyosh bilan teng qilar.

Dildora Omonova



Uyga vazifa. Bayram kunlari onangizga qanday yordam berganligingiz haqida 4–5 gapdan iborat bog'lanishli matn tuzing.



5- DARS



1-topshiriq. O'qing. Davom ettiring.

- Alina, bu ta'tilda ham kutubxonaga birga boramizmi?
- Ha, albatta. Hamida, sen qanday kitoblarni olishni rejalashtirding?
- Men O'tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari“ asarini olmoqchiman. Sen-chi?
- Turon malikalari haqidagi kitobni o'qimoqchiman. „Dunyoning ishlari“ asarini o'qiganman. Ona haqida yozilgan ajoyib asar.
-

1-mashq. Berilgan so'zlardan foydalanib, rasimga o'zingiz rang bering.

Qop-qora, qizil, yashil, ko'm-ko'k, pushti, qizg'ish.

Namuna: Qizchanning uzun sochlari qop-qora.



Bilasizmi?

Ilyos Muslim o'zbek bolalar shoiri. Uning bolalarga atalgan mazmunli, tushunarli, ixcham, sodda she'rlari sizga albatta yoqadi.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga javob bering.

BIRINCHI SOVG'A

Halima bog'ga kirdi
Tong payti shosha-pisha.
Ilk bahor gulin terdi,
Nomi – jajji gunafsha.

Haqiqatan, bog' husnin
Shu gul bezab turgandi.
Sevindi ko'rib tusin,
Ochilib qulf urgandi.

Halima gulni terib,
Qayga olib ketmoqchi?
Chin dildan sovg'a berib,
Kimni xursand etmoqchi?

Uyga kelganda bildik,
Quvnagan sho'x ko'zidan.
Gulni sovg'a qilibdi
Oyisiga o'zidan.

Ilyos Muslim



Lug'at

sovg'a – подарок
shosha-pisha – второпях
gunafsha – фиалка

o'zidan – от себя
jajji – маленький

1. Nima uchun she'r „Birinci sovg'a“ deb nomlangan?
2. Siz nima deb o'ylaysiz, Halimaning sovg'asi oyisiga yoqdimi?

Mustaqil ish. Rang-tusni bildiruvchi sifatlarga misollar keltiring va so'z birikmalari tuzing.

Namuna: sariq – sariq limon.



Uyga vazifa. „Birinci sovg'a“ she'rini yod oling.

XIV mavzu: NAVRO'Z

(Maza-ta'm bildiruvchi sifatlarning qo'llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



- Bugun mahallamiz guzarida sumalak sayli bo'lar ekan.
- Sumalak saylida nimalar bo'ladi? Bilasanmi?

– Ha, u yerda mahalladoshlar bilan birgalikda Navro‘z bayramini nishonlaymiz. Har xil tanlovlar bo‘ladi. Biz oilamiz bilan bayramda ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko‘rdik.

– Bayram munosabati bilan o‘tkaziladigan tanlovda qatnashasizlarmi?

– Ha, biz oilamiz bilan „Eng faol oila“ tanlovda qatnashmoqchimiz.

– Qoyil! Dadang bilan oying ham qatnashadilar-a?

– Hatto buvijonim ham qatnashib, tanlov shartiga ko‘ra xalq qo‘shiqalaridan birini aytib beradilar...



Bilib oling!

Shirin, mazali, totli, chuchuk, achchiq, nordon, sho‘r, bemaza kabi so‘zlar narsalarning maza-ta‘mini ifodalaydi. Masalan: *Buvim nordon olmani yaxshi ko‘radilar. Bozordan shirin anor oldik.*



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga rang-tus, maza-ta‘m bildiruvchi sifatlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

...
... >>> murabbo
...

...
... >>> olma
...



2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Savol va topshiriqlarni bajaring.

Navro‘z bayrami O‘zbekistonda keng nishonlanadi. Bizning maktabimizda Navro‘zga bag‘ishlangan tadbir bo‘ladi. Tadbirda sinfimiz o‘quvchilari faol qatnashdilar. Ayniqsa, Zuhra ijro etgan raqs ko‘pchilikka manzur bo‘ldi...



Savol va topshiriqlar

1. Matnни davom ettiring.
2. Navro‘zda qanday taomlar tayyorlanadi?
3. Navro‘z dasturxonining bezatilishi haqida gapirib bering.



Fonetik mashq

mazali	shirin	bemaza
lazzatli	chuchuk	sersuv
achchiq	nordon	taxir



2- mashq. Maza-ta'm bildiruvchi so'zlarni ajratib ko'chiring.

Uzum shirin, chuchuk, nordon, sersuv bo'ladi. Shirin uzumdan tayyorlangan sharbat juda mazali bo'ladi.

Qulupnay sersuv meva. Uning mevasi nordon va chuchuk bo'ladi. Ba'zan bemaza qulupnay ham uchraydi.

Smorodina – sersuv va C vitaminiga boy. Shuning uchun mazasi nordon bo'ladi. Shaftoli ham sersuv meva. Uning mazasi shirin bo'ladi. Tut ikki xil bo'ladi: shirin va nordon.



3- mashq. Savollar o'rnini mos so'zlar bilan to'ldiring.

1. (*Qanday?*) limonning mazasi (*qanday?*) bo'ladi.
2. Menga (*qanday?*), (*qanday?*) anor yoqadi.
3. Shaftolining (*qanday?*) rangli mevasi (*qanday?*) bo'ladi.
4. Rayhonlar orasiga (*qanday?*) garmdori ham ekdik.
5. Bog'imizda (*qanday?*), (*qanday?*) va (*qanday?*) gullar ochildi.

Mustaqil ish. Yetti xil maza-ta'mni ifodalovchi so'zlardan foydalanib, „Navro'z taomlari“ mavzusida bog'lanishli matn tuzing.



Uyga vazifa. Berilgan sifatlar ishtirokida gaplar tuzing: *mazali, achchiq, taxir, suvli, nordon.*



2- DARS



1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

- Salom, Nigora opa!
- Salom, Umida! Yaxshimisan? O'qishlaring yaxshimi?
- Rahmat. Hammasi joyida.

– Umida, ertaga men bilan buvimlarnikiga borasan-a? Esingdan chiqmasin.

– Ha, albatta! Birgalikda borib Navro‘z bayrami bilan tabriklasak, juda xursand bo‘ladilar.

– Kechqurun men tort pishiraman. Sen menga yordam berasan.

– Men mehnat darsida rangli qog‘ozlar bilan kompozitsiya tayyorlashni o‘rgandim. Buvim uchun chiroyli tabriknoma tayyorlayman...



2- topshiriq. Namunadan foydalanib, tabriknoma matnini tuzing.

Namuna:

TABRIKNOMA

Aziz buvijon!

Sizni Navro‘z bayrami bilan tabriklayman. Sizga sog‘liq va uzoq umr tilayman. Baxtimizga doimo sog‘ bo‘ling.

Sevimli nabirangiz Aziz.



Muomala odobi

Tabriklash va istakka javob:

- Rahmat.
- Tabrik uchun rahmat.
- Tashakkur.
- Sizga ham tilayman.
- Minnatdorman.
- Xursand bo‘ldim.



Yodda tuting!

Maza-ta‘m bildiruvchi so‘zlar **-li**, **-siz** qo‘shimchalari bilan ham hosil bo‘ladi. Masalan: *mazali–mzasiz, tuzli–tuzsiz* kabi.



Fonetik mashq

mazali	mazasiz	tuzli	tuzsiz
shirali	shirasiz	suvli	suvsiz

1- mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini aniqlang.

1. Yurtimizda **Navro'z** bayramiga qizg'in tayyorgarlik ko'rilyapti. 2. Bayram konserti uchun **turli millat** raqslaridan tashkil topgan sahna tayyorladik. 3. Maktabimizda bahorgi **obodonlashtirish** ishlari boshlandi. 4. Sinf rahbarimiz bilan **lola sayliga** ketyapmiz.



2- mashq. Berilgan so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Navro'z, bayram, sumalak, bayram taomlari, Navro'z udumlari, ko'k somsa, osh tayyorlamoq.

Namuna: Maktabda bayram taomlari tanlovi bo'ldi.

Mustaqil ish. Nima sababdan ko'k somsa, ko'k chuchvara, sumalak bahorda tayyorlanadi? Shu mavzuda suhbat tashkil qiling.



3- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

YALPIZ

Yalpiz nam yerlarda, ariq bo'ylarida, tog' etaklarida, adirlarda o'sadi. U ko'p yillik o'simlik hisoblanadi. Iyun-avgust oylarida ochiladigan gullar o'zida halqasimon to'p gulni tashkil etadi. Mevasi tuxumsimon silliq, yong'oqchalarga o'xshaydi. O'simlik gullashdan oldin yoki gullaganda yer usti qismidan o'rib olinadi va soya yerda quritiladi. Yalpiz tarkibida efir moyi va boshqa bir necha foydali moddalar uchraydi.



Lug'at

silliq – гладкий

gullamoq – цвести, расцвести

yong'oq – орех

modda – вещество



Uyga vazifa. Bahor bayramlaridan biri bilan tabriklab, sinfdoshingizga tabriknoma yozing.



3- DARS



1- topshiriq. O'qing. Davom ettiring.

- Bunyod, sen varrak yasashni bilasanmi?
- Yo'q, bilmayman. Sen-chi?
- Men ham bilmayman. Agar o'rganishni xohlasang yakshanba kuni nonushtadan so'ng biznikiga kel. Tog'am kelib, varrak yasashni o'rgatadi.
- Varrak yasashni o'rganishni juda xohlayman, ammo oyimdan ruxsat so'rashim kerak. Men senga kechroq telefon qilaman.
- Keladigan bo'lsang...



1- mashq. Berilgan so'zlar ishtirokida „Hasharda“ mavzusida gaplar tuzing va ularni ona tilingizga tarjima qiling.

Faol, mevali daraxt, oq, qizil, manzarali, shirin.

Namuna: Mahalla hasharida har birimiz faol qatnashdik.



Bilib oling!

Predmet maza-ta'mining qanday darajadiligini ifodalashda sifatlar oldiga *juda, g'oyat, sal, picha, biroz* kabi so'zlar qo'yiladi. So'zlar tarkibidagi unli tovushni cho'zib yoki urg'u bilan talaffuz qilganda ham maza-ta'm ma'nosi kuchayadi.

Qiyoslang:

Mazali taom – juda mazali taom

Nordon uzum – sal nordon uzum

Shirin olma – biroz shirin olma



Fonetik mashq

mazali
lazzatli

shirin
chuchuk

achchiq
nordon



2- topshiriq. Qatorlardagi berilgan soʻzlar ishtirokida ikkitadan gap tuzing.

1. Boshlanib ketadi, dala, polizda, ekin ekish, qizib, bahorda, ishlari, tozalamoq.

2. Qaldirgʻochlar, issiq, oʻlkadan, keladi, qaytib.

3. Mevali, manzarali, bogʻlar, koʻchalarda, koʻchatlar, daraxt, oʻtqaziladi.

4. Onalar, tayyorlaydilar, buvilar, qozonlarda, katta, va, sumalak, mazali, halim, koʻk somsa.

Namuna: Bahor kelishi bilan qaldirgʻochlar uchib keldi.



3- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang.

NAVROʻZ

Yomgʻir savalar mayin,
Maysa yashnar kun sayin.
Men ham endi oʻynayin,
Buvijonim, bu Navroʻz!

Marjon taqdi majnuntol,
Arilar keltirar bol.
Lola peshvoz qaddi dol,
Buvijonim, bu Navroʻz!

Olam gul ichra yashnar,
Ming bir tovusga oʻxshar.
Yashil poyandoz toʻshar,
Buvijonim, bu Navroʻz!

Yuring, chiqay yetaklab,
Gullar tutay etaklab,
Chechaklarga bosing lab,
Buvijonim, bu Navroʻz!

Oʻroq Saidov



Lug'at

maysa – трава
mayin – нежный

majnuntol – ива
savalamoq – *здесь*: хлестать

Mustaqil ish. „Navro‘z“ she‘ri matnidan bahor tabiatiga xos 4 ta xususiyatni toping.



Uyga vazifa. Bahor bayramlarini tartib bilan yozib chiqing.





4- DARS



1- topshiriq. O‘qing. Davom ettiring.

- Barno, ertaga nima ishlarni qilishni rejalashtirgansan?
- Ertaga buvijonim bilan Mustaqillik maydoni yonidagi Motamsaro ona haykali yodgorlik majmuasiga bormoqchimiz.
- Ertaga bayram-ku! Odatda bayram kunlari buvijoningni ko‘rish uchun uyingizga mehmonlar kelishar edi.
- Buvijonim har doim shu kuni, albatta, Motamsaro ona haykali yodgorligi majmuasiga boradilar. Bilasan-ku, 9- may – Xotira va qadrlash kuni...



1- mashq. Ajratib berilgan so‘zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

Bugun uyimizga mehmon keldi. Stolning ustiga **oq** dasturxon yozdik. Dasturxonni **shirin** mevalar, pishiriqlar bilan

bezatdik. Onam **mazali** palov damladilar. Palovdan keyin **ko'k** choy ichdik.



2- mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.

- | | |
|---|---|
| 1. Daryo suvi sovuq bo'ladi.
Tog' daryosining suvi | juda shirin, juda sovuq,
sal sovuq |
| 2. Limonli choy nordon bo'ladi. Limon sharbati | biroz sho'r, sal taxir,
g'oyat nordon |
| 3. Uzum – shirin meva.
Uzum mayizi | biroz foydali, sal taxir,
juda shirin |
| 4. Asal shirin bo'ladi.
Tabiiy asal | juda foydali, sal nordon,
g'oyat achchiq |

Namuna: Asal shirin bo'ladi. Tabiiy asal juda foydali.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga javob bering.

XOTIRA MUQADDAS

Toshkentdagi Xotira maydonida „Motamsaro ona“ haykali o'rnatilgan. Yodgorlik majmuasida xotira lavhalari bor. Ularga ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlari yozilgan.

Toshkentning Yunusobod tumanida „Shahidlar xotirasi“ xiyoboni barpo etilgan. Xiyobonda muzey ham bor. Muzey avlodlarga qatag'on yillari qurboni bo'lgan ajdodlar haqida hikoya qiladi. Xotira farzandlarda insoniylik xislatlarini tarbiyalaydi. Ajdodlarni eslash, xotirlash biz uchun muqaddas burch.



Savollar

1. Nima uchun xotira muqaddas?
2. Sizing oilangizda „Xotira va qadrlash kuni“ qanday o'tadi?
3. „Xotira va qadrlash kuni“ haqida o'zingiz bilgan ma'lumotlarni sinfdoshlaringizga gapirib bering.



Lug'at

xotira – память
qurbon – жертва

qatag'on – репрессия
ajdodlar – предки



3-topshiriq. O'qing. Tinglang. Savollarga javob bering.

SUMALAGIM-SUMALAGIM

Bahor kelsa
Sog'lig'imga
Eng keragim –
Sumalagim-sumalagim.

Bir yalasam
Kelaverar
O'n yalagim,
Sumalagim-sumalagim.

Sumalakdan
Kular emish
Ko'p tilagim,
Sumalagim-sumalagim.

Po'lat Mo'min



Savollar

1. Sumalak qanday masalliqlardan tayyorlanadi?
2. Sumalak qanday taom?
3. O'zingiz qatnashgan sumalak sayli haqida gapirib bering.



Lug'at

sog'liq – здоровье
yalamoq – лизать, облизнуть

tilagim – моё желание
sumalak – сумалаяк

Mustaqil ish.

1. „Bahor bayramlari“ mavzusida og'zaki hikoya qiling.
2. Sifatlarni ma'no jihatidan ajratuvchi jadval tuzing. Ularning har biriga 5 tadan misol yozing.



Uyga vazifa. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar ishtirokida 4 ta gap tuzing.



5- DARS



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. Davom ettiring.

- Zumrad, bug'doyimiz unib chiqibdi. Buvijonim ayt-dilar, ikki-uch kundan keyin sumalak tayyorlar ekanmiz. Shu kuni biznikiga kelasanmi?
- Albatta. Agar buvijoning qarshi bo'lmasalar sinfdoshlar bilan birgalikda sizlarnikiga yordamga boramiz.
- Zo'r fikr aytding. Buvijonim: „G'ayratlining yuragi qaynar“, – deydilar...



2- topshiriq. O'qing. Savollarga javob bering.

SUMALAK

(Rivoyat)

Bir dehqon urug'likka olib qo'ygan bug'doy donini suvga solib ivitib qo'yibdi. Lekin vaqtida uni dalaga eka olmabdi. Urug'lik bug'doy bir necha kun davomida iliq havoda turibdi. Biroq birdan havo aynib, yomg'ir yog'a boshlabdi. Bug'doy ivitilgan idishda nish urib, o'sa boshlabdi.

Ob-havo ochilavermabdi va bug'doy ancha bo'y cho'zib qolibdi. Dehqonning bolalari och ekan. Nishlab ketgan bug'doy uvol bo'lmasligi uchun dehqon kampiriga:

– Bundan biror narsa pishir, baribir endi ekib bo'lmaydi, – debdi.

Kampir bug'doyni qozonga solibdi va qaynataveribdi-qaynataveribdi. Charchab qolgan kampir uxlamaslikka urinibdi, biroq bo'lmabdi. U har ehtimolga qarshi qozonning qopqog'ini yopibdi va uxlagani yotibdi.

Ertalab qozondan xabar olgani boribdi. Kampir qopqoqni ochgan ekan, ajoyib hid dimog'iga urilibdi. Yalab ko'rsa, ta'mi juda mazali ekan.

Sumalak pishirish shunday boshlangan ekan.

„Durdona“ kitobidan



Savollar

1. Dehqon nima maqsadda bug'doyni ivitib qo'ygan edi?
2. Kampir nima uchun nish urgan bug'doyni pishirmoqchi bo'ldi?
3. Sumalak qanday tayyor bo'libdi?



Lug'at

urug'lik – семена

bug'doy – пшеница

kampir – старуха, старушка

ivitmoq – замачивать

dimoqqa urmoq – бить
в нос (о запахе)

uvol – ущерб, урон

charchamoq – уставать,
утомляться

qopqoq – крышка

nish urmoq – проращать

Mustaqil ish.

1. „Sumalagim-sumalagim“ she'ri va „Sumalak“ rivoyatidan foydalanib, „Sumalak sayli“ mavzusida og'zaki matn tuzing.
2. „Kimning matnida eng ko'p maza-ta'm bildiruvchi sifatlar bor?“ tanlovini tashkil qiling.



3- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

BAHOR HADYASI

Bugun ertalab meni
Bahor yeli uyg'otdi.
Qulog'imga shivirlab,
„Tura qol“, deb so'z qotdi.
Sevinch toshib yurakda
Chopib chiqdim dalaga.
Qarasam, qir-adirlar
Burkangan gul-lolaga.

Meni qarshilab gullar
Go'yo raqsga tushardi.
Qushlar chuldirab ko'kda
Qo'shiq aytib uchardi.
Quvonchimdan chopqillab,
Gulzor oralab ketdim.
Quchoq-quchoq gul terib,
Do'stlarga hadya etdim.

Qambar Ota



Savollar

1. Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
2. O'zingiz bilgan bahor gullarining nomini daftaringizga yozing.
3. Predmetning maza-ta'mini ifodalashda sifatlar oldiga qanday so'zlar qo'yiladi?



Lug'at

yel – ветер

shivirlashmoq – шептать

so'z qotmoq – *здесь:*
сказал

burkanmoq – облачаться,
покрываться

qarshilamoq – встречать

go'yo – как будто, будто

quvonch – радость

quchoq – объятие

hadya etmoq – подарить



Uyga vazifa. „Bahor hadyasi“ she'rini yod oling.

XV mavzu: KITOBLAR OLAMIGA SAYOHAT

(Hajm-o'lchovni bildiruvchi sifatlarning qo'llanishi)



1- DARS



1-topshiriq. Rasmdan foydalanib, „Kitob, mening do'stimsan“ mavzusida 4–5 gapdan iborat matn tuzing.



Foydalanish uchun soʻzlar: Kitob, oʻqimoq, kutubxona, tez-tez, turli, rangli, kutubxonachi, yoqadi, ertaklar, qiziqarli, tarbiya, badiiy.

Namuna: Menga „Oʻzbek xalq ertaklari“ kitobi yoqadi. Unda juda qiziqarli ertaklar jamlangan. Ertaklar bizni yaxshilikka yetaklaydi...



Bilib oling!

Shaxs yoki narsalarning hajm-oʻlchovini ifodalashda quyidagi soʻzlar faol qoʻllanadi: *katta, kichik, uzun, qisqa, tor, keng, enli, ingichka, qalin, tekis, dumaloq, egri, yapaloq* kabi.



1- mashq. Soʻzlarni toʻgʻri joylashtiring va gaplar tuzing.

Hamid, boʻyli, ozgʻin, baland. Bahrom, boʻyli, esa, oʻrta. Shaharda, baland, yangi, qurildi, uylar. Past, boʻyli, dumaloq, bola, Olim, boʻyli, yuzli, oʻrta, dumaloq. Koʻcha, uzun, va, bizning, keng.



Fonetik mashq

Baland	oʻrta	past	keng	tor	uzun
ozgʻin	toʻla	qalin	katta	kichik	qisqa



2- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Soʻzlang. Matn asosida savol va topshiriqlarni bajaring.

KITOB

Oʻtgan zamonda bir podsho vazir-u ulamolarini yoniga chaqiribdi. Podsho ularga: „Dunyoda eng zoʻr, kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi nima?“ – deb savol beribdi. Ulamolar u deyishibdi, bu deyishibdi. Birovi dunyoda eng zoʻr narsa qilich desa, ikkinchisi eng kerakli – non, debdi. Uchinchisi esa hamma narsadan xabar beruvchi narsa – oynayi jahon, debdi.

– Uch kun muhlat beraman, – debdi podsho, hech kimning javobi yoqmaganidan darg‘azab bo‘lib.

Qo‘shni podsholikda ta‘rifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashar ekan. Undan vazirning xabari bor ekan. Vazir podshoning savollariga shu donishmand javob bera olishiga aqli yetibdi va uni izlab topibdi. Unga podshoning savolini aytibdi.

Donishmand hech ikkilanmay: „Kitob, – debdi, – chunki kitob bilim beradi. Dunyodagi eng qudratli narsa esa bilimdir“. Donishmandning javobi podshoga ham ma‘qul tushibdi.



Savol va topshiriqlar

1. Berilgan so‘zlardan foydalanib, matnni davom ettiring: *shoirlar, olimlar, kitob, kutubxona, taklif qilmoq, ochmoq.*
2. Matn asosida savollar tuzing.
3. Siz hayotda eng kerakli narsa deb nimani aytgan bo‘lardingiz?
4. Kitob nima uchun kerak?



Lug‘at

kerakli – необходимый

qilich – меч

birov – кто-то

non – хлеб

ta‘rif – описание

oynayi jahon – зеркальный мир

darg‘azab – быть в ярости

izlab topmoq – найти

chunki – потому что

qudratli – мощный

bilim – знание

ma‘qul – приемлемый




2- mashq. Matndan 4 ta gapni tanlab oling va ularni hajm-o‘lchovni bildiruvchi so‘zlar bilan kengaytiring.

Namuna: Chunki kitob bilim beradi – chunki kichik kitob ham katta bilim beradi.

 **3- topshiriq.** O'qing. Tinglang. Yozing. Yodda saqlang!

Kitobdan olingan ma'lumot televizor, internet va radio-dagi qabul qilingan ma'lumotdan ko'ra ko'proq miyaga ijobiy ta'sir qiladi. Kitob o'qish bola diqqatini bir joyda uzoq vaqt ushlay olish qobiliyatini kuchaytiradi.

 **3- mashq.** Berilgan hikmatli so'zlarni o'qing va daf-taringizga ko'chiring.

1. Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do'stdir. (*B. Gyugo*)
2. Kitob boylik. Lekin sotib olingani emas, o'qilgani. (*Asqad Muxtor*)

Mustaqil ish. Savollarga javob bering.

1. Kitob o'qiyotganingizda nimalarga e'tibor berasiz?
2. O'zingiz o'qigan qaysi kitobni o'rtoqlaringizga o'qish uchun tavsiya qilasiz?



Uyga vazifa. Hajm-o'lchovni bildiruvchi so'zlar ishtirokida 4–5 ta gap tuzing.



2- DARS



1- topshiriq. Rasmdan hamda berilgan so'z va so'z birik-malaridan foydalanib, „Kitob“ mavzusida 4–5 ta gap tuzing.



Kitob, bayram, bir-biridan qiziq, qalin, yupqa, tarix, kitobsiz, o'qib oldim, bahosi tengsiz, cheksiz.



2- topshiriq. Suhbatni davom ettiring.

- Hamid, men kutubxonachi Anna Andreyevna tashkil qilgan „Kitobsevarlar“ to‘garagiga a‘zo bo‘ldim.
- Kutubxonada yig‘ilib kitob o‘qiy sizlarmi?
- Yo‘q! Anna Andreyevna aytganlaridek, biz kitoblarni davolaymiz.
- Kitobni davolash mumkin ekanmi? Kitob qanday kasal bo‘lishi mumkin?
- Sahifalari yirtilgan, chizilgan kitoblarni ko‘rganmisan?
- Unday kitoblar o‘zimizda ham bor.
- Biz ...

Bilasizmi?

2- aprel – Xalqaro bolalar kitobi kuni.



3- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

KITOB DAN YAXSHI DO‘ST YO‘Q

Sizning fikrlash qobiliyatingizni shakllantiruvchi eng yaxshi vosita kitobdir. Kitoblar orqali jamiyatning buyuk iste’dod egalari bilan muloqotda bo‘lasiz. Agar chinakam mehr qo‘ysangiz, kitob sizning eng yaqin do‘stingizga aylanadi.

O‘tkir did, zamonaviy madaniyat egasi bo‘lish katta ish. Keng dunyoqarash va tafakkur qobiliyati insoniyat uchun muhim ahamiyatga egadir. Siz bu xislatlarni faqat kitobdan o‘rganasiz. Kitob bilan muomala sizni kelajakda odamlar bilan jiddiy muloqotga tayyorlaydi. Asar qahramonlari yaqin do‘stlaringizga aylanadi.

Kitobni seving, ular o‘zligingizni anglashga, hayotni his qilishingizga yordam beradi. Kitobga sodiq bo‘ling – u sizni hech qachon aldamaydi. Quvonganingizda hamroh, xafa bo‘lganingizda yupanch bo‘ladi.



Lug‘at

tafakkur – мышление
iste’dod – способность
chinakam – по-настоящему

mehr – любовь
beminnat – без упрёка
fikrlash – размышлять



Savol va topshiriqlar

1. Matn asosida savollar tuzing.
2. Sizningcha, „Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q“, deb nimaga aytamiz?
3. Lug‘atda berilgan so‘zlar yordamida matni tarjima qiling.



Muomala odobi

- E’tiboringiz uchun rahmat!
- Minnatdorman.
- Bu yaxshiligingizni unutmayman.
- Tashakkur.
- Eslatganingiz uchun rahmat.
- Unutmaganingiz uchun rahmat.



1-mashq. Berilgan hajm-o‘lchovni bildiruvchi so‘zlarning qarama-qarshi ma’nodagi juftini toping. Shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi tuzing.

uzun	→	ensiz
qalin	→	ingichka
past	→	qisqa
enli	→	baland
tekis	→	egri



Yodda tuting!

Shaxs va narsa-hodisalarning turli belgi-xususiyatlarini bildiruvchi barcha sifatga oid so‘zlar kabi hajm-o‘lchovni ifodalovchi so‘zlardan oldin belgining darajasini ko‘rsatuvchi *eng, juda, nihoyatda* kabi so‘zlar, **-roq, -gina (-kina, -qina)** qo‘shimchalari qo‘shilib keladi.

Qiyoslang: *uzun* – **juda uzun, uzunroq, kattagina.**



Fonetik mashq

katta	kattaroq	kattagina
kichik	kichikroq	kichkinagina
baland	balandroq	balandgina
qalin	qalinroq	qalingina
ensiz	ensizroq	ensizgina



4- topshiriq. O'qing. Tinglang. Yozing. So'zlang.

Kitob eng sabr-qanoatli, bardoshli, quvnoq birodarimizdir. U har qanday musibatli yoki baxtsizlik damlarda ham bizdan yuz o'girmaydi. (*S. Smayls*)

Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atalgan tortig'idir. (*J. Addison*)

Mustaqil ish. Hajm-o'lchovni bildiruvchi sifatlarni ajrating va ular ishtirokida birikmalar tuzing.

Yosh, ziyrak, keng, unumli, bepoyon, serquyosh, mashhur, shirin, yirik, xushbo'y, dumaloq, ho'l, eski, qisqa, katta, uzun.

Namuna: keng ko'cha, ziyrak o'quvchi, ...



5- topshiriq. O'qing. Tinglang. Hajm-o'lchovni bildiruvchi sifatlarni toping va ma'nosini tushuntiring.

TINCH O'LKAGA KITOB YARASHAR

Yer yuzining qaysi burjida
 Kimlar nega qandayin yashar?
 Tinch-xotirjam o'lkaga qarang,
 Kitob bayramlari yarashar.
 Bir-biridan qiziq kitoblar,
 Qalin-yupqa tuzuk kitoblar,
 Kecha, bugun – tarixim unda,
 Varaqlayman barisi shunda.
 Savol keldi menga nogahon,

„Yashar edim kitobsiz qanday?“
 Cho‘chib tushdim bu o‘ydan hatto,
 Ko‘zimga tor tuyuldi dunyo.
 Birdan quyosh yo‘qolib qoldi,
 Osmon oysiz tund bo‘lib qoldi.
 Zimistonga aylandi hayot,
 Yo‘llarimni yo‘qotdim nahot.
 Ha, kitobsiz ma’ni yo‘q bunda,
 O‘qib dilim yayraydi kunda.
 Kitoblarning bahosi tengsiz,
 O‘qing, boyib ketasiz cheksiz.

Zahro Hasanova



Lug‘at

yer yuzi – земля

zimiston – темнота

varaqlamoq – пролистать

tinch – тихий

qalin-yupqa – толстый

и тонкий

bahosi – стоимость

tengsiz – несравненный



Uyga vazifa. O‘zingiz yoqtirgan shoir yoki yozuvchilardan biri haqida og‘zaki matn tuzing. Tuzgan matningizda hajm-o‘lchovni bildirgan so‘zlar ham ishtirok etsin.



3- DARS



1- topshiriq. O‘qing. Suhbatni davom ettiring.

– Zumrad, qidirgan kitobingni maktab kutubxonasidan topmasang, uni qayerdan qidirasan?

– Juda ham „qiyin savol“ berding. Albatta, elektron kutubxonadan izlayman.

– Sen elektron kutubxonadan foydalanasanmi?

– Ha, elektron kutubxonadan juda ko‘p kitoblarni topish mumkin...



1- mashq. Chap ustunda berilgan mashhur kishilarning asarlarini o'ng ustundan aniqlang va har biriga gap tuzib, daf-taringizga yozing.

Mirzo Ulug'bek		„Xamsa“
Alisher Navoiy		„Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari“
Zahiriddin Muhammad Bobur		„Ziji jadidi Ko'ragoniy“
Aleksandr Sergeyeovich Pushkin		„Boburnoma“
Aleksey Nikolayevich Tolstoy		„Baliqchi va baliq haqida ertak“

Bilasizmi?

Kitob – sehrgar. Kitob dunyoni qayta qurdi. Unda odamzodning aqli mujassam, u kishilik tafakkurining ustuni. Kitobsiz olam yovvoyilar olamidir.

N.A. Morozov



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

BIRINCHI MO'JIZA

Qadim zamonlardan beri odamlar yetti mo'jiza bor deb hisoblashadi. Bular Misr fir'avnlarning ehromlari, Bobilning osma bog'i, ov xudosi Artemida ma'budi, Zevsning haykali, Galikarnas maqbarasi va nihoyat, Nahri Nilda Faras orolidagi mayoqdir. Darhaqiqat, ular benihoya ulug'vor, benihoya noyob va go'zal. Ular yaratilgandan beri necha asrlar o'tdi. Lekin yetti mo'jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga qo'yilgan mangu obida bo'lib kelmoqda. Biroq shunday bo'lsa-da, yana bir mo'jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo'jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi. Bu mo'jiza – kitob. Mo'jiza, mo'jiza bo'lganda ham birinchi mo'jiza.

*Ozod Sharafiddinov,
O'zbekiston qahramoni*



Savol va topshiriqlar

1. Matnda berilgan dunyo mo'jizalarini sanang.
2. Siz ham kitobni mo'jiza deb hisoblaysizmi? Siz nima deb o'ylaysiz?
3. „... yana bir mo'jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo'jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi“, degan fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun?



Lug'at

qadim zamonlardan – с древних времён
yaratilgan – созданный
biroq – хотя
mo'jiza – чудо

yetti mo'jiza – семь чудес
darhaqiqat – действительно
buyuk – великий
muqaddas – святой
ulug'vorligi – великолепие



2- mashq. Hajm-o'lchovni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

1. Dunyoda eng uzoq umr ko'rgan odam Tomas Kari bo'lib, u 207 yil yashagan ekan.
2. „O'zbek tilining izohli lug'ati“dagi juda ham ko'p so'zlarni bilmaymiz.
3. „Ensiklopedik lug'at“larda nihoyatda ko'p ma'lumotlar bor.
4. Rus, ingliz, nemis tillarida gapiradiganlar arab tilida gapiradiganlardan ko'proq.



3- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

KITOB

Bu jahonning ma'nosin
 Bilmoq bo'lsang, yosh o'rtoq,
 Dilda kitob samosin
 Mehr mash'alini yoq.
 Kitob – sehrlı ko'zgu,
 Unda namoyon borliq.
 Olamga boqqan ko'z-ku,
 Iqbolıng unga bog'liq.

Ranglar, ohanglar to'la
 Bu murakkab koinot.
 Bag'rin ochar bir yo'la,
 Sen unda eng ulug' zot.
 Mehnat, yaratish, bilim
 Zavqin dilga solursan.
 Kitob kaliti bilan
 Qo'rg'onlarni olursan.

Jumaniyoz Jabborov



Lugʻat

mashʻal – факел

bilmoq – знать, быть

в курсе дела

boqmoq – смотреть, глядеть

qoʻrgʻon – крепость, укрепленный город

ohang – гармония,
мелодия

ochmoq – открывать,
раскрывать

Mustaqil ish.

1. Oʻzingiz oʻqigan kitoblar roʻyxatini tuzing.

2. „Kim koʻp kitob oʻqigan?“ musobaqasini tashkil qiling.



Uyga vazifa. „Kitobdan yaxshi doʻst yoʻq“ mavzusida „Esse“ yozing.



4- DARS



1-topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Davom ettiring.

– Natasha, ertaga ham kutubxonaga birga boramizmi?
– Ha, albatta. Nigora, sen qanday kitoblarni olishni rejalashtirding?

– Men Gʻafur Gʻulomning „Shum bola“ asarini olmoqchiman. Sen-chi?

– Men tarixiy asar oʻqimoqchiman. Faqat qaysi asarni tanlashni bilolmayapman.

– Tashvishlanma, kutubxonachi Dildora Umarovnadon maslahat soʻraymiz ...



1-mashq. Matndagi hajm-oʻlchovni bildiruvchi soʻzlarni ajratib yozing.

Alisher Navoiy yoshligidan koʻp kitob oʻqidi. U besh yoshida katta-katta gʻazallarni yoddan bilar edi. Alisher 9–10 yoshlarida juda koʻp sheʻr yodlagan. Oʻspirinlik davrida Samarqandda oʻqidi. Samarqandda koʻp shoirlar bilan tanishdi. Uzoq vaqt saroyda xizmat qildi. 60 yoshida u juda koʻp sheʻr va dostonlar yozgan mashhur shoir edi.

Yodda saqlang!

O'qish bilimlar asosidir.





   **2-topshiriq.** O'qing. Tinglang. So'zlang.

Aziz bolajonlar, kitob haqida qancha gapirsak, ozlik qiladi. Biz kitobning qadriga yetib, uni asrashimiz kerak. Kitob – aql chirog'i, kitob – bebaho boylik. Kitob – xazina, bilim.

Qadimda ota-bobolarimiz kitobni qo'llariga olgach, uni avval o'pib, keyin ko'zlariga surtganlar. Uning bir varag'ini ham yirtmaganlar. Har xil joylarga tashlamaganlar. Kitobni muqaddas deb bilganlar.

Kitobni oftobga o'xshatishlari bejiz emas. U yashashdan saboq beradi, qiyinchiliklarni yengish yo'llarini, yaxshilik bilan yomonlikni, oq bilan qorani ajratishga o'rgatadi. Shuning uchun ham kitob qadrlanadi.

 **2-mashq.** Berilgan chizmadan foydalanib, hajm-o'lchovni bildiruvchi so'z birikmalarini tuzing.



Namuna: katta qozon, tor yo'lak.

Mustaqil ish. Berilgan hikmatli so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chiring.

Kitob o'zida butun olamning rang-barangligini, umuman, uning yuzini, fe'lini ro'yirot ko'rsatib beruvchi oynadir.

(Jan Pol Sartre)

Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q, undan ortiq g'amxo'r yo'q, unda yuz rohat bor, hech qachon ozor yo'q.

(Abdurahmon Jomiy)



3-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollar tuzing.

KITOBSEVAR

Televizor oldida
Hecham ko'rmadim seni.
Qo'lingdan kitob tushmay,
Lol qoldiryapsan meni.
Maqtanchoqlikka yo'yma,
Bu gaplarimni sira.
Kitob varaqlamasdan
Ko'nglim tortadi xira.
Televizor ko'rmayman,
Desam bo'ladi yolg'on.
Bolalardan dasturlar
Bizga zarur har qachon.
Biroq rostini aytsam,
Kitobga ortiq mehrim.
Diqqatimni tortadi
Adabiyotning sehri.
Tiriklik mo'jizasin
Kitobda deb bilmayman.
Kitob o'qish baxtini
Men barchaga tilayman.
O'tayotgan har kunim
Kinoga o'xshar go'yo.
Do'stim, bilsang, men uchun
Kitobning o'zi kino.

Abdurahmon Akbar



Uyga vazifa. Abdurahmon Akbarning „Kitobsevar“ she'riga tuzgan savollaringizga javob yozing.



5- DARS



1- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

KITOB – BILIMLAR XAZINASI

O'qish insonni ulug'laydi. Buyuk kashfiyotlarga yo'l ochadi. Ammo bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanmayotganlar ham bor. Insonlar azaldan kitobni muqaddas deb bilganlar. Ko'p kitob o'qishda, uni tushunib o'qishda hikmat katta. Kitob o'qishning foydasi haqida Ibn Sinoning hayotidan olingan lavha diqqatga sazovor: Buxoro amiri Nuh Ibn Mansurning saroyida juda boy kutubxona bo'lgan. Unga kirishga hammaga ham ruxsat etilmagan. Kunlarning birida amir kasal bo'lib qoladi. Uni saroy tabiblari davolay olmaydi. Ibn Sino amirni davolaydi. Buning evaziga amir Abu Ali ibn Sinoga kutubxonasidan foydalanishga ruxsat beradi. U kutubxonadagi turli tillardagi va har xil sohadagi kitoblarni o'qiydi. O'zining bilimlarini yanada boyitadi.

Kitobdan qudratliroq bilim va hayot maktabi yo'q. Ha, kitob o'qib o'rganmagan, bu bebaho xazinadan foydalanmagan kishini topish qiyin. Shuning uchun kitobni asrab-avaylaylik, uning ziyosidan boshqalarni ham bahramand etaylik.



Lug'at

bahramand – наслаждаться	azaldan – с самого
kashfiyotlar – открытия	начала
foydalanmoq – использовать	soha – отрасль
foydasi – польза	qudratli – могущественный
davolamoq – лечить	asrab-avaylamoq – беречь

Bilasizmi?

Ivan Andreyevich Krilov – mashhur rus masalchisi. U 256 ta masal yozgan.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. Savol va topshiriqlarni bajaring.

NINACHI VA CHUMOLI

Ninachi sho‘x kuylab chaldi soz,
Sayillarda o‘tdi go‘zal yoz.
Tomoshadan bo‘shay demadi,
Qish g‘amini sira yemadi.
Shunday bosib keldi qora qish,
Ulgurmadi, qoldi ko‘p yumush.
Dalalar bo‘sh endi, yo‘llar jim,
Izg‘irinda yo‘qlamas hech kim.
Har barg soyasida sayil yo‘q,
Uy izlashga darmon, mayl yo‘q,
Kunlar sovuq, boshlandi ochlik,
Ninachini bosdi muhtojlik.
Och qoringa qo‘shiq na hojat,
Ninachi ham sezdi halokat.
Vahm tushdi shirin joniga,
Chumolining keldi yoniga.



„Yomon kunga qo‘yma, o‘rtoqjon,
Toki yig‘ib olayin darmon,
Yoz kelguncha meni och qo‘yma,
Ayozlarda yalang‘och qo‘yma“.
„Hayron bo‘ldim! Nega ruhing bo‘sh.
Ishlabmiding yoz chog‘ida, xo‘sh?“ –
Deb so‘radi undan Chumoli.
„Vaqt bormidi, – der, – ish qilgali,
Maysazorda men chalib surnay,
Taralla-yu yalla har nafas,
Xayolinga qish kelgan emas“.
„Hali shunday degin?“
„Ha, shunday,
Qo‘shiq aytib o‘tdim yoz bo‘yi“.
„Qo‘shiq aytib? Ajab bo‘libdi,
Endi o‘yin tushmoq qolibdi“.

I. A. Krilov (Mirtemir tarjimasi)



Lug'at

kuylamoq – петь

izg'irin – холод

ochlik – голод

muhtojlik – нужда

halokat – крах

yig'moq – собирать



Savol va topshiriqlar:

1. Masalni rollarga bo'lib o'qing. Sinfda sahnalashtiring.
2. Chumoli to'g'ri ish qildimi, siz nima deb o'ylaysiz?
3. Ninachi-chi?

Mustaqil ish. Qaysi asar, qaysi muallifga tegishli? Javoblaringizni daftaringizga yozing.

Xudoyberdi To'xtaboyev

Rauf Tolib

Aleksandr Pushkin

Sergey Mixalkov

Ivan Andreyevich Krilov

„Ruslan va Lyudmila“

„Stepa amaki militsioner“

„Ninachi va chumoli“

„Fanlar bahsi“

„Sehrli qalpoqcha“



Uyga vaziga. „Ninachi va chumoli“ masalini ifodali o'qing.

XVI mavzu: ODOBLI BO'L

(Xarakter-xususiyatni bildiruvchi
sifatlarning qo'llanishi)



1- DARS



1-topshiriq. Rasm asosida „Odobli bola“ mavzusida suhbatlashing.

Foydalanish uchun so'zlar: intizomli, xushmuomala, ozoda, e'tiborli, hurmat qiladi, yordam beradi.

Namuna: Odobli bola tartib-intizomga rioya qiladi.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang.

OFTOB YAXSHIMI, ODOB YAXSHIMI?

Oftob yaxshimi,
 Odob yaxshimi?
 Oftob berar nur,
 Odob-chi, huzur.
 Lolalar uchun
 Oftob yaxshidir.
 Bolalar uchun
 Odob yaxshidir.
 Oftob bo'lmasa,
 Qorong'u tushar.
 Odob bo'lmasa,
 G'am-qayg'u tushar.
 Oftob ko'rinar
 Tog', tepalikda.

Odob ko'rinar
 Salom-alikda.
 Odob har kimning
 Yaxshi so'zida.
 Odob har kimning
 Yuzi-ko'zida.
 Olamning yuzi
 Oftobdan isir.
 Odamning yuzi
 Odobdan isir.
 Olamning doim
 Oftobi bo'lsin.
 Odamning doim
 Odobi bo'lsin.

Po'lat Mo'min



Lug'at

huzur – удовольствие,
 наслаждение
g'am-qayg'u – горе, печаль

tepalik – высота
olam – вселенная, мир

Mustaqil ish. Berilgan maqollardan shoir Po‘lat Mo‘minning „Oftob yaxshimi, odob yaxshimi?“ she‘riga mazmunan mos keladiganini aniqlang.

1. Odob – odamning ko‘rki.
2. Eshik ochiq bo‘lsa ham so‘rab kir.
3. Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.
4. Odob bozorda sotilmas.



Bilib oling!

Dadil, mohir, odobli, kamtar, sho‘x, chaqqon, saxiy, yaxshi, mehribon, yomon, qo‘pol, xasis kabi so‘zlar kishilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan: *Do‘stim **aqli** va **mehribon** bola.*



Fonetik mashq

aqli	ozoda	yalqov	mehnatsevar
zehnli	ochko‘z	dangasa	ishyoqmas
odobli	oqko‘ngil	saxiy	urishqoq
yoqimtoy	o‘jar	xasis	maqtanchoq



1- mashq. Berilgan so‘zlar ishtirokida savollarga yozma javob bering.

1. Odobli bola qanday bo‘lishi kerak?
2. Qanday bolalarni odobsiz deyishadi?

Foydalanish uchun so‘zlar: xushmuomala, qo‘pol, shirinso‘z, urishqoq, saxiy, qizg‘anchiq.



2- mashq. O‘qing. Ajratib berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Odobli bola yoshi katta kishilarga **salom beradi**. Kattalarni hurmat qiladi, kichiklarga yordam beradi. O‘rtoqlariga mehribon bo‘ladi, **qo‘pol** so‘zlar aytmaydi. Har joyda **tartib va intizomga** rioya qiladi. Barcha darslarga faol qatnashadi. Tirishqoqligi va bilimi bilan boshqalarga **namuna bo‘ladi**.



3- topshiriq. Berilgan soʻzlar yordamida „Odobli bola“ matnini tuzing.

Salomlashmoq, hol-ahvol soʻramoq, joy bermoq, oʻtkazib qoʻymoq, katta, kichik, tengdosh, yordam bermoq.



Uyga vazifa. Berilgan soʻzlar yordamida gaplar tuzing.



odobli
yalqov
kuchli
ozoda
dangasa
xushmuomala
qoʻpol
tartibli
odobsiz
saxiy
xasis



2- DARS



1-topshiriq. Maktab qoidalari haqida partadoshingiz bilan suhbatlashing. Berilgan matnni birgalikda davom ettiring.

Maktabga dars boshlanishidan oʻn daqiqa oldin keling. Maktabga qabul qilingan formada kelish shart. Tanaffusda maktab hududidan tashqariga chiqmang. Maktab hududida tozalikka rioya qiling...



1- mashq. Nuqtalar oʻrniga xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlardan mosini qoʻyib, gaplarni toʻldiring.

1. Oʻqituvchimiz ... (mehribon, mohir, maqtanchoq) inson.
2. Doʻstimni hurmat qilaman, chunki u ... (odobli, saxiy, yalqov) bola.
3. Aziz sinfimiz sardori, u ... (intizomli, oʻjar, tirishqoq) oʻquvchi.

Mustaqil ish. Berilgan soʻzlardan foydalanib, 5–6 gapdan iborat „Jamoat transportidan foydalanish qoidalari“ nomli matn tuzing.

Chiqing, aylanib oʻting, joy bering, suyanmang, tushing, tayyorlaning.



Muomala odobi

Kechirim soʻrashga oid soʻz va jumlar

- Allo!
- Iltimos, Ravshanni chaqirib bering.
- Ravshan, bu men, Komilman. Ravshan, doʻstim, men bugungi voqea uchun sendan uzr soʻrayman. Meni kechir. Men juda afsusdaman.
- Men xafa emasman. Anglashilmovchilik yuz berdi.



2- topshiriq. Oʻqing. Tinglang. Topshiriqlarni bajaring.

Agar sizdan boʻlib oʻtgan koʻngilsiz voqea uchun uzr soʻrasalar, albatta, javob bering. Uzr soʻragan odamga bu voqea yuzasidan oʻz fikringizni ayting. Uning uzrini qabul qilganingiz yoki qabul qilmaganingiz haqida ochiq ayting. Oʻzingiz ham notoʻgʻri xatti-harakatingiz uchun atrofda gilardan kechirim soʻrashni unutmang.



Topshiriqlar

1. Boʻlib oʻtgan koʻngilsiz voqea-hodisa uchun yoshi oʻzingizdan katta boʻlgan odamdan kechirim soʻrang.
2. Doʻstingizdan yoki ukangizdan kechirim soʻrang.

Foydalanish uchun soʻzlar: kechirasiz, yanglishibman, iltimos, marhamat qilib, afsusdaman, pushaymonman.



3- topshiriq. Berilgan hikoyani oʻqing va Hoshimjon qaysi asar qahramoni ekanligini aniqlang.

Rostini aytsam, oʻzim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli oʻquvchilaridanman. Bir xil haligi shoʻx

bolalarga o'xshab, kun bo'yi ko'cha changitib yurmayman. Yashirib nima qildim, ko'cha changitib yurgandan ko'ra komandaga bo'linib olib, to'p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying har qancha chaqirsa ham ovozi yetmaydigan joyga borib olib, chillak o'ynagan ming marta yaxshi.

– Hoshim! – chaqiradi ba'zan oyim.

– Labbay, oyijon?

– Tomdan o'tin tashlab bergin.

– Xo'p bo'ladi, oyijon, – deyman-u sekin u yoq-bu

yoqqa qarayman-da:

– Oysha! – deb chaqiraman.

– Labbay, akajon?

– Tomdan o'tin tashlab bergin.

– Xo'p bo'ladi, akajon, – deydi Oysha.

Shunday demasa, ish chatoq. Och biqiniga musht kelib tushadi. Ishqilib oyimning gapini hech yerda qoldirmayman...

(Xudoyberdi To'xtaboyevdan)



4-topshiriq. a) 3-topshiriqda berilgan matndan Hoshimjonning xarakter-xususiyatini ifodalovchi sifatlarni daftaringizga ko'chirib yozing; b) Hoshimjonga xos xarakter-xususiyatlardan qaysi biri sizda bor? Og'zaki javob bering.



Uyga vazifa. 3-topshiriqda berilgan matn asosida savollarga javob bering.

Hoshimjonning qiziquvchanligi uni qanday vaziyatlarga olib keldi? Bu vaziyatlarda Hoshimjonning harakatlari qanday baholanadi? Qiziquvchanlik salbiy xususiyatmi?



3- DARS



1-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollar tuzing.

O'QUVCHIGA TAVSIYA

Dunyoda gazeta, jurnal juda ko'p nashr etiladi. Shu bilan birga har kuni yarim million kitob chop etilar ekan.

Ular orasidan o'qish uchun zarur bo'lgan kitoblarni qanday tanlab olish mumkin? Bunda sizga ota-onangiz, aka-opalaringiz, o'qituvchilaringiz, do'stlaringiz va kutubxonachi yordam berishi mumkin. Kitob tanlab olganingizdan so'ng kitob o'qish tartibini bilib olish kerak.

Ko'chada, transportda, dasturxon ustida, dars vaqtida kitob o'qish mumkin emas. Sizni qiziqtirib qo'ygan kitobni tuni bilan o'qish ham mumkin emas.

Bu sizning sog'lig'ingizga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Kitobni qo'lingizga olishdan avval qo'lingizni yuving. Kitob varaqlarini bukmang, chizmang, yozmang. Kitobning qadriga yeting.

Kitobni qunt bilan, mazmunini uqib o'qish kerak. Uning nomi va muallifini ham esda saqlash lozim.



Lug'at

chop etmoq – печатать

tanlab olmoq – выбирать

kitob o'qish tartibi – порядок чтения книги

qunt – упорно




2- topshiriq. She'ni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

ODOBLI AHMAD


Bir kun Ahmad maktabga
Avtobusda borardi.
Uning ust-boshiga
Hamma odam qarardi.
Chunki uning kiyimi
Toza edi juda ham.
Do'ppisi kular boshda,
Sumkasi undan ko'rkam.
Bir mahal avtobusga
Chiqib qoldi bitta chol.

U o'tirmoq istadi,
Ahmad payqadi darhol.
Hammadan oldin turib,
O'rin bo'shatdi cholga.
Duo qilib otaxon,
Xursand bo'ldi bu holga.
Avtobusda turganlar
Rahmat, balli, dedilar,
Ahmadning odobiga
Qoyil qolgan edilar.

„O'zimiz ertak yozamiz“ kitobidan

 **1- mashq.** Ahmadga xos xususiyatlarni yozma davom ettiring: odobli, orasta, ziyrak...

Mustaqil ish. Ahmad va Hoshimjonga xos bo'lgan xususiyatlarni alohida yozing va taqqoslang.

 **2- mashq.** „Odobli Ahmad“ she'ridan foydalanib, gaplarni to'ldiring.

1. Bir kun Ahmad ... bordi. 2. Hamma uning ... qaradi. 3. Bir mahal avtobusga ... chiqib qoldi. 4. Ahmad hammadan oldin 5. Otaxon bu holga 6. Avtobusdagi yo'lovchilar ... qoyil qolgan edilar.

3- mashq. Berilgan so'zlar „Zumrad va Qimmat“ ertagining qaysi qahramoniga tegishli ekanligini toping.

Yalqov, ishyoqmas, xushmuomala, mehnatkash, urishqoq, aqlli, jahldor, dangasa, ozoda, chaqqon, erinchoq, kamtar, mehribon, ochko'z, oqko'ngil.

 **4- mashq.** Maqol va hikmatlarni o'qing, ma'nosini tushuntiring.

1. Odobli bola elga manzur.
2. Bola odobi bilan go'zal.
3. Odob boshi – til.
4. Odobni odobsizdan o'rgan.



Uyga vazifa. „Odobli Ahmad“ she'rini yod oling.



4- DARS



1- topshiriq. O'qing. Suhbatlarni davom ettiring.

- Allo!
- Iltimos, Rahimni chaqirib bering!
- Allo, Rahim! Bu men Odilman! Eshityapsanmi?
- Ha.
- Do'stim, men bugungi voqea uchun sendan uzr so'rayman. Meni kechir! Meni kechira olasanmi?

– Ha, ayb ikkimizdan ham o‘tdi. Biznikiga kel. Birga dars tayyorlaymiz...

.....

– Ustoz, meni kechiring. Men aybimni tushundim. Bu holat boshqa takrorlanmaydi. Iltimos, oyimga bu haqda ayt mang...



2- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang.

1. Odob bozorda sotilmas.
2. Odob – oltindan qimmat.
3. Yaxshi boladan rahmat,
Yomon boladan la‘nat.

1- mashq. Berilgan so‘zlardan foydalanib, partadoshingizning xarakter-xususiyatini ifodalang.

Ziyrak, aqlli, e‘tiborli, kamtar, haqiqatgo‘y, rostgo‘y, mehribon, chaqqon.

Namuna: Do‘stim Sobir juda odobli bola. U hamma sinfdoshlariga nisbatan e‘tiborli.



2- mashq. Kataklarda berilgan harflardan xarakter-xususiyatga oid so‘zlar yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

q	o‘	m	e	h	r
y	p	o	l	n	i
y	s	a	m	o	b
x	a	k	t	a	r

Namuna: Mehribon. Malika juda mehribon qiz.

Mustaqil ish. Dasturxon atrofida o‘zini tutish qoidalari haqida 4–5 gapdan iborat matn tuzing.



3- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang. Savol va topshiriqlarni bajaring.

KUZATIB YUR – TUZATIB YUR

Yurganingda atrofingni kuzatib yur,
Eng avvalo, o'z-o'zingni tuzatib yur.
O'zgalar ham sinchiklaydi qadamingni,
Ayamagil qo'lingdan kelgan yordamingni.
Odamliging bezab turar yaxshi xislat,
Elga xizmat qilgan topar elda izzat.
Go'yo ovda yurgandayin hushyor bo'lgil,
Yuragingdan ko'mak uchun tayyor bo'lgil.
Malham bo'lar odil so'zni tortinmay ayt,
Eng to'g'risi, eng zaruri: bo'lma loqayd.
O'tib tursin ular doim ko'z o'ngingdan,
Idrok bilan atrofingni kuzatib yur,
Ayniqsa, do'st nuqsonin tuzatib yur.

Po'lat Mo'min



Lug'at

kuzatib yur – наблюдай

tuzatib yur – держи в
порядке

sinchiklaydi – проверяет

ayamagil – не жалея

xislat – черта

izzat – уважение

hushyor bo'l – будь
внимателен

malham – бальзам

loqayd – безразличный

idrok – соображение



Savol va topshiriqlar

1. Shoir bolalardan qanday xarakter-xususiyatning egasi bo'lish kerakligini talab qilyapti?
2. Shu xususiyatga oid so'zlarni daftaringizga yozing.



Uyga vazifa. „Kuzatib yur – tuzatib yur“ she'ringing mazmunini so'zlab bering.



5- DARS

Bilasizmi?

... Ertaklar, maqollar, dostonlar, qo‘shiqlar – hammasi yig‘ilib xalq og‘zaki ijodini hosil qiladi. Bulardan tashqari yana askiya, afsona, rivoyatlar ham xalq og‘zaki ijodi deb ataladi. Chunki ularni xalq yuzlab yillar davomida yaratgan va ular og‘izdan og‘izga o‘tib, sirli javohirlar kabi bizgacha yetib kelgan...

(Omonulla Madayev)



1- topshiriq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang.

QAYTAR DUNYO

(Rivoyat)

Qadim zamonda bir chol o‘g‘li bilan yashar ekan. Cholning xotini vafot etgan bo‘lib, yolg‘iz o‘g‘li bilan qolibdi. O‘g‘lini nihoyatda ehtiyotlab katta qilibdi. O‘g‘li voyaga yetgach, uni uylantiribdi.

Bu orada o‘g‘li o‘g‘il ko‘ribdi. Chol o‘g‘liga bir quvonsa, nevarasiga ikki bor quvonarmish. Ammo kelini hunar chiqara boshlabdi. Cholni o‘tirsas o‘poq, tursa so‘poq deyaveribdi. Kunlardan bir kun cholning qo‘lidan kosa tushib ketib, sinib qolibdi. Kellingning jahli chiqibdi. Bir kuni chol yana ovqatni to‘kib yuboribdi. Chinni idish yana sinibdi. Kelin yana janjal qilibdi. Uchinchi marta ham chinni idish singanidan keyin yigit hovlisining to‘riga kichik bir xona soldirib, otasini o‘sha joyga ko‘chirib qo‘yibdi. Unga yog‘ochdan kosa, qoshiq qildirib beribdi.

Kunlardan bir kun cholning vaqti soati yetib, qazo qilibdi. Yigit o‘z ishlari bilan ovora bo‘lib, ko‘p ham qayg‘urmabdi. Mahalla-ko‘y cholni ko‘mibdi. Bir kuni yigit ishdan qaytsa, katta o‘g‘li yog‘ochdan idish yasab o‘tirgan emish.

– Nima qilyapsan, bolam? – so‘rabdi u.

– Sizga atab yog‘ochdan kosa bilan qoshiq yasayapman. Qariganingizda bir uy qurib, sizni eltib qo‘yaman-da, shu kosa bilan qoshiqda bergan ovqatlarimni ichib o‘tirasiz.

Yigit nima qilib qo‘yganini anglab, afsuslanibdi. Ammo keyingi pushaymon o‘zingga dushman deganlaridek, ming pushaymon qilmasin, foydasi bo‘lmabdi.



2- topshiriq. Hikoyaning mazmunini so‘zlab bering. Yigit otasidan qanday kechirim so‘rashi haqida fikringizni bayon eting.



1- mashq. Matn asosida nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

1. Bu orada o‘g‘li ... ko‘ribdi. 2. Ammo kelini ... chiqara boshlabdi. 3. ... idish yana sinibdi. 4. Uchinchi marta ham chinni idish ... keyin yigit hovlisining to‘riga kichik bir ... soldirib, otasini o‘sha joyga ko‘chirib qo‘yibdi.



Uyga vazifa. 1-topshiriqda berilgan matndan xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi so‘zlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.

XVII mavzu: TRANSPORTDA

(Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi sifatlarning qo‘llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Rasm asosida hamda berilgan so‘z va so‘z birikmalari yordamida suhbatni davom ettiring.

- Oqil, tezroq yur, darsga kech qolamiz.
- Tashvishlanma, do‘stim. Vaqtida yetib boramiz. Shu yerdan ko‘chani kesib o‘tsak bo‘ldi.
- Yo‘q. Bu vaqtda ko‘chada mashinalar ko‘p bo‘ladi. Umuman, katta ko‘chada o‘tish belgisi bor joydan o‘tish kerak.

– O‘zing shoshilyapsan-ku! Kech qolmaslik uchun shu yerdan o‘tamiz.

–



Foydalanish uchun so‘zlar: hayot uchun xavfli, svetofor, yer osti o‘tish yo‘lagi, qoidabuzarlik.



2-topshiriq. O‘qing. Savollarga javob bering.

O‘qituvchimiz quyidagi voqeani gapirib berdilar: „Men bugun bir do‘stingizni ko‘chada ko‘rib qoldim. Maktabga kelguncha uni kuzatdim. U katta ko‘chani o‘ziga qulay yerdan kesib o‘tdi. Cho‘ntagidagi keraksiz qog‘ozlarni ariqqa tashladi. Oldinda ketayotgan sinfdoshini hushtak chalib chaqirdi. Bekatdagi o‘rindiqqa oyog‘i bilan chiqib, yo‘lovchilardan tanbeh eshitdi. Avtobusga oldingi eshikdan chiqdi“.



Savollar

1. Sinfdoshingiz bugun ko‘chada qanday xatolar qildi?
2. Odobli bolalar ko‘chada o‘zlarini qanday tutadilar?
3. Siz ko‘chada tartib-intizom va ozodalikka rioya qilasizmi?



Lug‘at

kuzatmoq – наблюдать

hushtak chalmoq –

свистеть

kesib o‘tmoq – переходить

tanbeh – замечание



1- mashq. *Keng, tekis, nosoz, tor* sifatleri yordamida 4–5 ta gapdan iborat „Ko‘cha qoidalari“ nomli matn tuzing.

Namuna: Tor ko‘chada mashinaga yo‘l bering.



Bilib oling!

Ko‘rkam, chiroyli, savlatli, tekis, dumaloq, egri, qiyshiq, baland, past, novcha, pakana, hashamatli, oriq, semiz kabi so‘zlar shaxs va narsalarning shakli, ko‘rinishini ifodalashda qo‘llanadi. Masalan: Anvar **novcha** bola. **Tekis** yo‘ldan yuring.



2- mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Navoiy ko‘chasi ... shahrimizning eng ... ko‘chalaridan biri. 2. ... ko‘chani kesib o‘tayotganda ehtiyot bo‘ling. 3. ... bola yosh bolali ayolga yo‘ldan o‘tishga yordam berdi. 4. Svetoforning qizil chirog‘i yonishi bilan ... va ... mashinalarning hammasi to‘xtadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: novcha, azim, uzun, katta, kichik.



3- mashq. Berilgan shaklni ifodalovchi sifatlarga mos otlarni tanlab, *sifat + ot* ko‘rinishidagi so‘z birikmalari hosil qiling.

novcha
do‘mboq
dumaloq
keng
ulkan
qiyshiq
yapaloq
past
savlatli

bino
odam
yigit
daraxt
bog‘
qiz
kema
yo‘l
uy

Namuna: Novcha yigit.



3-topshiriq. O'qing. Tinglang. So'zlang. Savollarga javob bering.

IKKI XIL YORDAM

(Hikoya)

Bir xotin sabzavotlar solingan og'ir to'r xaltani ko'tarib ketayotgandi. Orqadan ikki bola tez-tez yurib kelardi. Ularning ketidan bir chol kelmoqda edi. To'r xaltadan bir kartoshka tushib ketdi.

– Xola, kartoshkangiz tushdi, – deb birinchi bola o'tib ketdi. Ikkinchi bola kartoshkani olib, asta-sekin xaltaga soldi. Orqadan yetib kelgan chol bolaga:

– Baraka top, bolam, – dedi. Shunda birinchi bola to'xtab:

– Bobo, menga hech narsa demadingiz? Men birinchi bo'lib aytdim-ku! – dedi. Bobo unga javob bermadi. Ikkinchi bolaning yelkasiga qoqdi:

– Ota-onangga rahmat, bolam.

Mahmud Murodov



Savollar

1. Birinchi bola qanday ikki xatoga yo'l qo'ydi?
2. Bobo nima uchun ikkinchi bolaga rahmat dedi?
3. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?



Lug'at

sabzavot – овощи

xalta – мешок

orqadan – сзади

xola – тётя

baraka top – молодец

yelkasiga qoqdi – похлопал по плечу

Mustaqil ish. Ko'chaga chiqayotganingizda onangiz yoki buvingiz nimalarni nasihat qiladilar? 4–5 gapdan iborat bog'lanishli matn tuzing.



Uyga vazifa. „Bizning ko'cha“ mavzusida matn tuzing. Matnda shakl-ko'rinishni ifodalovchi sifatlardan foydalaning.



2- DARS



1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing, muomala odobiga oid so'z va gaplarni ko'chirib oling.

- Assalomu alaykum.
- Va alaykum assalom, o'g'lim!
- Qo'lingizdagi yuqingizni menga bering.
- Rahmat, bolam! Yukim kichik ko'rinsa ham, ammo og'irroq. Qiynalib qolasan.
- Xavotir olmang. Bo'yim past, o'zim ozg'in bo'lsam ham kuchli bolaman.
- Kel, bo'lmasa birga ko'taramiz.
- Yo'q, ana u kelayotgan novcha bola sinfdoshim bo'ladi. U bilan birga ko'taramiz.
- Barakalla! Otangga rahmat!



Yodda tuting!

Shakl-ko'rinishni ifodalovchi so'zlar juft holatda qo'langanda ular orasiga chiziqcha qo'yiladi: *baland-past, egri-bugri, qing'ir-qiyshiq* kabi.



Fonetik mashq

qiyshiq	baqaloq	burchakli	o'nqir-cho'nqir
oriq	nimjon	hashamatli	qing'ir-qiyshiq
yapaloq	savlatli	chiroyli	egri-bugri



1- mashq. Gaplarni ko'chiring. Shakl-ko'rinishni ifodalagan so'zlarning tagiga chizing.

1. Katta va ko'rkam ko'chalarimizni ozoda saqlaylik.
2. Yo'llarimiz keng va tekis. 3. Svetoforning dumaloq ko'zlari uch xil rangli. 4. Bu yo'l eski, qiyshiq, tor ko'chalarning o'rniga qurilgan.



2- mashq. O'qing. Shakl-ko'rinishni bildirgan so'zlarning qo'lanilishiga e'tibor bering.

Kecha sinf rahbarimiz bilan „Amaliy san’at muzeyi“ga bordik. Metroning „Kosmonavtlar“ bekatidan chiqdik. Ko’cha katta va serqatnov ekan. Svetoforning yashil chirog’i yondi va biz o’tish yo’lagidan o’tdik. Ko’cha juda chiroyli. Uning chetiga dumaloq, to’rtburchak shakldagi idishlarga chiroyli gullar ekilgan, chim yotqizilgan. Biz gullarni uzmadik. Maysalarning ustidan yurmadik. To’g’ridagi uzun va tor ko’chadan muzey tomon ketdik. Muzey hovlisi to’rtburchak bo’lib, uch tomoni bino bilan o’ralgan.



3- mashq. Berilgan so’z va so’z birikmalari ishtirokida „Bizning ko’cha“ mavzusida 4–5 gapdan iborat matn tuzing.

Tekis, ravon, o’tish belgisi, to’xtash joyi, keng, tor, qiyshiq, katta darvoza, baland uy.

Namuna: Bu keng ko’cha bizning ko’chamizdir.



4- mashq. Rasmlarni qiyoslab, so’zlab bering.



2- topshiriq. Berilgan qoidalardan ko’cha qoidasiga to’g’ri kelmaydiganini toping.

1. Kattalarga qo’pol muomala qilish mumkin emas.
2. Kutubxonada ovoz chiqarib gapirish mumkin emas.
3. Katta ko’cha bo’yida futbol o’ynash mumkin emas.
4. Favvorada cho’milish mumkin emas.
5. Maydondagi maysalarni bosish, gullarni uzish taqiqlanadi.
6. Qizil chiroqda piyodalarning o’tishi mumkin emas.



3- topshiriq. O’qing. Tinglang. So’zlang.

ODOBLI BOLA

Avtobusga chol-u kampir
Munkillashib chiqar bazo'r.
O'rinni tez bo'shataman,
Keling, deb joy ko'rsataman.

Yosh boladay yetaklashib,
Go'yo atak-chechaklashib,
Bir-bir duk-duk bosib hassa
O'tirishar sekin-asta.

Ko'ngillarini birrov xushlab,
Qo'llaridan tezda ushlab,
Manziliga yetgan zamon,
Kuzataman eshik tomon.

Qambar Ota



Lug'at

munkillagan – престарелый
bazo'r, zo'rg'a – еле-еле
yetaklamoq – держаться за руки

birrov – быстро
manzil – адрес,
местонахождение

Mustaqil ish.



1. Berilgan yo'l belgilarining rangi, shakl-ko'rinishini tasvirlab, gaplar tuzing.
2. Ko'chada yuz bergan biron qoidabuzarlik haqida so'zlang.



Uyga vazifa. „Ko'cha qoidalari“ mavzusida matn yozing.



3- DARS



1- topshiriq. Rasmlar asosida namunadagidek savollar tuzing va suhbatlashing.

Namuna: Bu qanday transport?
U nima uchun kerak?
U nima bilan yuradi?



1- mashq. O'qing. So'zlang. Ajratilgan so'zlar ishtirokida yangi gaplar tuzing.

TRANSPORTDA

Transport hayotimizda muhim o'rin tutadi. Ilgarigi ot, arava o'rnini yangidan yangi avtomobillar **egallamoqda**. Har qaysi transport turining o'z vazifasi bor. **Yengil avtomobillar**, avtobus, samolyot, poyezd kabilar odamlarning yo'lini yaqin qiladi. Ular **vaqtimizni tejaydi**.

Har kim avtobusda yurish qoidalariga amal qilishi kerak. Avtobus yurganda **tutqichlarni** mahkam ushlab kerak. Avtobus eshigi oldida turish xavfli. Har doim nogiron va yoshi kattalarga **joy berish** lozim. Jamoat transportida **baland ovozda gaplashish** odobsizlikdir. Avtobus ichiga **chiqindilar** tashlash mumkin emas.

Transportda yurish yaxshi, ammo uni **asrashni** ham bilish kerak.



Lugʻat

muhi m – важный	joy berish – уступать место
egallamoq – <i>здесь</i> : заменять	
baland ovozda – высоким голосом	tejamoq – экономить
	mahkam – крепко
tutqich – ручка	



2-topshiriq. Transportda nimalar qilish mumkin emasligi haqida bilganlaringizni yozing.



2-mashq. Nuqtalar oʻrniga qavs ichidagi soʻzlardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Uzoq oʻlkalarga (avtobusda, samolyotda) ... borish kerak. 2. Avtobusga iflos (kiyimda, suvda) ... chiqmang. 3. Temiryoʻl vokzaliga (poyezdda, metroda) ... borish qulay. 4. Mehmonlarni avtobus bekatida (onam, men, siz, u) ... va ... kutib oldik. 5. Doʻstim avtobusga (kitobda, hassada) ... chiqqan kishiga joy berdi.



3-topshiriq. Quyidagi suhbatni rollarga boʻlib oʻqing va davom ettiring.

- Kechirasiz, avtobuslar bekati qayerda?
- Toʻgʻriga yurib, oʻngga burilasiz. Qayerga bormoqchisiz?
- Gʻafur Gʻulom nomidagi bogʻga bormoqchiman.
- Siz avtobusga chiqmang, u yerga metroda borish qulay.
- Metro yaqinmi?
- Ha, bu yerdan uzoq emas. Xiyobondan oʻtsangiz, metroga borasiz.
- Rahmat sizga.
-



3-mashq. Berilgan soʻz birikmalari ishtirokida namunadagidek gaplar tuzing.

Mashinada tashimoq, Anvar bilan Alisherni ko'rmok, ustozi bilan salomlashmoq, taksida kelmoq, do'stim bilan uchrashmoq, kran bilan ko'tarmoq, kuchuk bilan qo'rqitmoq, arqon bilan tortmoq.

Namuna: Tog'amnikiga avtobusda bordik.

Mustaqil ish. „Ko'cha qoidalari“ va „Ko'cha harakati qoidalari“ o'rtasidagi farqni tushuntiring.



Uyga vazifa. O'zingiz yoqtirgan transport turini ta'riflab, kichik matn tuzing.



4- DARS



1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

BEKATDA

- Dono, qayerga bormoqchisan?
- Madaniyat saroyiga boraman. Sen-chi, Nodir?
- Hozir uyga boraman. Keyin bobom bilan teatrga tushamiz.
- Bu yerdan qaysi avtobusga chiqasan?
- U yerga 4- avtobus bilan yetib olaman. O'zing-chi?
- Men ikkita transportga chiqishim kerak. 10- avtobus bilan markaziy bekatga boraman. U yerdan yo'nalishli taksiga o'tiraman va u bilan uygacha boraman. Nodir, ayt-chi, qaysi transportda yurish senga yoqadi? Nima uchun?



1- mashq. Tegishli so'zlar yordamida javoblarni to'ldiring.

1. – Bu chiptani nima uchun olding?
 - Poyezd bilan Buxoroga
2. – Nima uchun keyingi reysga yetib kelmadingiz?
 - Yo'l yopiq
3. – Bekatda nima uchun turibsiz?
 - Tog'amnikiga

4. – Mashina nega to‘xtab qoldi?
– Benzin



Muomala odobi

Telefonda murojaat qilish

- Iltimos, Hamidni chaqirib bering.
- Allo, Botir aka kerak edi.
- Allo, shifoxonami?
- Allo, qabulxonami?
- Allo, Dildorani mumkinmi?
- Allo, men dugonasi Barnoman.



2- topshiriq. Rasmdagi transport vositalarining nima uchun xizmat qilishini tushuntiring.

Namuna: Ekskavator yerni kovlash uchun mo‘ljallangan.



2- mashq. O‘qing. Tinglang. So‘zlang.

Avtomobillar odamlarning ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqarilgan. Chunki mashina bilan ko‘p ishlarni oson va tez bajarish mumkin. Masalan, avtobuslar yo‘lovchilarni

tashish uchun mo'ljallangan. Sport poygasi uchun maxsus mashinalar yaratilgan. Hatto tantanali marosimlar uchun ham avtomobillar bor.

O'zbekistonda turli avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Avtobus va yengil avtomobillar uchun ehtiyot qismlar ham tayyorlanyapti. O'z avtomobillarimiz bilan hamisha faxrlanamiz.



Lug'at

ehtiyoj – потребность
yo'lovchi – пассажир
hamisha – всегда

marosim – церемония, обряд
poyga – *здесь:* гонки
ehtiyot qismlar – запасные части

Mustaqil ish. Quyidagi jadvalni namunadagidek to'ldiring.

Transport turi	Nima bilan yuradi?	Nima uchun ishlatiladi?
avtobus	benzin bilan	yo'lovchilarni tashish uchun



3-topshiriq. O'qing. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

SVETOFOR

Uch og'ayni botirlar,
 Uch xil rangda nodirmiz:
 Qizil, yashil, sariqmiz,
 Kuch-qudratga qodirmiz.

Hamjihatismiz doim biz,
 Chorrahadir joyimiz.
 Vaqti bilan nur sochar,
 Uchta to'lin oyimiz.

Qizil yonsa, tek turing,
 Yashil yonsa, tez yuring.
 Sariq yonsa, ehtiyot
 Chorasini ham ko'ring.

Gapimiz shu sizlarga:
 Barcha o'g'il-qizlarga,
 Duch kelmaysiz xatarga,
 Quloq soling bizlarga.

Safo Ochil



Lug'at

qodir – способный
hamjihat – дружный
chorraha – перекрёсток
to'lin oy – полная луна
ehtiyot chorasi – мера
предосторожности

quloq solmoq – слушаться
xatar – опасность
botir – смелый
rang – цвет
yonmoq – зажигаться



Savol va topshiriqlar

1. Siz svetoforga qanday amal qilasiz?
2. Svetoforning qanday chiroqlari bor? Ular haqida gapirib bering.



Uyga vazifa. Ko'chaga chiqayotganingizda onangiz yoki buvingiz nimalarni nasihat qiladilar? Shu haqida og'zaki matn tuzing.



5- DARS



1- topshiriq. Transport turlari nima uchun kerakligini izohlab, partadoshingiz bilan suhbat matni tuzing.

Namuna:

- Shaharda metro eng qulay transport vositasidir.
-
- Samolyot va poyezd uzoq masofalarni yaqin qiladi.
-
- Kemalar-chi?
-

Bilasizmi!

Jumaniyoz Jabborov o'zbek xalq shoiri. Uning ko'p she'rlari qo'shiq qilib kuylangani uchun qo'shiqchi shoir ham deyishadi.



2- topshiriq. O'qing. Tinglang.

YONIQ „KO‘K CHIROQ“

Solib Xovos cho‘liga ovoz,
Vodiy bo‘ylab yelar teplovoz.
Vagonlari ko‘p, qator-qator,
Buncha yukni u qanday tortar?
Qayga borar bu uzun karvon,
Ortib taxta, sement, paxta, don?
Ehhe, ulug‘ yurtimizga boq,
Qurilishlar ichra hamma yoq.
Ortilgandir yana ko‘plab yuk,
Bu karvonning ma‘nosi buyuk.
Vatan bo‘ylab besh panja – besh qo‘l
Taralgandir so‘ngsiz temiryo‘l.
Bu karvonga yaqindir yiroq,
Har bekatda yoniq „ko‘k chiroq“.
Manzilingga oq yo‘l, pahlavon,
Yo‘ling bo‘lsin hamisha ravon.

Jumaniyoz Jabborov

1- mashq. „Yoniq „Ko‘k chiroq“ she‘ridan foydalanib, savollarga javob bering.

1. Teplovoz qayerga qarab yo‘l olgan?
2. Vagonlarda qanday yuklar bor?
3. Siz uzoq yo‘lga chiqqaningizda qaysi transport vositalaridan foydalanasiz?

2- mashq. Savol va topshiriqlarni bajaring.

1. Transportda qanday qoidalarga amal qilish kerak?
2. Transport turlari nima uchun kerakligini izohlang.
4. Transportda sodir bo‘lgan biror voqea haqida so‘zlab bering.

Mustaqil ish. O‘zingiz yoqtirgan transport vositalari haqida gapirib bering.



3- mashq. Gaplarni ko'chiring. Shakl-ko'rinishni ifodalovchi so'zlarni topib, tagiga chizing.

1. Yo'l qoidalari belgilari dumaloq, to'rtburchak va uch-burchak bo'ladi. 2. Yengil avtomobilda qing'ir-qiyshiq yo'ldan yurish qiyin. 3. Baland-past tepaliklar orqada qoldi. 4. O'zbekistonda juda ko'rkam avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. 5. Metropoliten relslari tekis va silliq bo'lishi shart!



Uyga vazifa. Transport vositalaridan foydalanish bo'yicha o'z tavsiyalaringizni yozing.

XVIII mavzu: DAM OLISH KUNIM

(O'tilganlarni takrorlash)




1- DARS






1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



- Dam olish kuni qayerga bormoqchisan?
- Yakshanba kuni onam bilan bog'ga bormoqchimiz...
Sen-chi?
- Men oyimga uy ishlarida yordamlashmoqchiman...

 **2-topshiriq.** Mini testni bajaring. Berilgan gaplarning qaysi mavzularga tegishli ekanligini jadvalda belgilang.

№		Atoqli ot	Jo'nalish kelishigi	Qaratqich kelishigi	Rang-tus bildiruvchi sifat	O'rin-payt kelishigi
1	Tadbirni maktabda o'tkazdik.					
2	Yashil rangli ro'mol oldim.					
3	Toshkent katta shahar.					
4	Maktabning bog'i katta.					
5	Kutubxonaga bordik.					

   **3-topshiriq.** O'qing. So'zlang. Savollarga yozma ravishda javob bering.

DAM OLISH KUNIM

Bugun dam olish kuni. Oilamizning barcha a'zolari uyda. Kecha otam safardan qaytdi. Opam bilan men ertalab barvaqt turdik. Onamga uy ishlarida yordamlashdik. Tushlikdan so'ng otam, onam, opam, ukam va men bobom bilan buvimni ko'rgani mehmonga bordik. Ular juda xursand bo'lishdi. Dam olish kunimiz maroqli va mazmunli o'tdi.

Savollar

1. Dam olish kuni deganda qaysi kunni tushunasiz?
2. Dam olish kuni uchun avvaldan reja tuzasizmi?
3. Dam olish kunini qanday o'tkazishni yoqtirasiz?



Lugʻat

safar – командировка
uy ishlari – домашние
дела
mazmunli – содержа-
тельный

xursand boʻlmoq – радо-
ваться
maroqli – интересный
yordamlashmoq – помогать



1- mashq. Nuqtalar oʻrniga kerakli soʻzlarni qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Yakshanba ... kuni. 2. Dam olish kuni haftaning ... kuni. 3. Biz onam bilan ... bordik. 4. Bogʻda ... dam oldik. 5. Dam olish kuni ... oʻtdi.

Foydalanish uchun soʻzlar: mazmunli, maroqli, dam olish, bogʻga, yettinchi.



2- mashq. Qavs ichidagi soʻroqlar oʻrniga mos soʻzlarni qoʻyib, gaplarni toʻldiring va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Ukam (*qayerdan?*) keldi. 2. Darsdan keyin (*qayerda?*) boʻlaman. 3. (*kimga?*) kitob oldim. 4. Akamdan avval (*qayerga?*) qaytdim. 5. Hashardan soʻng (*qayerga?*) dam olgani bordik.

Mustaqil ish. Dam olish kuningiz rejasini tuzing.



Uyga vazifa. „Dam olish kuni nima uchun kerak?“ mavzusida 4–5 gapdan iborat bogʻlanishli matn tuzing.



2- DARS



1- topshiriq. Suhbatni rollarga boʻlib oʻqing. „Dam olish kuni“ mavzusida partadoshingiz bilan ogʻzaki suhbat tuzing.

- Bu „Chimyon“ dam olish maskanimi?
- Ha, xush kelibsiz. Qayerdan keldingiz?
- Samarqanddan keldik. Bizga bu yerning qoidalarini tushuntirsangiz.

- Ertalabdan badantarbiya qilish uchun to‘planasiz. Nonushtadan so‘ng sayrga chiqasiz. Tushlikdan keyin madaniy hordiq chiqarasiz, tadbirlarda qatnashasiz.
- Juda yaxshi. Sharoitlardan mamnun bo‘ldik.



2- topshiriq. O‘qing. So‘zlang. Savollar tuzing.

BERUNIYNING DAM OLIISH KUNLARI

Beruniy yiliga ikki martagina dam olar ekan. Birinchisi Navro‘zi olam kirgan kuni, ikkinchisi bug‘doyga birinchi o‘roq tushganda. Navro‘zning birinchi kuni erta tongda turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarini kiyib, qarindosh-urug‘lari, keyin yor-u birodarlaridan xabar olar ekan. Ular bilan suhbatlashar, hazil-mutoyiba qilar, askiyalar aytishar ekan. Keyin to qosh qorayguncha qo‘sh qo‘shishar, yerga birinchi omoch solishda qatnashar, nihol ekishar ekan... Hol-ahvol so‘raganlarga: „Hozir dam olmoqdaman“, deb javob berar ekan.

Boshoqqa birinchi o‘roq tushgan kuni ham dehqoncha libos kiyib, o‘roqni olib, kechgacha bug‘doy o‘rar ekan. Olimni ko‘rganlar: „Hormang“ deyishsa: „Dam olib, rizqimni teryapman“, deb javob berar ekan.

Qarang-a, ulug‘ alloma mutolaa, kitob yozish, tajriba o‘tkazishdan yiliga ikki kun vaqt ajratib, azondan to kechgacha qo‘sh qo‘shib, shudgor qilishni, bug‘doy o‘rishni o‘zi uchun dam olish deb bilar ekan.

Ha, Beruniy bobomiz: „Bir daqiqa vaqtni behuda o‘tkazganim – halok bo‘lganim“, der ekan.



Lug‘at

dam olmoq – отдыхать

o‘roq – серп

libos – одежда

shudgor – вспаханное поле

hazil-mutoyiba – шутка

azon – раннее утро

alloma – учёный

omoch – плуг

behuda – напрасно,
бесполезно

qo'sh qo'shmoq – запрягать в плуг **o'rmoq** – жать, косить
nihol – росток, рассада

Mustaqil ish. „Beruniyning dam olish kunlari“ matnidan „Yaxshi dam, mehnatga hamdam“ maqoliga mos parchani ajratib yozing.



1- mashq. O'qing. So'zlang. Yozing.

1. Vaqting ketdi – naqding ketdi.
2. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.
3. Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, odam mehnati bilan.



Uyga vazifa. O'tilgan mavzularni tartib bilan yozing. 5 ta test topshirig'i tayyorlang.



3- DARS



1- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. U ... kelyapti.
2. Aziz ... xat oldi.
3. ... erta qaytdi.
4. Ahmad ... chiqmadi.
5. ... o'tib uyga kirdik.
6. Piyodalar ... yurish kerak.

Foydalanish uchun so'zlar: akasidan, o'qishdan, maktabdan, uydan, ko'chadan, yo'lagidan.



Fonetik mashq

ukamdan	tog'ga	balanddan	ko'prikda
sinfga	o'shandan	darddan	ishdan
ko'chada	ko'prikka	tutdan	otdan
taxtadan	o'rnida	marddan	qanddan



2- mashq. So'zlarni to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing.

1. Darsdan, keldim, uyga, so'ng.
2. Maktabdan, kirdim, dorixonaga, chiqib.
3. O'qituvchidan, so'radim, ruxsat.
4. Men, ko'prikdan, o'tdik, va, singlim.



Muomala odobi

Telefondagi murojaatga javob

- Allo, kim so‘rayapti?
- Nima deb qo‘yay?
- Albatta aytaman.
- Qo‘ng‘iroq qilganingizni aytaman.
- Keyinroq qo‘ng‘iroq qila olasizmi?



1- topshiriq. Partadoshingiz bilan kechirim so‘rashga oid javoblar ishtirokida ssenariy yozing va sahnalashtiring.



3- mashq. O‘zingiz tuzgan „Dam olish kunim“ rejasi asosida yozma matn tuzing. Matnda ishtirok etgan kelishik qo‘shimchalarini namunadagidek izohlang.

Namuna: Onamga (jo‘nalish kelishigi) uy ishlarida (o‘rinpayt kelishigi) yordam berdim.



4- mashq. „Bir“ so‘zidagi unli va undosh harflarni shunday o‘zgartiringki, natijada 10 ta yangi so‘z hosil bo‘lsin.

Namuna: Bir → bur → ... → ...



5- mashq. Ko‘chiring. Kelishik qo‘shimchalarini aniqlab, tagiga chizing.

1. Karima hamma fanlardan „4“ va „5“ baho oldi.
2. Men o‘zbek tilida yaxshi gapiraman.
3. Shanbalikda maktab bog‘ida daraxtlarning qurigan shoxlarini kesdik.
4. Yolg‘onning umri qisqa bo‘ladi.
5. O‘quvchining har bir yutug‘i o‘qituvchini xursand qiladi.

Mustaqil ish. *Qayerdan? kimdan? nimadan?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarga beshtadan misol keltiring.

Qayerdan?

uydan

Kimdan?

ukamdan

Nimadan?

chinnidan



Uyga vazifa. Belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlar ishtirokida „Mening do‘stim“, „Mening singlim“, „Bizning sinf“ kabi mavzulardan biriga og‘zaki matn tuzing.



4- DARS



1- topshiriq. Matnni o'qing. O'z xulosalaringiz haqida sinfdoshlaringiz bilan suhbatlashing.

FOYDALI NASIHAT

Anvar bilan Tohir maktabdan kelayotgan edi. Yo'lda bir cholni uchratdilar.

Cholning qo'lida hassa bor edi. Chol turtinib qadam bosar va ularni ko'rmasdi. Anvar o'rtog'idan sekin so'radi.

– Bu chol boboning ko'zi ko'rmaydi, shekilli-a?

Chol Anvarning gapini eshitib qoldi.

– Bolalarim, mening ko'zlarim ko'rmaydi. Qayerdasizlar? – dedi va qo'li bilan bolalarni qidirdi.

Bolalar yugurib kelib, cholning qo'lidan ushladilar.

– Bobo, qayerga borasiz?

– Non do'koniga boraman, bolam, – dedi chol. Ular cholni yetaklab ketishdi. Chol ularga qanday qilib ko'r bo'lib qolganini aytib berdi.

Chol yoshligida juda sho'x bo'lgan ekan. Dam olish kuni u o'rtog'i bilan sim va tunikadan nayza, qilich yasashibdi. Ikkalasi qilichbozlik, nayzabozlik qilishibdi. Bexosdan o'rtog'ining qilichi uning ko'zlarini tilib ketibdi. Shunday qilib ko'r bo'lib qolgan ekan.

– Bolalarim, – dedi bobo, – sizlar hali yoshsizlar. Ko'zlaringizni ehtiyot qilinglar. Ko'z bo'lmasa butun dunyo qop-qorong'i bo'ladi. Yordamingiz uchun rahmat. Gaplarimni unutmang.

„Odobnoma“ kitobidan



2- topshiriq. „Foydali nasihat“ matnidagi bobo, Anvar va Tohirning tashqi ko'rinishlarini tasvirlang.

Foydalanish uchun so'z va so'z birikmalari: baland bo'yli, nuroniy, ozoda kiyingan, o'rta bo'yli.

Namuna: Bobo: o'rta bo'yli, nuroniy, ...

 **1- mashq.** Matndan foydalanib, gaplarni to'ldiring.


Chol turtinib ... bosar va ... ko'rmasdi. Ular ... yetaklab ketishdi. Chol yoshligida juda ... bo'lgan ekan. Shunday qilib ... bo'lib qolgan ekan. ... ehtiyot qilinglar. Ko'z bo'lmasa butun ... qop-qorong'i bo'ladi.

Mustaqil ish. „Foydali nasihat“ matnini e'tibor bilan o'qing va asosiy fikr berilgan gapni daftaringizga ko'chirib yozing.

Fonetik mashq

„Muz“ so'zidagi unli va undoshlarni shunday almashtiringki, 10 ta so'zdan keyin u „suv“ so'ziga aylansin.




Muz → kuz → ... → ... → ... → ... → suv.

 **2- mashq.** Berilgan gaplardagi kelishikda kelgan so'zlarga so'roq bering, ularni alohida ko'chirib yozing.

1. Bugun otam ishdan bir soat erta qaytdi. 2. Akmalga „O'zbek xalq ertaklari“ kitobini sovg'a qildim. 3. Darsdan so'ng sport to'garagiga boraman. 4. Opamni onam bilan kutib oldik. 5. Uy vazifasini bajarib bo'lgandan keyin uch-rashamiz.

 **Uyga vazifa.** Yozgi ta'tilni o'tkazish bo'yicha reja tuzing.

5- DARS

   **1- topshiriq.** O'qing. So'zlang. Barcha kelishiklar ishtirok etgan so'zlarni topib ko'chiring.

BOTANIKA BOG'I

Toshkentda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Botanika bog'i bor. Bu yerda xilma-xil o'simliklar, gullar, butalar va daraxtlar o'sadi. Ayniqsa, bahorda bog'ning manzarasi

juda chiroyli bo'ladi. Bog'da har xil gullar ochiladi. Mevali va manzarali daraxtlar gullaydi. Bog'da Xitoy, Hindiston, Shimoliy Amerika, Kavkaz, Rossiya va Markaziy Osiyoda o'sadigan olti ming navdan ortiq o'simliklar bor. Bu yerda olimlar yovvoyi, dorivor hamda manzarali o'simliklarni madaniylashtirish sohasida ko'plab ishlar qilishmoqda. Bog' va uning xodimlari haqida O'zbekiston televideniyasining „Dunyo bo'ylab“ kanalida qiziqarli ko'rsatuvlar berib boriladi.



1- mashq. „Botanika bog'i“ matnidan foydalanib, gaplarni kengaytiring.

1. Toshkentda Botanika bog'i bor. 2. Bu yerda xilma-xil o'simliklar o'sadi. 3. Bahorda chiroyli bo'ladi. 4. Bog'da har xil gullar gullaydi. 5. Bog'da olti mingdan ortiq o'simliklar bor. 6. Bu yerda olimlar ko'plab ishlar qilmoqdalar.



2- topshiriq. „Botanika bog'i“ matnidan olgan ma'lumotingizni jadvalga joylashtiring.

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman



3- topshiriq. O'qing. Tinglang. Savollarga javob yozing.

DAM OLISH KUNIDA

O'tgan yakshanba kuni
Men, opam, oyim, dadam
Hayvonot bog'iga borib,
Hordiq oldik chinakam.

Ko'rdik filni, burgutni,
Maymunlarni ko'rdik biz.
Tuyakash yetagida
Tuya minib yurdik biz.

Arslon-u bo'rilar
Qarab-qarab qo'yishdi.
Tog' takalar: „Barg ber“, deb
Ma'rab-ma'rab qo'yishdi.

Xuddi sirkdagi kabi
Ayiqvoy chaldi chapak.
Tumshug'in taqillatib:
– Qalaysan? – dedi laylak.

Kezib hayvonot bog'in
Zavq-shavq oldik bir olam.
Uyga qaytdik kechqurun
Men, opam, oyim, dadam.

Abdurahmon Akbar



Lug'at

hordiq – отдых
tuyakash – погонщик
верблюдов
burgut – орёл

taqillatmoq – стучать
zavq-shavq – наслаждение,
восторг, восхищение



Savollar

1. O'tgan yakshanba kuni oilangiz bilan qayerga bordingiz?
2. Hayvonot bog'ida nimalarni ko'rdingiz?
3. Hayvonot bog'idagi kataklar yoniga nima uchun „Katakka yaqinlashmang!“, „Yovvoyi hayvonlarga ovqat berish taqiqlanadi!“ deb yozib qo'yilgan?

Mustaqil ish. „Dam olish kunida“ she'rida tasvirlangan hayvonlar nomini alifbo tartibida yozing.



4- topshiriq. Ta'til vaqtida bajarmoqchi bo'lgan ishlaringiz rejasini tuzing.



Uyga vazifa. „Dam olish kunida“ she'rini yodlang.

O'ZBEKCHA-TOJIKCHA LUG'AT

A

abjir – мохир, чолок, чаққон
agar – агар, мабодо
ajablanmoq – хайрон (мутахайир)
шудан
ajib – хайратангез, ачиб, ачаб
antiqa – камёб, нодир, фавқулдда
avlod – авлод, ачдод, насаб, нажод
avval – аввал, аввалан, пеш аз ҳама

B

badiiy – бадеи
bahona – баҳона, ваҷҳ
bahs – баҳс, мубоҳиса
balli – офарин, бале
baquvvat – пурзӯр, бақувват
baraka – барака, фаровонӣ
barkamol – комил, баркамол, мукаммал
barvaqt – барвақт
bekorchi – бекорхӯча, танбал
bepoyon – бепоён, беҳад, беканор
bezovtalanmoq – безобита (нороҳат,
хавотир) шудан
birdan – ногоҳ, нохост, ногаҳон
bulutli – абрнок, абролуд, тира

D

daqiqqa – дақиқа
darmon – қувват, зӯр, иқтидор, қудрат
darg'azab – бадқаҳр, боғазаб, хашмгин
dasturxon – дастархон, суфра
dangasa – танбал, дангоса
da'vo – даъво, мутолиба
devor – девор, тавора, қанот
did – завқ, салиқа, табъ
diqqat – диққат, таваччӯх, эътибор
donishmand – донишманд, оқил,
хирадманд
dono – доно, оқил
dovuchcha – ғӯра, давча
dovyurak – нотарс, часур, далер
dog' – доғ, лакка
dushman – душман, хасм, адӯ
do'l – жола, тагарг, дӯл

do'q – таҳдид, дӯғ, пӯписа
do'stona – дӯстона, меҳрубона

E

ega – соҳиб, хӯчаин
egri – қач, қачу қилеб
ehtimol – шояд, эҳтимол, балки
ehiyot – эҳтиёт
ekin – кишт, зироат
elchi – сафир, элчи
endi – ҳозир, акнун, ҳоло
epchil – мохир, чолок, чаққон
erinmoq – танбалӣ (беҳавсалағӣ)
қардан
erta – пагоҳӣ, бомдод, бармаҳал
eshitmoq – шунидан, шунавидан
e'lon – эълон
e'tibor – таваччӯх, эътибор

F

faqat – фақат
farosat – фаросат, нуктасанҷӣ
favvora – фаввора
faxr – ифтихор, ғурур
fazilat – фазилат, эътибор, шаън
fazo – фазо
fikr – ғоя, мафкура, фикр, ақида
foyda – фоида, суд, нафъ
fursat – вақт, фурсат

G

gavda – андом, чусса, пайкар
gavjum – сераҳолӣ, серодам
gasht – ҳузуру ҳаловат, нашъа, фараҳ
goh – гоҳ, баъзан, гоҳ
guldon – гулдон
gulxan – гулхан, алав, оташ
go'yo – гӯё, гӯё ки, барин

H

hakka – акка, алошақшақа
hali – ҳоло, то кунун, то ба ҳол
hamkorlik – дӯстӣ, рафоқат, ҳамкорӣ
haqiqat – ҳақиқат, ҳақ
harorat – ҳарорат

havas – шавқ, ҳавас, завқ
haydovchi – ронанда
haykal – ҳайкал, мучассама
himoya – мудофия, муҳофиза, ҳимоя
hozir – ҳозир, ҳоло, ҳамин замон
hurmat – эҳтиром, ҳурмат, иззат

I

iborat – иборат
ibrat – намуна, тимсол, ибрат
ijod – эҷод
indin – пасфардо, пас аз пагоҳ
intilmoq – саъй (кӯшиш) кардан
iqbol – бахт, саодат, иқбол
iqlim – иқлим, обу ҳаво
izoh – баён, эзоҳ, шарҳ
izzat – эҳтиром, ҳурмат, иззат
ishonch – бовар, дилпурӣ, эътимод
ishtaha – иштиҳо

J

jadval – ҷадвал
jala – жола, борони сел
janjallashmoq – низоъ (чанчол) кардан
jasur – часур, диловар, шуҷоатманд
jang – жанг, корзор
jonajon – писандида, азиз, маҳбуб
juft – ҷуфт, ду адад, дута
jo'natmoq – фиристодан, равона кардан
jo'sh urmoq – талотум кардан, чӯш задан
jo'shqin – пурчӯш, пурталотум

K

kalta – кӯтоҳ
kaltak – чӯб, калтак
kamar – камар, миён, тасма
kambag'al – камбағал
kampir – кампир, пиразан
kaptar – кабӯтар, кафтар
kasb – касб, ҳунар, пеша
kekxa – мӯйсафед, пир, пирамард
kenja – хурд, хурдӣ
keyin – баъд, сонӣ, пас
kezmoq – гаштан, гаштугузор кардан
kiyim – либос, пӯшок, сарулибос
kulgi – ханда, табассум

kulol – кулол, кӯзагар
kuy – оҳанг, наво, савт
kuzgi – тирамоҳӣ
ko'klam – сабззор, кабудизор
ko'rkam – хушрӯ, зебо, соҳибчамол
ko'tarmoq – бардоштан
ko'zgu – оина
ko'chat – кӯчат, ниҳол

L

lapashang – беҳавсала, даҳаняла
laylak – лаклак
lazzat – мазза, лаззат
libos – либос, пӯшок, сарулибос
loy – гил, лой
lozim – лозим

M

madaniy – маданӣ
majlis – маҷлис
maslahat – маслиҳат, машварат
mavsum – мавсим
mayda – хурд, майда
maysa – майса, сабза
maysazor – сабззор, марғзор, алафзор
mazmun – мазмун
ma'no – маънӣ, маъно, мафҳум
mehmon – меҳмон
mehribon – меҳрубон, пурмеҳр
mevazor – боғи мевадор
mos – мувофиқ, муносиб
mug'ambir – маккор, ҳилагар, айёр

N

nabira – набера
nasihat – панд, насиҳат
natija – натиҷа
navbahor – навбаҳор
navbatchi – навбатдор
nimjon – суст, заиф, камқувват
nodir – нодир, камёб, фавқулодда
nodon – нодон
nohaq – ноҳақ
noma'lum – номаълум
noto'g'ri – нодуруст, хато, ғалат
nur – нур, шуоъ

O

obbo – эҳ, воҳ, э воҳ, ачабо
obod – обод, ободон
obro'li – гиromй, мўҳтарам, иззатманд
odat – одат, урфу одат, расм, таомул
odil – одил, ҳаққонй, адолатнок
oldin – аввал, аввалан, пеш аз ҳама
olim – донишманд, олим
olov – оташ, олав
omad – барор, омад
orol – қазира
orzuz – орзу
ovoz – овоз, садо
oyna – ойна
ozoda – тоза, пок, покиза
ozg'in – лоғар, хароб, камгўшт
og'ir – вазнин, гарон
og'zaki – даҳонакй, лафзй, шифоҳй
ochko'z – хасис, ҳарис, мумсик

P

parranda – парранда, мурғ
parvarish – нигоҳубин, парвариш
parvoz – парвоз
parcha – порча
past – паст
paxtazor – пахтазор
payt – лаҳза, дам, он
pazanda – ошпаз, таомшинос, таббоҳ
pehshin – нимрўзй, нисфирузй, пешин
piyoda – пиёда
pilla – пилла
podachi – подачй, подабон
podsho(h) – подшоҳ, шоҳ
polvon – одами зўр, паҳлавон
posbon – посбон
poyma – пойга
pushaymon – пушаймонй, афсўс

Q

qadam – қадам
qadimiy – қадима, қадимй
qadr – ҳурмат, эҳтиром, иззат, обрў
qahramon – қаҳрамон
qariya – мўйсафед, пир, куҳансол

qattiq – саҳт, маҳкам
qaytmoq – баргаштан
qisqa – кўтоҳ, мухтасар
qiziqarli – шавқовар, завқовар
qizg'anchiq – хасис, мумсик, зихна
quvnoq – шодмон, хушҳол, масрур
qo'rqoq – тарсончак, буздил

R

rahbar – роҳбар, роҳнамо, сардор
rahmdil – раҳмдил, нармдил, дилсўз
raqam – рақам, адад
raqib – рақиб, ҳариф
reja – нақша, лоиҳа, тарҳ, реча
rivoyat – нақл, ривоят, афсона
ruxsat – рухсат, иҷозат
ro'yxat – рўйхат, номгўй, феҳрист

S

sabab – сабаб, вачҳ, боис
safar – сафар, саёҳат, сайр
sahro – биёбон, саҳро, бодия, чўл
sakrash – қаҳиш, част, ҳаллос
salomat – тандуруст, солим, сиҳат
sarguzasht – ҳодиса, воқеа, саргузашт
savod – хату савод, савод
saxovat – саховат, олиҳимматй,
 каримй
sayil – сайл
sayohat – сафар, саёҳат, сайр
sayyoh – сайёҳ, қаҳонгард, саёҳатчй
sekin – оҳиста, суст
silliq – ҳамвор, силиқ
sinov – санчиш, озмоиш
siqim – каф, ҳавуч
sir – сир, роз, асрор
so'roq – савол, пурсиш

T

taassurot – хотирот, таассурот
tabassum – табассум, лабҳанд
tabriklamoq – муборакбод (табрик,
 таҳният) гуфтан
tajriba – таҷриба, малака, маҳорат
taklif – даъват, таклиф
takror – такрор

talaffuz – талаффуз, тарзи гуфтор
taltaymoq – ҳавобаландӣ, такаббурӣ,
худписандӣ
tana – тан, колбад, бадан
tanaffus – танаффус
tanbeh – танбеҳ
tandir – танӯр
tanqid – танқид
tantanali – тантананок, ботантана
taraqqiyyot – мутараққӣ, тараққиёт
tarbiya – тарбия, парвариш
tarix – таърих
tarjima – тарҷума
tartib – тартиб, низом
tasavvur – тасаввур
tasvir – тасвир, акс
tavba – пушаймонӣ, афсӯс, тавба
tavsiya – тавсия
taxir – талхча, талхнамо
taxminan – тақрибан, тахминан, қариб
tayyorgarlik – тайёр (омода, ҳозир)
будан
ta'lim – омӯзиш, таълим, таҳсил
ta'zim – таъзим, салом
tashkilot – ташкилот, муассиса
tanga – тин, танга

U

ulug' – бузург, азим
umid – умед, чашмдошт
umumiy – умумӣ
uyum – ғарам, тӯда
uzatmoq – дароз кардан
uzoq – дур

V

vaqt – вақт
vatandosh – ҳамватан, ҳамдиёр
vayron – вайрон
vazifa – вазифа
va'da – ваъда, қавл
vijdon – виҷдон, инсоф
voha – воҳа, вилоят
voqea – воқеа, ҳодиса

X

xabar – хабар, пайғом, дарак
xafa – хафа
xalq – халқ, мардум
xalqaro – байналхалқӣ
xanda – ханда, табассум
xarid – харид
xasis – хасис, мумсик, зихна
xavf – хатар, хавф, бим
xavotir – хавотир, нооромӣ
xayrlashuv – видоъ, падруд, хайрбод
xayol – хаёл, орзу
xazina – ганчина, хазина
xazon – баргрезӣ, хазонрезӣ
xotira – ёдоварӣ, хотира, ёдбуд
xulq – феъл, хӯ, хулқ, табиат
xunuk – бад, ганда, хунук
xursand – хурсанд, хушнуд, хуррам

Y

yagona – ягона
yakun – чамъ, чамъбаст
yana – боз
yegulik – хӯрданӣ
yelka – кифт, дӯш, шона
yetkazmoq – расондан, бурда
(оварда) расондан
yetuk – болиғ, ба балоғат расида
yechim – ҳалкунӣ, ҳал
yengmoq – ғалаба кардан, ғолиб
омадан
yiroq – дур
yirtqich – дарранда, ҳайвони ваҳшӣ
yoki – ё ки, ё ин ки
yolg'on – дурӯғ
yon – паҳлу, биқин
yozgi – тобистонӣ, тобистона
yuk – бор
yuvinq – шӯстушӯ кардан
yo'lak – гузаргоҳ, пайроҳа
yo'tal – сулфа, сурфа

Z

zamin – замин, хок
zamon – замон, вақт
zamonaviy – замонавӣ, ҳозиразамон

zarur – зарур, лозим
zavq – завқ, шавқ
zehnli – хушзеҳн, бофаросат
zilzila – заминчунбӣ, зилзила
ziqna – хасис, мумсик, зихна
ziyofat – зиёфат, базм, меҳмондорӣ
ziyoli – зиёӣ
ziyrak – бофаросат, зирак
zoye – беҳуда, бефоида
zo'rg'a – ба зӯр, бо душворӣ

О'

o'git – панд, насиҳат
o'jar – яқрав, саркаш, гарданшах
o'lja – сайд, ғанимат
o'lka – мамлакат, кишвар, сарзамин
o'qimishli – бомаърифат, босавод
o'rindiq – стул, курсӣ
o'rniga – ба ҷойи, ба ивази
o'rnak – намуна, тимсол, ибрат
o'simlik – растанӣ, гиёҳ, наботот
o'smoq – сабзидан, расидан
o'spirin – ҷавон, навҷавон
o'tkir – тез, бурро
o'tloq – чарогоҳ
o'tmoq – гузаштан
o'ylamoq – фикр (андеша) кардан
o'ynamoq – бозӣ кардан
o'zaro – байниҳам
o'zboshimcha – худсар, худраъӣ
o'zga – бегона, ғайр

Г'

g'alaba – ғалаба, ғолибият, зафар
g'alati – ғайриоддӣ, фавқулодда
g'alla – дона, тухм, дон
g'am – ғам, ғусса, ҳасрат, андӯҳ
g'aram – ғарам
g'arb – ғарб, мағриб
g'aroyib – ҳайратангез, аҷиб
g'ayrat – ғайрат, кӯшиш, саъй
g'azab – хашм, ғазаб, қаҳр
g'isht – хишт
g'or – ғор
g'uncha – ғунча, муғча
g'urur – ғурур, ифтихор

SH

shabada – серун, салққин, хуноқи
форам
shabnam – шабнам
shakl – шакл, қолаб
shalpaygan – пакар, беҳол, ланҷ
sharaf – оро номус, шарафу номус
sharbat – шира, шарбат
sharh – таъбир, тафсир, эзоҳ, шарҳ
sharq – шарқ, машриқ
shart – шарт, талабот, шарту шароит
sharshara – шаршара, шалола, обшор
shaxs – шахс, одам, кас
shisha – шиша, оина, обгина
shodlanmoq – хурсанд (шод, хушнуд)
шудан
shogird – шогирд, пайрав
shoyi – абрешим, шоҳӣ
shoshilmoq – шитоб кардан, шитофтан
shuhrat – шаън, шараф, шӯҳрат
sho'r – шӯр

CH

chalkash – чигил кардашуда
chalg'itmoq – диққатро ба ҷои дигар
чалб кардан
chaman – чаман, гулзор
chanqamoq – ташна будан, ташна
мондан
chap – чап
chaqaloq – бачаи ширмак, кӯдак
chaqmoq – барқ, чароғак, оташак
chavandoz – чопандоз, бузқаш
chashma – чашма, сарчашма
chang – гард, чанг, ғубор
chang'i – лижа
chegaradosh – ҳамсарҳад
chidam – сабр, тобу тоқат
chinni – фахфур, чинӣ
chit – чит
chorva – ҳайвон, чорпо, моли чорпо
chuqur – чуқурӣ, мағок
cho'l – дашт, чӯл
cho'qqi – қулла, нӯг, сар, теға

MUNDARIJA

<i>I mavzu. Mening Vatanim (Ot – soʻz turkumi. Atoqli va turdosh otlarning qoʻllanishi)</i>	3
<i>II mavzu. Oila aʼzolarining ish kuni (Shaxs otlari. kasb-hunar otlarining qoʻllanishi)</i>	14
<i>III mavzu. Yangi fanlarni oʻrganamiz (Oʻrin-joy va narsa-buyum otlarining qoʻllanishi)</i>	24
<i>IV mavzu. Ustozga rahmat! (-lar koʻplik qoʻshimchasining qoʻllanishi)</i>	35
<i>V mavzu. Mening sinfdoshlarim (Egalik qoʻshimchalarining qoʻllanishi)</i>	45
<i>VI mavzu. Oʻzbek tili xonasi (Kelishiklar. Bosh kelishik)</i>	56
<i>VII mavzu. Oltin kuz (Qaratqich kelishigining qoʻllanishi)</i>	67
<i>VIII mavzu. Toʻgarak mashgʻulotlari (Egalik va qaratqich kelishigi qoʻshimchalarining birga qoʻllanishi)</i>	76
<i>IX mavzu. Qishki taʼtil (Tushum kelishigining qoʻllanishi)</i>	85
<i>X mavzu. Ertaklar olamida (Joʻnalish kelishigining qoʻllanishi)</i>	94
<i>XI mavzu. Mening darsxonam (Oʻrin-payt kelishigining qoʻllanishi)</i>	105
<i>XII mavzu. Shahar boʻylab sayohat (Chiqish kelishigining qoʻllanishi)</i>	116
<i>XIII mavzu. Onajonlar bayrami (Sifat soʻz turkumi. Rang-tus bildiruvchi sifatarning qoʻllanishi)</i>	129
<i>XIV mavzu. Navroʻz (Maza-taʼm bildiruvchi sifatarning qoʻllanishi)</i>	139
<i>XV mavzu. Kitoblar olamiga sayohat (Hajm-oʻlchovni bildiruvchi sifatarning qoʻllanishi)</i>	151
<i>XVI mavzu. Odobli boʻl (Xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatarning qoʻllanishi)</i>	166
<i>XVII mavzu. Transportda (Shakl-koʻrinishni bildiruvchi sifatarning qoʻllanishi)</i>	177
<i>XVIII mavzu. Dam olish kunim (Oʻtilganlarni takrorlash)</i>	191
<i>Oʻzbekcha-tojikcha lugʻat</i>	201

Rafiyev A. va boshqalar.

81.2 O'zb–922
R 36

O'zbek tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / A. Rafiyev, G. Muxamedjanova, N. Alovuddinova. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2020. – 208 b.

ISBN 978-9943-22-479-7

UO'K: 811.512.133(075.3)
KBK 81.2 O'zb–922

ABDUROZIQ RAFIYEV, **GULNORA MUXAMEDJANOVA**,
NODIRA ALOVUDDINOVA

O'ZBEK TILI

**Ta'lim tojik tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim
maktablarining 5- sinfi uchun darslik**

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2020

Tarjimon *J. Eshonqulov*
Muharrir *Z. Inyaminova*
Badiiy muharrir *Sh. Toshturdiyev*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Musahhihlar: *E. Najimova, H. G'ulomova*
Kompyuterda sahifalovchi *O'. Qurbonova*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0040. 10.12.2019. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 01.07.2020. Bichimi 70x90^{1/16}. Kegli 11, 12 shponli. „Helvetica“ garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.

Ofset qog'ozida. Shartli b.t. 15,21. Hisob-nashriyot t. 13,0.

Adadi 7255 nusxa. Buyurtma №

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1-uy. Shartnoma № 16-20.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqalar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.